

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
XALQ IJODIYOTI KAFEDRASI

ABDURASULOV SHUHRAT MUHIDDINOVICH

“5810400 Ijtimoiy madaniy faoliyat” yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun

“Ijtimoiy madaniy faoliyatni rivojlantirishda san'atning o'rni” mavzusida
yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: s.f.d.prof. Umarov A.O

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Xalq ijodiyoti fakulteti dekani _____ f.f.n.dots.Davlatov S.X

“ _____ ” _____ 2014 yil

Toshkent-2014

Mundarija

Kirish	3
I Bob. Ijtimoiy - madaniy faoliyat: uning nazariy va tarixiy ildizlari.	
1.1 Ijtimoiy - madaniy faoliyat fenomeni.....	6
1.2 Ijtimoiy - madaniy faoliyat nazariyasi va tarixi.....	19
II Bob. Ijtimoiy – madaniy faoliyat samaradorligini oshirishda san’atning o’rni va ahamiyati.	
2.1 Milliy-ma’naviy tiklanishda san’atning roli.....	37
2.2 Barkamol avlodni tarbiyalashda musiqa san’atining o’rni.....	50
Xulosa	54
Foydalanilgan adabiyotlar	56

Kirish.

Bitiruv malakaviy ishi mavzuining dolzarbligi Madaniyat millatning ko'zgusi. Har bir millat - o'z madaniyatini saqlash, rivojlantirish, hamda ijtimoiylashtirishga intiladi. Madaniyatning ijtimoiylashuvi ikki yo'nalishda: bir tomondan ijobiy jihatlarni targ'ib etish tarzida ifodalansa, ikkinchi jihatdan, mentalitetga xos bo'lgan xususiyatlar, turmush tarzi elementlari o'ziga xos hatti – harakatlarni ommaviylashtirishga, ya'ni uni turli vositalar (teleko'rsatuvlar, filmlar, internet saytlari) va turli madaniyat muassasalarida madaniyatning qadriyatlar bilan uyg'unlashgan jihatlarni takomillashtirish, alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatni barqaror va har tomonlama mutanosib tarzda rivojlantirish uchun, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur islohotlarning negizini unda yashovchi aholining farovon hayot kechirishi va ma'naviy yuksaklikka intilishi bilan baholash mumkin. Ya'ni, har bir jamiyatning taraqqiyot omilini - ma'naviy barkamol insonlar ta'minlaydi.

Shuning uchun bugungi kunda ma'naviyat – ma'rifat va madaniyat masalalariga juda katta ahamiyat berilmoqda. E'tirof etish joizki, jamiyat taraqqiyotida ma'naviyat va madaniyat bilan bir qatorda san'atning ham o'rni beqiyosdir.

Milliy madaniyatimizni yoshlar ongiga singdirishda, uning ijtimoiylashuvida san'atning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda san'atdagi kamchilik va muammolarni tahlil qilib, bartaraf etishga yo'naltirilgan izlanishlar, bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ma'naviyat va ma'rifat islohatlarini barkamol avlodga singdirish borasida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish, hamda san'atning turli xil faoliyati misolida tadqiqot olib borishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun, quyidagi vazifalar belgilandi.

1. Respublikamizdagi madaniyat va ma'rifat markazlarida olib borilayotgan islohatlarni o'rganish.
2. Barkamol avlod tarbiyalashda o'zbek san'atini rolini tadqiq etish.
3. Madaniyat va san'atda mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etishda tadqiqotlar asosida tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi muayyan darajada amaliy ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi jihatlari mavjud. Ijtimoiy - madaniy faoliyat negizlaridan birini tashkil etuvchi omil, bu san'atdir. Shuning uchun ularni yanada rivojlantirish, asosiy masalalar qatoriga qo'yilgan. Bugungi kunda san'atning turli xil qirralarini yaratish uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusida ma'lum darajada san'atda bo'lgan muammolarni bartaraf etishga doir tavsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Yana bir jihati yoshlarni ijtimoiy - madaniy faoliyat tarixi va nazariyasi bilan tanishishi, bitiruv malakaviy ishini amaliy rolini oshiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ijtimoiy - madaniy faoliyat nazariyasi va tarixi, san'at va madaniyatga oid bir necha o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalar yozilgan. Biroq, ma'naviyatni anglash orqali barkamol avlodni tarbiyalashda san'atning roli batafsil yoritib bayon qilinmagan. Shuning uchun bu mavzu hali ko'p tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi.

Tadqiqotning predmeti va ob'ekti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida Prezidentimizning madaniyatimiz va ma'naviyatimiz yuksalishi yo'lida yozgan asarlari, hamda madaniyatshunoslik, madaniyat masalalari kabi o'quv

uslubiy qo'llanmalar bir necha gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar olindi. **Uning ob'ektini** san'at tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy – metodologik asoslari. Prezidentimiz I.A. Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, “Istiqlol va ma'naviyat”, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”, “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda”, kabi asarlari, hamda sharq mutafakkirlarining madaniyat va san'at to'g'risidagi ta'limotiga asoslangan.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki davr talabi insonlarning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ijtimoiy madaniy faoliyatga bo'lgan talab ham, bugungi kun masalalaridan hisoblanib, uni yanada rivojlantirish orqali madaniyat mussasalarining faoliyatini yaxshilash, va samarali yo'lga qo'yish borasida Respublikamizdagi olimlar A. Mavrulov, A. Erkayev, M. Bekmurodov, U. Qoraboyev, I. Jabborov, M. Imomnazarov, N. Komilov, Q. Nazarov, S. Otamurodov, M. Xayrullayev, A. Yunusov, Sh. Alimovalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining tuzilishi. Kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa, tayanch iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I Bob. Ijtimoiy- madaniy faoliyat:uning nazariy va tarixiy ildizlari.

1.1 Ijtimoiy – madaniy faoliyat fenomeni.

Mamlakatimizda erkin madaniy faoliyat yuritish hamda madaniy boyliklardan bahramand bo'lishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Bu O'zbekiston Konstitutsiyasining 42-moddasida alohida qayd etildi. Unda ta'kidlanishicha, har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi. "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" nazariyasi ilmiy bilimlarning umumta'lim tizimi tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

“Ijtimoiy - madaniy faoliyat aholining ma'naviy jihatdan saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, bo'sh vaqtlarni samarali o'tkazish va shu kabilarga yordam beradigan faoliyatdir”¹.

Umuman, u mustaqil faoliyat tarziga ega bo'lsada sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyatshunoslik va bunga ko'plab ijtimoiy mazmundagi fan sohalari amaliyoti yig'indisidan iborat; yuqorida keltirilgan fikrlar metodikasida umumiy darajada foydalangani holda o'z xususiy va maxsus faoliyat metodlarini ishlab chiqadi.

O'z navbatida ijtimoiy-madaniy faoliyat nazariyasi ham ko'plab boshqalarga nisbatan torroq sohalar uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Masalan, san'at, turizm, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, etnografiya va folklor, etnosotsiologiya, adabiyotshunoslik, rejissura kabilar uchun nazariy manbadir.

¹ V.V. Tuev. Sotsialno kulturnaya deyatelnost: ponyatnaya i definisii://. Sotsialno kulturnaya deyatelnos: terya, texnologii praktika. Kollektivnaya monografiya, Telavif, 2005. 11 – 29 st.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatiga alohida e'tibor qilinishing bosh sabablaridan biri O'zbekiston Respublikasining mazkur masalaga o'ziga xos tarzda munosabatda bo'lishidir. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda 6 ming klub va madaniyat uylari 17 ming kutubxona-axborot resurs markazlari, 320 muzey hamda madaniyat va istirohat bog'lari mehnatkashlarga xizmat ko'rsatmoqda shuningdek mamlakatimizda 12 ming kishidan iborat oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan madaniy-ma'rifiy soha hodimlari faoliyat yuritmoqdalar. Mazkur tashkilotlar tumanlardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritmayaptilar.

Joylardagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati ommaga faqat san'at turlarini targ'ib etish, yoshlarni badiiy havaskorlik ishlariga jalb etish bilan cheklanib qolmoqda. Bu birinchi muammo. Ikkinchi muammo bu o'rganilgan ijtimoiy voqelik jarayonlar to'g'risidagi jamoatchilik fikrining tezkorlik bilan ommaviy axborot vositalari hamda televidenie orqarli berib borilmasligidir.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat hozirda turli vazirliklar, idoralar qaramog'ida olib borilmoqda. Ularda ish sifati, samaradorligini oshirishda ma'lum choralar ko'rilmoqda.

Biroq, boshqa vazirlik va idoralar, ayniqsa, kasaba uyushmalari qaramog'idagi ko'p sonli madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ularni bozor munosabatlari sharoitiga muvofiqlashtirish ishlari juda sust olib borilmoqda. Kadrlar siyosati masalasida jiddiy islohotlar olib borish talab etilmoqda.

Hozirda barcha ishlar yangi ta'lim standartlari asosida olib borilmoqda. Ammo, bu sohada ko'zga ko'rinarli ijobiy holatga erishish qiyinchiliklar bilan davom etmoqda. Shu maqsadda ijtimoiy madaniy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, o'z kasbiy, ijodiy mahoratiga tayangan holda faoliyat ko'rsatuvchi, demokratik jamiyat barpo etish talablariga mos keladigan madaniyat hodimlarini tayyorlashga e'tibor kuchaytirilishi lozim.

Bunga asosan, oliy o'quv yurtida tayyorlanayotgan kadrlarning faqatgina bir yoqlama yondashuvdan chiqishi va ob'ektiv bilim va aniqlikka erishishi talab

etiladi. Davr va zamonning tezkor jihatlarini o'rganib, tayyorlanayotgan kadrlarning bilim va saviyasini shunga moslashtirish kerak.

Bu esa tabiiy holki, kadrlarni tayyorlovchi ustozlarning ham bilimi har jihatdan ustuvor omilga ega bo'lib, tinimsiz izlanishlar yuzasidan yuqori saviyaga erishgan bo'lishlari lozim. Zamon bilan hamnafas tarzda yashash, ayni vaqtda kechayotgan jarayonlarni tahlil etgan holda eng yangi xabarlar va bilimlarni yoshlarga yetkazish, har jihatdan muhimdir. Ularda boshqaruvchilik faoliyatini shakllantirish, an'anaviylikdan cheklangan holda noan'anaviy boshqaruv tizimlarini madaniyat muassasalarida targ'ib etish, har jihatdan ulardagi faoliyatni aniq va tizimli yo'lga solishda vosita bo'la oladi. Zero hozirgi vaqtda ushbu fikrlar orqali yondashuv davr talabidir.

Chunki XXI asr insoniyat taraqqiyotida yangi sahifani ochib berdi. Dunyo hamjamiyati postindustrial jamiyat qurish yo'liga o'tdi. Ma'lumki, postindustrial jamiyat orqali umumiy madaniyatining yuqori darajada bo'lishini talab etadi.

Shu boisdan, bugungi kunda ilg'or jamoatchilik butun aholining madaniy saviyasini va didlarini o'stirish yo'lidan bormoqda. Ilg'or jamiyatlarda ijtimoiy-madaniy faoliyat ushbu maqsadga xizmat qiladi.

Temuriylar davridan keyin o'z taraqqiyotida orqaga chekinish davrini boshidan kechirgan o'zbek xalqi XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha aholi ayrim qatlamlari, asosan shaharliklar va ziyolilar madaniyatini rivojlantirish yo'lidan borgan bo'lsa, XX asrning 30-yillariga kelib, sobiq sho'rolar tuzumi mazkur tizimni yo'q qilib tashladi. Aholining ziyoli qatlami qatag'on qilindi va yangi ishchi dehqonlar madaniyati va qatlami shakllantirila boshlandi.

Shu boisdan, ushbu davrda yangi yo'nalish "madaniy oqartuv" tizimiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ushbu siyosat silsilasida "Madaniy-ma'rifiy ishlar" sohasi va ta'lim yo'nalishi paydo bo'ldi. Ushbu kasb egalarining asosiy vazifasi yangi "kommunistik" tuzum g'oyalarini aholi turli qatlamlariga singdirish hamda yangi tuzum ziyolilarini shakllantirishdan iborat edi.

"Madaniy-ma'rifiy ishlar" sohasi XX asrning 90-yillari boshiga qadar sho'rolar tuzumiga sitqidildan xizmat qilib keldi. 1991 yilda O'zbekiston

Respublikasi Davlat mustaqilligini ko'lgga kiritgach, eski tuzum manfaatlari va mafkurasiga xizmat qiluvchi "Malaniy-ma'rifiy ishlar" sohasi ham yemirila boshladi va mamlakatimizda yangi zamonaviy talablarga javob beruvchi soha "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" ta'lim yo'nalishi va kasb turi shakllantirila boshlandi. Ushbu yo'nalishda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch ta'lim muassasasi hisoblanuvchi Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutida 1996 yilda ushbu yo'nalishning dastlabki davlat ta'lim stanlartlari ishlab chiqildi va tasdiqdandi. O'sha davrdan boshlab, respublikamizda zamonaviy "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlab kelinmoqda.

Mazkur yo'nalishda uzoq muddat Fargona davlat universiteti hamda bir marotaba Qarshi Davlat universitetlarida kadrlar tayyorlandi. Bugungi kunda Namangan davlat universitetida ham "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" bakalavrlarini tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

“Sotsiologiyaning tarmoq yo'nalishlaridan biri bo'lgan "Ijtimoiy madaniy faoliyat" bo'yicha bugungi kunda amalda bo'lgan davlat ta'lim standartiga ko'ra, 5810400-Ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'lim yo'nalishi fan va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, u ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilash, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarning majmuasini o'z ichiga olishi belgilab qo'yilgan”². Kasbiy faoliyat ob'ektlari esa, ijtimoiy madaniy-ma'rifiy muassasalar va ularning bo'limlari hamda boshqaruv tizimlari ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur ta'lim standartiga ko'ra, bugungi kunda "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" bakalavrlari o'zining funlamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga muvofiq quyidagilarni o'zlashtiradilar: tashkiliy boshqaruv: madaniy-ma'rifiy muassasalarning boshqaruv menejeri hamda madaniyat muassasalarida sotsiolog vazifasida ishlash, ma'naviy-ma'rifiy: madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtiruvchi uslubiyotchi vazifasida ishlash,

² Yunusov A. Ijtimoiy – madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. –Toshkent, 2011, 23-bet.

madaniy hordiqni tashkil etish: madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalarda madaniy hordiqni tashkil etuvchi uslubiyotchi vazifasida ishlash, pedagogik faoliyat: har xil ta'lim muassasalarida madaniyatshunoslik madaniyat sotsiologiyasi. ijtimoiy-madaniy faoliyat o'qituvchisi vazifasida ishlash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarishi mumkin. Ularning oldiga qo'yilayotgan kasbiy-malakaviy talablar quyidagilardan iborat: Madaniy-ma'rifiy faoliyat sohasida: madaniy-ma'rifiy soha faoliyatida o'rgangan ko'nikmalaridagi uslublarni qo'llay bilishi; yoshlar va kattalar jamoasida badiiy ijod faoliyatini tashkil etish; madaniy-ma'rifiy muassasalarda aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun turli tadbirlar tashkil etishni bilishi zarur.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda sotsiolog: sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish, tadqiqot instrumentriyasini ishlab chiqarish, o'tkazilgan tadqiqotlar asosida ilmiy ma'ruzalar tayyorlash va jarayon yuzasidan monitoring o'tkazishni;

Madaniy-ma'rifiy muassasalar menejmenti sohasida: rasmiy va norasmiy guruhlarda boshqaruvning yangi shakllarini foydali tarzda qo'llay bilish va madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatiga joriy etishni;

Iqtisodiy sohada: ijtimoiy-madaniy sohalarning ijtimoiy iqtisodiy xolatini tahlil qilish, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash, biznes-reja tuzishni;

Ta'lim sohasida: uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash va tadqiq etishni bilishi kerak

Kasbiy mahorat bo'yicha o'z bilim va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga va professionalizmga javob berishi kerak

Zamonaviy talablar asosida shakllantirilgan amaldagi davlat ta'lim standartiga ko'ra, 9072 soatlik o'quv yuklamasining 7344 soati auditoriya mashg'ulotlariga, 1296 soati malakaviy amaliyotga, 324 soati bitiruv malakaviy ishiga hamda 108 soati davlat attestatsiyalariga ajratilgan.

“Mustaqil O‘zbekiston XXI asrga qadam qo‘yar ekan, Prezident Islom Karimov “jamiyat hyotining barcha sohalarini erkinlashtirish lozim” ligini ta’kidlagan edi”³. XXI asrning dastlabki o‘n yilligida ushbu maqsadga erishish uchun bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, oliy ta’lim tizimida ham bir qancha yangiliklar joriy qilindi.

Xususan, 2008 yilda oliy ta’lim tizimiga tadbiq etilgan yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv rejalariga muvofiq, bir-biriga yaqin fanlar bloklashtirilib, bir necha fan soatlari negizida bitta yirik fan shakllantirildi.

Namunaviy o‘quv rejalar kamida besh yil muddatga qabul qilinishi va uning asosida shakllantiriladigan namunaviy o‘quv rejalar har o‘quv yilida har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan yangi ishlab chiqilishi va joriy qilinishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bu ta’lim muassasalariga ancha erkinlik berdi. Natijada har bir ta’lim muassasasi ishlab chiqaruvchilar talablaridan kelib chiqqan holda hamda o‘z imkoniyatlariga qarab, ishchi o‘quv rejalarini shakllantirishda qator erkinliklarga ega bo‘ldilar.

Xususan, yangi amaldagi namunaviy o‘quv rejasida "Xordiqshunoslik" fani uchun 482 soat auditoriya mashg‘ulotlari rejalashtirilgan. Ma’lumki, keng tarmoqli "Xordiqshunoslik" fani "Ekskursiya va sayohat", "Parkshunoslik", "Muzeyshunoslik" kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari ijtimoiy- madaniy faoliyat tarmog‘ini qamrab oluvchi va uning tarixiy negizlarini ochib berishga xizmat qiladigan fanlar ham mavjud. Bularga etnografiya, etnologiya, fol’klorshunoslik kabilarni kiritish mumkin. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, milliy madaniyat tarmoqlarini rivojlantirish izchillik bilan yo‘lga qo‘yila boshlandi. Bu esa o‘z - o‘zidan milliy qadriyatlar va urf – odatlarning qayta tiklanishiga sabab bo‘di.

Keyigi pytda ijtimoiy – madaniy faoliyatning tarmoqlari kengayib, shu asosda bir nechta vazifalar amalga oshirila boshlandi. Bizning o‘lmas qadriyatlarimizni takomillashtirish va rivojlantirish uchun nomoddiy madaniy merosni saqlab qolish va uni yanada rivojlantirish masalalari yo‘lga qo‘yilmoqda.

³Karimov I. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: “O‘zbekiston”, 2000 y.

"Ijtimoiy-madaniy faoliyat" va "nomoddiy madaniy meros" iboralari iste'molga kirib kelganiga uzoq vaqt bo'lgani yo'q. "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" iborasi o'z davrida juda keng qo'llanilgan "madaniy-oqartuv ishlari" iborasining o'rnini to'ldirish maqsadida qo'llanila boshlagan bo'lsa, "madaniy-oqartuv ishlari" iborasi o'rnida yana bir ibora "madaniy-ma'rifiy ishlar" ham qo'llanilmoqda.

Ushbu yangi iboralar hozirgi kunda bir-birini qaytaruvchi sifatida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi iboralar sifatida qo'llanilib, turli o'quv, ilmiy adabiyotlar va sifatli matbuot satrlarida alohida ma'nolarni anglatishi tabiiy holga aylanib qoldi.

"Nomoddiy madaniy meros" iborasi esa nisbatan kechroq foydalanilayotganligidan ko'pchilik tomonidan tushunilishi bir oz qiyinroq kechayotganligi bois ushbu iboraning jahon leksikoniga kirib kelish tarixi to'g'risida bir oz to'xtalamiz.

YUNESKO tomonidan 2003 yil 17 oktyabrda "Nomoddiy madaniy merosni muxofaza qilish" to'g'risidagi Konventsiya, 2005 yil 20 oktyabrda esa "Madaniy ifoda shakllarining turfa xilligini muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash" to'g'risida Konventsiyaning qabul qilinishi ushbu iboraning to'laqonli iste'molga kirib kelish jarayonini yakunladi.

Aslida, nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YUNESKOning 1989 yildagi "An'anaviy madaniyat va fol'klorni muhofaza qilish" bo'yicha tavsiyalaridan boshlangan edi.

1994 yildan milliy tizimlar (davlatlar) tomonidan nomoddiy madaniy merosni o'zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarning rasman tan olishini va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avlodga yetkazilishiga ko'magini tashkil etish maqsadida "Insoniyatning yashovchi (tirik) durdonalari" dasturi boshlandi. 1997-98 yillarda YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalarini e'lon qilish" dasturi ham ma'qullandi va bu orqali dunyo xalqari tomonidan saqlab kelinayotgan nomoddiy madaniy meros durdonalarining ro'yxatini tuzish va e'lon qilish imkoniyati yaratildi.

Ushbu ro'yxatga O'zbekistondan birinchilardan bo'lib 2001 yilda "Boysun madaniy muhiti" va 2003 yilda "Shashmaqom" kiritilganligini yaxshi bilamiz. O'tgan asrning 90-yillarida ekspertlar xulosasi asosida mavjud nomoddiy madaniy merosni muhofazasi bo'yicha keskin, qat'iy choralar ko'rish lozimligi aniqlandi va ushbu yo'nalishdagi ishlar yanada jadallashtirildi.

Buning natijasida YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2001 yilda bo'lib o'tgan 31-sessiyasida yangi xalqaro normativ mexanizm vazifasini o'tovchi Konventsiya yaratish rejalashtirildi. Shunday qilib, YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2003 yil 17 oktyabrdagi 32-sessiyada "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" Konventsiyasi qabul qilindi.

Ushbu Konventsiyada "nomoddiy madaniy meros", uning namoyon bo'lish sohalari hamda muhofazasi bo'yicha quyidagi ta'riflar berilgan.

"Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi urf-odatlarini, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o'z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi"⁴.

Avloddan aalodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu ularda o'ziga xoslikni, vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli tumanlikning hurmat qilinishiga ko'maklashadi.

Nomoddiy madaniy meros quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi;

- a) o'zlikni namoyon etishning og'zaki an'analari va shakllari, shu jumladan, ayni paytda til nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil sifatida;
- b) ijro san'atida;
- v) jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari;
- g) tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig'indisi;
- d) an'anaviy hunarmandchilik bilan bo'liq bilim va ko'nikmalar.

⁴ Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Konvensiyaning 2-modda, 1-band.

"Muhofaza" so'zi nomoddiy madaniy meros hayotiyligini ta'minlash, shu bilan birga uni identifikatsiyalash, xujjatlashtirish, tadqiq etish, saqdash, himoya qilish, ommalashtirish, rolini oshirish, targ'ib qilish choralarini, asosan rasmiy va norasmiy ta'lim yordamida amalga oshirish hamda bunday merosning turli jihatlarini qayta barpo etish degan ma'noni anglatadi.

Mazkur Konventsiyaning O'zbekistonda ratifikatsiya qilinishi bo'yicha harakat 2005 yildan boshlangan edi. Konventsiya har tomonlama o'rganib chiqilishi natijasida tegishli takliflar tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasi orqali Oliy Majlisga kiritildi va buning oqibatida 2007 yil dekabr oyida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" Konventsiyasi ratifikatsiya kilindi. Xalqaro normalarga ko'ra, ratifikatsiya xujjatlari taqdim etilgandan olti oydan keyin, ya'ni 2008 yil 29 apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasi ushbu Konventsiyaning ishtirokchidavlatiga aylandi.

Xalqaro xujjatlarni qabul qilish qoidalariga asosan O'zbekistondagi mavjud qonunchilikdagi nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq masalalar qayta ko'rib chiqilishi va lozim bo'lgan hollarda tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim edi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi bohchiligida ishchi guruhi tuzilib, 2001 yilda qabul qilingan "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

Ushbu takliflar Oliy Majlisning Senatida ham o'rganib chiqildi va oxir oqibat 2009 yilning 9 oktyabrida "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida URQ-228-sonli Qonuni qabul qilindi.

1 Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Konventsiyaning 2-modda, 1-bandi.

2 Shu Konventsiyaning 2-modda, 2-bandi.

3 Shu Konventsiyaning 2-modda, 3-bandi.

Milliy qonunchilikni xalqaro normalar asosida qayta ko'rib chiqish jarayoni bilan bir qatorda nomoddiy madaniy merosni o'rganish, uning muhofazasini tashkil etish va kelgusi avlodga yetqazish jarayoni tashkil etildi. Xususan, 2008 yil fevral-mart oylari davomida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konventsiyasi qoidalarining Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda xalq deputatlari mahalliy kengashlarida amal qilinishi masalasi o'rganildi.

Maxsus komissiya tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida 2008 yil 30 aprelda ushbu masala O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori va quyi palata vakillari ishtirok etgan maxsus yig'ilishda muhokama etildi va tegishli qaror qabul qilindi.

Ushbu qarordagi eng asosiy vazifalardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha davlat dasturi loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklandi.

2010 yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nomoddiy madaniy merosni muhofazasiga bag'ishlangan Davlat dasturini ishlab chiqish bo'yicha maxsus Farmoyishi e'lon qilindi va 2010 yil iyun oyida ushbu davlat dasturining loyihasi Vazirlar Markamasiga kiritildi.

2010 yilning 7 oktyabrida Vazirlar Mahkamasining "2010 - 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sonli qarori qabul qilindi.

Davlat dasturidagi vazifalar quyida aks ettirilgan 8 ta yo'nalish tarkibida jamlangan.

1. Nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish.
2. Nomoddiy madaniy merosni ro'yxatga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni xujjatlashtirish.
3. Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish.

4. Nomoddiy madaniy meros ob`ektlarini saqlashning amaliy chora tadbirlari.
5. Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muxofazasini tashkil etish bo'yicha olib boriladigan targ'ibot- tashviqot ishlari.
6. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida hamkorlik tarmog'ini rivojlantirish.
7. Nomoddiy madaniy meros targ'ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish.
8. Nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlashni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish.

Davlat dasturi jami 57 banddan iborat va unda kelgusi 10 yil davomida nomoddiy madaniy merosimizni muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanishning eng asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish masalalari milliy qonunchiligimizda o'z aksini topdi.

Xalqaro Konventsiya va milliy qonunchiligimizda aks ettirilgan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish shu sohaga ixtisoslashgan tashkilot va muassasalar va ulardagi mutaxassislarning zimmasiga yuklanadi.

"Nomoddiy madaniy meros" iborasi, yqorida qayd etganimizdek yaqin kunlarda kirib kelgan bo'lsada, biz an'anaviy ravishda "xalq ijodiyoti", "fol'klor" ibora va so'zlari bilan ifodalab kelgan milliy merosimizni saqlash, uni kelgu'si avlodga yetkazish undan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanish masalalariga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berila boshlangan edi.

Dastlab viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan folklor-etnografik jamoalar va qadimiy musiqa cholg'ulari ijrochilarining Toshkent shaxrida o'tkazilgan Navro'z va Mustaqillik umumxalq bayramlariga bag'ishlangan tadbirlarga jalb etilib, ularga mamlakatimizning eng katta sahnasidan joy berilishi bilan boshlangan ishlar izchil davom ettirilib, xalq ijodini o'rganish, havaskorlik san'atini rivojlantirish masalalari maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab ta'limning barcha bosqichlariga joriy etildi.

Buning natijasida yurtimizning nafaqat har bir tuman va shahari, balki deyarli barcha bugin ta'lim muassasalarida havaskor folklor jamoalari shakllandi. Xozirgi kunda oliy ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Xazina", "Meros", "Barxayot an'analar" ko'rik tanlovlarining an'anaviy ravishda tashkil etilayotganligi buning isbotidir.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Konventsiya qabul qilinishi munosabati bilan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxati"ga kiritilgan nomoddiy madaniy meros ob'ektlari (O'zbekistondan kiritilgan "Boysun madaniy muhiti" hamda Tojikiston bilan birgalikda kiritilgan "Shashmaqom")ning barchasi yangi "Nomoddiy madaniy merosning asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sonli qarori bilan tasdiqdangan davlat dasturi xaqiqiy dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning jamiyat a'zolarining ma'naviyatini shakllantirishdagi muhim o'rnini hisobga olgan holda bevosita nomoddiy madaniy meros bilan bog'liqligi yuqorida keltirilgan misollardan yaqqol sezish mumkin.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida keltirilganidek, globallashuv jarayonida g'arbdan bostirib kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat"ga qarshi o'zimizning milliy nomoddiy madaniy merosimiz bilan kurashishimiz lozim bo'ladi. Bunda Vazirlar Mahkamasining "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, reprezentativ ro'yxati"ga o'tkazildi.

Ana shu ro'yxatga 2009 yilda O'zbekistondan tavsiya etilgan "Katta ashula" nomzodi va boshqa 7 ta davlat bilan birgalikda tavsiya etilgan "Navro'z" nomzodlari ham kiritildi. Shunday qilib, hozirgi kunda reprezentativ ro'yxatda O'zbekiston bilan bog'liq 4 ta nomoddiy madaniy meros bo'lib, bunday ko'rsatkich sobiq ittifoq hududidagi birorta ham davlat kuzatilmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi nomoddiy madaniy merosning 4 ta aloxida ro'yxatini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bular:

1. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxati.

2. Jahon nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya etiladigan nomzodlar ro'yxati.

3. Nomoddiy madaniy merosning milliy ro'yxati.

4. Nomoddiy madaniy merosning mahalliy ro'yxatlaridan iboratdir.

Yuqorida qayd etilgan barcha ro'yxatlar doimiy ravishda yangilanib, to'ldirilib borishi taqozo etiladi.

Xususan, zudlik bilan muhofaza choralari ko'rilishi lozim bo'lgan ro'yxatga tushgan ob'ektdagi havf tugatilgandan keyin u ushbu ro'yxatdan chiqariladi. Yoki mahalliy ro'yxatga kiritilgan ob'ekt tarixiy-madaniy ekspertiza natijalariga ko'ra, Milliy ro'yxatga kiritilishi tavsiya etilsa, u oldingi ro'yxatdan chiqarilib, boshqasiga o'tkaziladi va hokazo.

Shu kabi mulohazalarni yanada chuqur tahlil etgan holda nazariy va amaliy tarzda yo'naltirish orqali talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni barkamol tarzda shakllantirish, ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan darslar jarayonida kiritib o'tilishi ma'ruza qilinishi har jihatdan muhimdir. Umuman olganda ijtimoiy madaniy faoliyat negizni qamrab oiluvchi ta'lim sohasi har jabhada amalgam oshirilishi mumkin.

Ayni vaqtda ta'lim muassasasi esa, ishlab chiqaruvchilar talablari asosida mazkur fanlardan birortasiga ko'proq dars soatlari ajratishi yoki ehtiyoj mavjud bo'lgan fanlardan birortasini ishchi o'quv rejaga kiritmasligi mumkin.

Shu tariqa yangi namunaviy o'quv rejasi asosida shakllantirilgan ishchi o'quv rejalarida fanlar va dars soatlari erkin o'zgartirilishi ta'minlanadi. Bu albatta ta'lim muassasalari uchun bir qancha erinliklarni yaratib bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" ta'lim yo'nalishini yanada rivojlantirish uchun quyidagi dolzarb muammolarni hal qilish lozim bo'ladi:

1. "O'zbekistan Respublikasi mashg'ulotlar milliy klassifikatori"ga o'zgartish kiritish, bu erda sobiq sho'rolar davridan shakllanib kelayotgan madaniy-ma'rifiy

va madaniy oqartuv ishlari tashkilotchisi, uslubchisi kabi tushunchalar o'rniga zamonaviy bozor munosabatlariga mos mashg'ulotlarni, xususan, ijtimoiy-madaniy faoliyat tashkilotchisi, ijtimoiy-madaniy faoliyat sotsiologi kabi ko'p mashg'ulotlarini kiritish.

2. Magistratura bosqichida zamon talablariga mos yangi mutaxassisliklar ochish.

3. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, bu jarayonda Namangan Davlat universitetining "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" ta'lim yo'nalishida o'quv mashg'ulotlarini olib borayotgan professor o'qituvchilar imkoniyatlaridan ham foydalanish lozim.

Respublikamizda ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirish oxir-oqibat aholi turli qatlamlari, ayniqsa, yosh avlodni milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalashdek xayrli ishning ravnaqiga xizmat qiladi.

Shu boisdan, bugungi kunda mazkur sohani zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va ushbu sohada yetuk kadrlar tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolari qatoridan o'rin olib turibdi.

Yuqorida keltirilgan holatlarni e'tiborga olgan holda, "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" sohasida oliy ma'lumotli bakalavrlar va magistrlar tayyorlash mazkur muammoni hal qilishga xizmat qiladi.

1.2 Ijtimoiy- madaniy faoliyat nazariyasi va tarixi

Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi qadimiydir. Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Bu davrda odamlarning madaniy ijtimoiylashuvi hayotni ta'minlash, uning barqaror davomiyligini belgilash zaruratidan yuzaga kelgan. Xayotning moddiy tomonlarini ta'minlash uchun odamlar bir-birlariga ov qilish, baliq tutish, ekin ekish, o'zga

jinsni o'ziga jalb etishga erishishni turli o'yinlar, mashqlar tarzida o'rganib borganlar.

Odamlar tashqi tabiiy kuchlar (olov, suv, shamol, yer qimirlashi) ta'siridan qo'rqib yashaganlar. Shu boisdan ular ta'limni, ya'ni ilk o'rgatish shakllarini olov, suv, shamol, zilzila xudolariga va boshqa turli ilohiy ma'budalarga ehtirom ko'rsatish bilan uyg'unlashtirib, o'rgatishga intilganlar. Bu intilish esa fol'klor o'yinlari shaklida bizgacha yetib kelgan.

Binobarin, odamlarning bu shakllardagi o'zaro uyushuvini ilk ijtimoiylashuv ko'rinishi deb ham hisoblash mumkin. Shu tariqa odamlarning bir-birlari bilan hamkorlik qilishlariga hayotni ta'minlash hamda tabiat kuchlaridan kuchli qo'rqish omillari asos bo'lgan.

“Shuningdek, odamlarning o'zaro uyushuviga naslni saqlash, ko'paytirish, teskari jinsdan rohatlanishdan iborat tabiiy instinktiv tuyg'u ham kuchli ta'sir ko'rsatgan, deyish mumkin. Shuningdek muayyan guruh, qabila, urug'ning biologik saqlanishi uchun boshqa urug', qabila tahdidi, ya'ni tashqi kuchlardan himoyalaniish zarurati ham ularni o'zaro ittifoqlashuviga turtki bergan.

Insoniyat ongi, tafakkur tarzining rivojlanishi natijasida odamlararo uyushuvning murakkab strukturasi tarkib topa bordi”⁵.

Qabilaviy uyushuvdan davlatlar darajasidagi uyushuvlar, millat darajasidagi birlashuvlar tarkib topdi. O'troq turmush tarzi ko'chmanchilikdan iborat hayotga barham berdi. Odamlar o'z millati, davlati, diniga aloqadorlik shuningdek o'z qiziqishlari, ideallariga mansublik asosida birlasha boshladilar. Shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyatning evolyutsion jihatdan yuqori bosqichi shaqlana bordi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat o'z shakllanish tarixida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi:

1. Zardushtiylik davrida olovga, quyoshga, nurga sig'inish orqali odamlarni ezgulik issiqlik nur atrofida birlashtirishga intilingan. Buning uchun odamlarni yaxshilik ezgulik xudosi Mitra obrazi orqali birlashtirishga intilish harakati amal qilgan.

⁵Bekmurodov M. Ijtimoiy- madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. –Toshkent, 2011, 5-bet.

2. Islom dinini yoyishda aholi ommaviy tarzda itoatga undalgan. Bu davrda odamlarni guruhiiy ma`rifatga chorlash ,harakati bo`lgan. Shu tariqa:

- a) ilk ma`rifiy-maishiy muassasalar tashkil etilgan (xonaqohlar);
- b) hordiq chiqaruvchi muassasalar shakllanib, rivojlangan (choyxonalar, guzarlar, musofirxonalar);
- v) tijorat bilan uygunlashgan muassasalar faoliyat yuritgan (karvonsaroylar, rabotlar);
- g) diniy-ma`rifiy muassasalar ochilgan (masjidlar);
- d) diniy va dunyoviy ta`lim muassasalari rivoj topgan (madrasalar).

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning yuqori bosqichi odamlarning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish. Qo`shimcha kasblar, xunarlarini o`rganish, qiziqishlar asosidagi klublar, to`garaklarda faoliyat yuritish singari mashg`ulliklar tarzida amal qila boshladi.

Har bir kasb yoki hunarni bajarishda yoki amalgam oshirishda o`zi ga xos va mos tarzda ruhiy ko`tarinkilik alohida o`rin egallaydi. Bunda esa musiqa san`atining o`rni beqoiyosdir. Zero, musiqa ruhiyatni ko`tarish, estetik zavqlanish omilidir.

O`zbek millatining musiqa merosi nafaqat xalqimizning kundalik hayot-turmushi, xilma-xil his-tuyg`ularini ifodalovchi ashula, qo`shiq, doston, klassik musiqa-maqomlar, katta ashulalar, ayollar qo`shiqlari, turli shakldagi cholg`u kuylarini o`z ichiga oladi. Qo`shiq qalb mulki. U hayotning qalbdagi aks-sadosi. Qo`shiq har bir kishining qalbida bor.

Xalqimiz bugungi baxtli turmushga, istiqlolga erishguncha juda uzoq va og`ir hayot yo`lini bosib o`tdi.

Yuzlab qo`shiqlarimiz bunga misoldir. Xalq o`zining orzu-armonlarini, g`am-g`ussalarini, quvonch-istaklarini qo`shiq vositasida ifodalagan, tashvish va o`kinchlarini ana shu nodir meros orqali avloddan-avlodga yetkazgan, qo`shiq bilan o`zini yupatgan, diliga taskin izlagan. Har bir xalqning musiqa san`ati (kuy-qo`shiq) o`sha xalqning yuragi, qalbi deb bejiz aytilmagan.

Inson qalbining teran qatlamlarida ro'y bergan murakkab tebranishlarni faqat musiqa, qo'shiq o'zining jozibador va maftunkor tili bilan jozibali ifodalay oladi. O'zbek xalq ijrochilik san'ati musiqa va fol'klor bilan bevosita mustahkam aloqa sakllanganligini yaxshi bilamiz. O'zbekiston mustaqil Respublika deb e'lon qilinganidan keyin respublikamizda musiqa san'atida rang-barang mavzudagi ashula va qo'shiqlar ijod qilindi.

Ularning mazmuni Vatan, istiqlol, mustaqillik yoshlik barkamol avlod tarbiyasi mavzulariga qaratildi. Buxoro, Samarkand shaharlari o'tmish tarixi, obidalar va bugungi kunga bag'ishlangan, Amir Temur, Ulug'bek Bobur singari buyuk siymolar haqidagi she'rlarga kuylar bastalandi.

Musiqa hissiyot tuyg'ular, doirasi rang – barangligi, nozikligi, insonning dunyo qarashi, tushunchalari va bosib o'tgan tarixiy yo'llari haqida bayon etadi. Musiqa his - tuyg'ular dunyosining tarixiy rivojlanish qonunlarini anglash sohasida falsafa fanidan ham ilgarilab ketdi. Chunki tovushlar yig'indisi tuzilish shaklining mujassamligi va ularning harakati qonunlari bunda bir nech asr muqaddam o'rganilgan edi.

“Musiqa, - deb yozadi Ai Farobiy, - miqdori raqam bilan aniqlanadigan xilma – xil tovushlar yoki ohanglar qo'shilmasidir”. Demak, musiqaning barcha nazariy tuzilishlarida matematika, akustika hal qiluvchi o'rin tutgan.

Abdurahmon Jomiy o'zining “Musiqa risolasi” da musiqaning kelib chiqishi to'g'risida fikr yuritib, “Kishilarda dastlab xilma – xil tovushlar paydo bo'lgan, undan keyin insonning sun'iy aralashishida bu tovushlar harflarga bo'linadi, harflardan so'z va bu so'zlardan fikr hosil bo'ladi”, deydi va musiqaning insonga ta'sir kuchi ustida to'xtalib: “Agarda inson tovushlarni nozik va bir maromda qo'shilgan holda uqib olsa, u ma'lum darajada to'liq estetik zavq oladi”, deydi.

Jomiy musiqaning inson hissiyotiga ko'rsatadigan ta'sir kuchi haqidagi fikrni davom ettirib: “Nafis(muloyim) ohanglar navbatma – navbat almashib turishi natijasida shinavandalarga yoqimli zavq bag'ishlaydi”, deydi.

O'zbek xalqining o'tmishdagi urf – odatlari, an'analari qadim – qadim zamonlardan buyon musiqa fol'klori bilan bevosita aloqada bo'lgan holda vujudga

kelgan va taraqqiy qilgan. Qadimgi turkiy xalqlar va qabilalar hayoti, ularning dunyoqarashi, ayrim urf – odatlari, bularda musiqaning ishtiroki, ayniqsa, mavsum, marosim, turli xalq bayramlari haqida xilma – xil qo'shiqlar Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) “Devoni lug'atit turk” asarida ham bayon etilgan.

O'zbek xalq marosimlarining deyarli hammasi musiqa ishtirokida o'tadi. Ko'pchilik xalq marosimlarining ta'rifi xilma – xil mavzulari xalq dostonlarida ham o'z ifodasini topgan. Dostonda kuylanadigan har bir marosim, afsona cholg'ular jo'rligida ijro etiladi.

Ayni paytda talabalarning badiiy didini ravojlantirish, milliy musiqa va tasviriy san'atimizga mehr uyg'otish, uning sehrli va jozibador olamiga oshno etish, san'atning eng nodir namunalaridan bahramand bo'lish uchun keng imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimizning 2008 yil 8 iyulda qabul qilingan “Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 - 2014 yillarga mo'ljallangan davlat dastiri to'g'risida” gi qarori ushbu yo'nalishdagi ta'lim dargohlari ishini yangi bosqichga ko'tarishda katta omil bo'lmoqda. Turli ijodiy loyihalar, ko'rgazmalar, ko'rik - tanlovlar o'quvchilar iste'dodini har tomonlama kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

O'zbek milliy cholg'ulari xalqimiz ijtimoiy madaniy hayotini ajralmas qismini tashkil etadi. An'anaviy xalq bayramlari sayllar, “Mustaqillik”, “Navro'z” umumxalq tantanalari turli to'y marosimlari kabi shodiyona tadbirlarni hamda ma'naviy hayotimizning ko'pdan - ko'p sohalarini xalqimizning qadrli kuy va qo'shiqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Chunki bunday ommaviy yig'in tantanalarda milliy cholg'ularda ifodalangan kuylar, uning jo'rligidagi qo'shiqlar alohida fayz va shukuh bag'ishlaydi. Sababi – milliy cholg'u kuy va qo'shiqlarda o'tmishda yashagan ajdodlarimizning ma'naviyati iste'dodi hayotbaxsh fazilatlari har qanday vaziyatda ham namoyon bo'lgan bukilmas irodasi mujassamdir.

Binobarin shunday ekan milliy cholg'ular bizni o'tmish bilan o'ziga xos tarzda "Jonli" bog'lashga ajdodlar ruhini teran his qilishga hamda o'zligimizni anglashga ham xizmat qiladi.

Yuqorida ketirilgan ma'lumotlar yosh avlodni ajdodlarimiz madaniy me'rosini o'rganish hamda ularda vorislik va iftihar tuyg'ularini uyg'otishda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek ijtimoiy-madaniy faoliyat turmush tarzini bezash, an'ana va urf-odatlarini o'tkazish, diniy marosimlarni, tabiat va rasmiy bayramlarni nishonlash shaklida ham namoyon bo'la bordini.

Bu esa o'sha davr mutafakkirlarining fikr mulohazalari, falsafiy qarashlari orqali yuzaga keladi. Shunday mutafakkir olimlardan biri bu Ibn Xaldun bo'lib, o'zining jamiyat madaniyat to'g'risidagi fikr mulohazalari bilan alohida o'ringa egadir.

Ibn Xaldun bilish nazariyasida Ibn Sinodan keyingi o'rinda turadigan ratsionalist mutafakkirdir. Har bir narsa hodisaga realistik tarzda aql tafakkur andozasi, o'lchovi bilan yondoshish uning bilib olish usulining ijobiy sifati hisoblanadi.

Mutafakkir nazariyasining muhim tomoni har bir tabiiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ahloqiy hodisalarni aql - tafakkur mezoniga solib tahlil etish va natijalarga erishish bilan ajralib turadi.

"O'zining eng muhim va ulkan asari "Muqaddima" yoki "Dastlabki axborot va mulohazalar" nomli kitobida "ratsionalizm" atamasini yoki aql tafakkur bilan bilib olish usulini ijtimoiy hodisalar jarayonlarni tahlil etishga qaratilishini ta'kidlaydi.

Asarning "Ulamolarning o'zgalarga qaraganda ko'proq siyosatdan va turli yo'nalishlardan orqada qolishlari to'g'risida" deb nomlangan bobida, bunday ulamolarni mavhum, noto'g'ri fikrlashda ayblaydi"⁶.

"Ular, deydi mutafakkir, umumiy va qulay tushunchalar bilan fikrlaydilar, ular narsa va hodisalarga yoki aniq yoki jamoaga, muayyan ijtimoiy guruhga

¹ Ivanov. N. A. «Kitob al Ibrat» Ibin Xalduna kak istochnika po istorii stran Severnoy Afriki v XIV veke» - «Arabskiy sbornik» . M., 1959. c. 3 – 45.

taalluqli hususiy tomonlarni e'tiborga olmaydilar, keyinchalik esa mazkur umumiy voqelikka qo'shimcha qilib sharxlaydilar.

Mana shuning o'zi ularni hayotdan, yashashdan ajralganliklarini, sodir bo'lib turadigan hodisa va jarayonlarni tushunmasliklarini, shuningdek mavjud siyosatni anglab yetmaganliklarini bildiradi, zeroki, siyosat bilan shug'ullanish haqiqatni bilib olishni talab etadi".

Ibn Xaldun o'zining aqliy bilib olish usulini mavhum metafizik fikrlovchilar va pragmatik tarzda fikrlovchi hokim, sultonlar pand-nasihatlari bilan cheklangan amallovchilarga qarshi qo'yar edi.

U jamiyat va davlatni kelib chiqishini tahlil etish va bilib olish to'g'risida falsafada yangicha, o'ziga xos ilmiy nuqtai nazardan qoniqishni namoyon etganki, uning bunday bilib olish usuli sababi fozil jamiyat targ'iboti borasidagi g'oyalaridan ham tubdan farq qiladi.

“Aql-tafakkurga tayanuvchi Ibn Xaldun uchun ranionalistik fanlar tarkibiga mantiq, metafizika, matematika, tabiat kirgan. Sotsial nazariyada umumiy falsafiy asoslarni yoki aytish mumkinki, metodologik qoidalarni izlash, bir jihatdan talablar tomonidan allaqachon sinalgan metafizika, mazkur maqsad uchun neoperabel hisoblanuvchi mantiqan, ya'ni Ibn Xaldun tasavvuricha kategoriyalar, ritorika yoki notiqlik san'ati, nazmdan uzoqlashish va tabiat harakatlari bilan shug'ullanuvchi fizikaga murojat etishi lozim edi”⁷.

Bunday yo'l tutish sifat jihatidan yangi qurilma hisoblanib, ilgarigi arab-islom xalqi, hususan, falsafasi negizida bo'lsa-da, Ibn Xaldunni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga jamiyat ichki jihatdan taalluqli hisoblanuvchi, ob'ektiv asosga ega, tabiiy harakat deb qrashga undagan.

Ibn Xaldun "ijtimoiy fizika"ni ishlab chiqishni yo'lga qo'ygan. U jamiyatni murakkab mustaqil birlashuv hisoblab, ichki jarayonlar tufayli bir holatdan ikkinchi holatga, bir shakldan ikkinchi bir shaklga o'taturib, odamning ularga har qanday imkoniyatli vakolatini istisno qiladi.

⁷ A.T.Qayumov. ijtimoiy – madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. –Toshkent, 2011, 117-bet.

Ibn Xaldun uchun madinayi fozila kabi har qanday hayoliy g'oya va unga o'xshash fikr maqbul emas. Jamiyatning tabiiy harakatlari qanday bor bo'lsa shunday, ularni o'zlashtirish mumkin emas. Nima tabiiy bo'lsa, almashtirib bo'lmaydi.

Mutafakkir o'z oldiga "Sotsial fizikani ishlab chiqish vazifasini qo'yaturib, ijtimoiy-siyosiy masalalarni talqinlashda faylasuflarning quruq mavhum fikrlashlaridan va shuningdek, "pand-nasihat" asarlari mualliflarining foydali pragmatik fikr g'oyalaridan ham chetlashgan, zeroki, ular har xil sabablar bilan turlicha amaliy xulosalar chiqarib turishi bilan jamiyat o'zgaradi, deb o'ylaganlar.

Muntazam tarzda ijtimoiy-siyosiy muammolarga aytganidek yondashib, mutafakkir o'z zamonasida jamiyat va davlat to'grisida ilmiy nazariyani yaratishni uddasidan chiqqanki, uning bu haqdagi ta'limotini quyidagicha tavsiflash mumkin, jamiyatni vujudga kelishining ob'ektiv zaruriy asosi, yashash vositalarini birlashib qo'lga kiritish hamda xatarli (havfli) tabiatdan o'z havfsizligini ta'minlash zaruriyatidir.

Fan jamiyatshunoslikning mavzusi va asosiy masalasini "umron" atamasi bilan bog'laydi. Ko'pgina adabiyotlarda "umron" atamasi "taraqqiyot" (sivilizatsiya), "madaniyat" deb tarjima qilingan. Ammo, bugungi kunda sivilizatsiya tushunchasi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, rivojlanish davrining ma'lum bir bosqichini anglatadi. "Madaniyat" tushunchasi ham "umron" atamasiga aynan mos ma'noni anglatmaydi "Umron" mutafakkir qarashiga ko'ra, odamlar ijtimoiy hayotining turli shakllarda namoyon bo'lishi, ko'rinishidir.

Shuningdek mutafakkir "umron" atamasini jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot jarayoni deb tushunadi. Uningcha, "umron" kishilarning birlashgan, uyushgan faoliyati hamdir. Eng asosiysi shundaki, mutafakkir kishilik jamiyatining ijtimoiy hayot tarzini avvalo moddiy ehtiyojlar tashkil etishini, qachonki, insonning moddiy tamoyillarga bo'lgan ehtiyoji qondirilgan ekan, shundagina uning hayotga bo'lgan munosabati ortishini asoslab beradi.

Ibn Xaldun o'z ta'limotida jamiyatning uch xil holatini aniqlagan. Birinchi holat, tavahush (yovvoyilik) holati. Ikkinchi holati: cho'llar, tog'lar, sahrolarni o'z

ichiga olgan qishloq hayoti. Ibn Xaldun bu holatni "bidava" deb nomlagan. Tarjimada "bidava" , "kishloq xayoti" ma'nosini bildiradi. Uchinchi holat "hidara" deb nomlanadi, ya'ni "Shahar" ma'nosini anglatadi. Ibn Xaldun har bir holatning o'zaro farqini aniq ko'rsatib berishda shunday xulosaga keladi: Uningcha, insonlarning hayot tarzi ular ishlab chiqaradigan ne'matlarning qanday usulda yaratilishiga bog'liq. Ular faqat o'zaro yordam tufayligina bu vositalarni yaratadilar. "Kishilar o'z mehnatlari bilan nimani ishlab chiqarsalar, hayotiy vositalarga ega bo'lishga intilsalar, fan, hunarmandchilik va qolgan hamma narsalar "ijtimoiylik" ning tabiatidan kelib chiqadi. Buning isboti sifatida Ibn Xaldun Shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutni ko'rsatishga harakat qilgan. Sodda, boshlang'ich davrda faqat zaruriy narsalar bilan ehtiyojlarini qondirganlar"⁸.

Bu hamjamiyat o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tgan: ibtidoiy, sodda (bidava) va sivilizatsiya (hidara) davrini. Bu bosqichlar bir-biridan yashash vositalarini ko'lga kiritish xususiyati jihatidan farq qiladilar.

Sodda ibtidoiy davrda ular chorvachilik ziroatkorlik meva-cheva va boshqalarni yig'ish bilan shug'ullanadilar, hidara davrida hunarmandlik va savdo bilan shug'ullanadilar.

Bu davrlar ehtiyojlarni qondirish jihatidan farq qilgan. Sodda, boshlang'ich davrda faqat zaruriy narsalar bilan ehtiyojlarini qondirganlar.

Sivilizatsiya yoki hidara davrida foyda keltiradigan zaruriyatdan holi bo'lgan narsalar bilan o'zlarini ta'minlaganlar, natijada, mehnat taqsimoti tufayli zaruriyatdan ortiqchasi vujudga kelgan.

Dastlabki sodda va sivilizatsiya davri, kishilik jamiyati taraqqiyotining sifat jihatdan farq qiluvchi ikki davrni tashkil etadi. Ba'zan ular yonma - yon mintaqada mavjud bo'ladilar. Bunga misol sifatida Arabiston yarim orolidagi ko'chmanchi arablarni va ikki daryo oralig'idagi aholini keltirish mumkin.

Sivilizatsiyaga o'tish jamiyatning ichki evolyutsiyasi oqibatida amalga oshmaydi, balki zaruriyatdan tug'ilgan ortiqcha boyliklar evaziga vujudga keladi.

⁸ A.T.Qayumov. ijtimoiy – madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. –Toshkent, 2011, 120-bet.

Ibn Xaldun sodda va mutamaddun jamiyatlarni tahlil qilib, birinchi diahron variantini tuzadi. Bu esa mutamaddun jamiyatga taalluqli bo'lgan moddiy ne'matlar uchun sodir bo'ladigan to'qnashishlarning sababini keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy turmushning ravnaq topishi, daromadlarning o'sishiga yo'l ochib beradiki, bu esa har qanday daromad olishning sababi bo'lmish, mehnatning mo'lligi tufaylidir.

Barcha bozorlarda insonlar uchun zarur narsalar, avvalo, eng kerakli mollar, oziq-ovqat, dorivorlar mo'l bo'ladi. Shuningdek, bozorlardan kamroq kerak bo'ladigan zeb-ziynat buyumlari, ziravorlar, liboslar, ro'zg'or jihozlari, aravalar va boshqa hunarmadchilik buyumlari-yu, binokorlik vositalarini ham sotib olish mumkin.

Shahar kengayib, aholisining soni o'sib boraversa, zarur buyumlar g'amlab qo'yiladigan oziq-ovqat va shunga o'xshash mollarning narxlari past va aksincha, to'kin-sochinlik alomati bo'lmish buyumlarning narxi esa yuqori bo'ladi.

Shahar aholisi kam sonli bo'lib, turmush darajasi yuqori bo'lmasa, bu holning teskarisini ko'ramiz. Buning asosiy sababi odamlarning ijtimoiy hayotda doimo moddiy tamoyillarga ehtiyoj sezib yashashlaridandir.

Shuning uchun ham katta shaharlarda yoki uning yonida istiqomat qiluvchi aholining ko'pchiligi odatda oziq-ovqat topish hrakatida bo'ladi. Oziq-ovqat topuvchi har bir kimsa o'ziga va oilasiga kerak bo'lganidan ko'proq yegulik topishi, buning bir qanchasi nafaqat o'zi, balki shu shaharda yashovchi ko'pchilik kishilarning ehtiyojini qondirish uchun ham yetib ortadi.

Shu tariqa bozorda shahar aholisi ehtiyojini qondiradigan miqdordan ham ko'proq oziq-ovqat bo'lishi muqarrar, shu boisdan ham ko'p hollarda uning narxi past bo'ladi, hosil yaxshi bo'lmagan yillar bundan mustasno.

Agar kishilar biron-bir falokat ehtimol havfsirab, oldindan oziq-ovqat g'amlab qo'ymaganlarida edi, u o'z narxidan ancha kamiga sotilgan va qiymati teng bo'lmagan boshqa narsalarga almashilgan bo'lar edi, chunki aholi ko'paygani sayin oziq-ovqat ham tobora ko'payib boraveradi. Ziravor meva-cheva kabi

mollarga kelsak ularga umuman ehtiyoj tug'ilmaydi ham, ularni topish uchun esa bugun shahar aholisi ortiqcha mehnat ham qilmaydi.

Shahar aholisi qanchalik zeb-ziynatga ehtiyoj sezsa, bunga talab ham shuncha orta boradi. Ammo katta shaharlarda bunday buyumlar ancha kam, ularga egalik qilishni istaganlar esa ko'pchilikni tashkil etadi. Shaharning badavlat odamlari bu narsalarga katta pul xarajat etadilar. Bunday xoholat esa, bu kabi mollarning narxi ortib borishiga olib keladi. Aholi zich yashaydigan shaharlarda hunarmandlar yasagan buyumlar qimmat turishining uch sababi bor. Birinchidan, ehtiyojning zo'rligi, chunki yuqorida aytganimizdek aholisining ko'pligi tufayli shaharlarda zeb-ziynat keng tarqalgan, ikkinchidan, hunarmandlar o'z mehnatlariga yuqori baho qo'yadilar, chunki ular da g'amlab qo'yiladigan yeguliklar mo'l bo'lganidan ularni topish oson kechadi.

Uchinchidan, to'yu-xasham ichida yashovchilar juda ko'p, ular hunarmandlar o'z xizmatlarida bo'lishini va o'z buyurtmalarini bajarishga majbur etishni juda-jula istaydilar. Bunda ular ko'ngillariga yoqadigan buyumga ega bo'lish uchun o'zaro raqobat qilib, hunarmandlarga haqiqiy mehnat haqidan ortiqcha haq to'laydilar.

Shu sababli ham mohir hunarmandlar kalondimog' bo'lib ketib, yasagan buyumlarining narxi ustiga narx qo'yadilar va shaharliklar ularni yanada qimmatroq bahoda sotib olaveradilar.

Kichik-kichik kam sonli shaharlarda esa oziq -ovqat kam bo'ladi, negaki, ularni topish yo'lida kishilar kam mehnat qiladilar, undan tashqari aholi oziq-ovqat kamchiligidan xavotirga tushib, hamma narsaga yopishadi, qo'lga tushgan eguliklarni ehtiyot qilib saqlab qo'yadigan bo'ladi.

Shunday qilib, ular da don-dun kam bo'lib, narxi ham baland turadi. Aholi kamchil va kambag'al bo'lsa, u zeb-ziynatga o'ch bo'lmaydi, ularni harid ham qilmaydi. Ba`zida oziq - ovqat narxi ustiga soliq hamda yig'implarning qiymati ham qo'shiladi, ular bozorlarda va shahar darvozalari yonida hukmdor foydasiga yoxud soliq yig'uvchilar tomonidan ularning o'z foydasiga o'ndirib olinishi sababli ham qishloq joylardagiga nisbatan shaharlarda narx-navo yuqori bo'ladi.

Ibn Xaldun har qanday voqea va hodisalarning sababini o'rganib chiqib, mohiyatini ochish orqali o'sha davr mohiyatiga, ijtimoiy-siyosiy hamda turmush tarziga baho beradi.

Ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish esa jamiyatning farovonlashishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, ishlab chiqarishning o'sishi va mahsulotning to'lib - toshib turishi jamiyat rivojining moddiy asosini tashkil qiladi.

Olimning ushbu mulohazalaridan so'ng bir qancha izlanishlar va tadqiqotlar jamiyat taraqqiyotidagi asosiy omillarni egalladi va undagi ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sistemali yo'nalishlarini yuzaga keltira bordi. Barcha sohalarda bu o'z mazmuni va mohiyatiga ega bo'lgan holda rivojlandi.

Shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyatning odamlar hayotida mustahkam joylashganligining asosiy omillari oydinlashdi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- tabiat kuchlaridan qo'rquv asosidagi uyushuv ehtiyoji;
- uyushuvning doimiyligini ta'minlash uchun intilish, ya'ni guruh "qabila, urug' yo'lboshchilari tomonidan muayyan diniy marosimlarni so'zsiz bajarilishining talab etilganligi;
- boshqa qabila, urug'lar tahdididan himoyalaniish bilan bog'liq ijtimoiy ehtiyoj;
- qabila, urug' doirasida amal qilib kelayotgan hayot tarzini, uning davomiyligini ta'minlash maqsadida turli hunarlar (ov qilish, jang qilish, ekin ekish va ,h.k)ni yosh avlodga o'rgatib borish zarurati;
- naslni davom ettirish zaruratidan kelib chiquvchi ijtimoiy ehtiyoj oilaga birlashish hamda teskari jinsdan rohat qilish ishtiyoqi;
- bo'sh vaqtni qiziqarli o'tkazish xohishidan iborat madaniy ehtiyoj;
- odamlarni favqulodda vaziyatlarda yalpi safarbar qila olishga erishish zarurati;
- odamlarni o'zaro ahilligi, totuv turmush tarzini ta'minlash uchun ularni biror bir mashg'ulot turi bilan band etib turishdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;

- san`at turlaridan zavq olish, go`zallikka intilish, nafis narsalarni yaratishdan iborat ma`naviy ehtiyoj;
- yoshlarni maqsadli tarbiyalash uchun muayyan ideallarga yo`naltiruvchi sog'lom raqobat ruhini yaratishdan iborat jamiyat ehtiyoji;
- yoshlarni keng dunyoqarash va chuqur bilimli qilib hayotga tayyorlash uchun ularga qo`shimcha bilim va hunarlar berish zarurati;
- jamiyatdagi an`ana, marosim, bayram, urf-odatlarning o`tgazilishini ma`lum targ'ibotlar asosida muvofiqlashtirib borishdan iborat ijtimoiy ehtiyojlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat shu omillar asosida o`zining asosiy funksiyalariga ega bo`ldi. Bu funktsiya, ya`ni vazifalar quyidagilardir:

- uzluksizlik;
- davomiylik;
- foydalilik;
- me`yoriylik;
- havfsizlik;
- go`zallikka oshuhtalik;
- ma`naviy o`zlikni saqlab turish;
- shaxsni va jamoani rivojlantirish;
- estetik saviya, didni tarbiyalash;
- ta`lim, san`at, fan, ishlab chiqarish va boshqa turli xizmat sohalari oldidagi faoliyatlar hamda vazifalarni ixtiyoriy tarzda jamoaviy yoki individual shakllarda rivojlantirish.

Sho`rolar davrida ijtimoiy-madaniy faoliyat funksiyalari muayyan darajada o`zgartirilib, kommunistik mafkuraga to`la moslashtirildi. Uning nomi madaniy-oqartuv ishi deb atala boshlandi. Madaniy-oqartuv ishi tarkibiga kutubxonalar, klublar, muzeylar, madaniyat va istirohat bog`lari kiritildi. Xalqning ming yillar mobaynidagi an'anaviy ijtimoiy-madaniy muassasalari bo`lgan choyxonalar, guzarlar, bog`lar, nodavlat tashkilotlari, diniy muassasalar, shuningdek milliy va ijtimoiy uyushganlik shakllari bo`lgan odamlarning ko`ngilli uyushmalari, to`ylar,

marosim va an`analar, urf-odatlar bu tarkibdan chetda qoldi. Madaniy-oqartuv ishida ommaviylik tamoyili ishlamadi.

Shuningdek bu faoliyat odamlarning milliy ruhiga begona ish va mashg'ulotlar tarzida amal qilib keldi.

Birgina misol: 3-5 ming kishilik hududda faoliyat yurituvchi qishloq klubi va bir necha havaskorlik to'garaklari faoliyat yuritsa, bu klub yaxshi bahonalar, agar 1-2 to'garagi bo'lsa, bu klubning ishi qoniqarsiz deb topilar edi. Klublar bir yilda 3 ta sho'ro bayramlarini hamda 3-4 to'garakda qatnashuvchi 20-25 kishi bilan mashg'ulotlar o'tkazib turuvchi joy edi, xolos. Kutubxonalar esa sho'rolarning siyosiy ruxdagi kitob va gazetalari, sho'rolar hayotini badiiy ifoda etuvchi 3-5 ming kitob fondiga ega bo'lgan muassasalar edi. Madaniy-oqartuv ishining mazmuni quyidagilardan iborat edi:

- aholi dunyoqarashini uzluksiz boshqarib turish;
- ruxsat etilgan havaskorlik tugaraklariga aholini jalb etish;
- xukmron kommunistik partiya g'oyalarini targ'ib etish.

shunday qilib, sho'rolar davriga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat edi:

- barcha sohalarda yakka hukmronlik qilish mavjud edi;
- tadbirkorlik tijorat ishlari siquvga olingan edi;
- ijtimoiy hayotda buning roli past edi;
- jamoat tashkilotlarining faoliyati sust edi;
- xalqaro hamjamiyatlar bilan aloqa deyarli yo'q edi;
- milliy madaniy-ma`naviy merosga xurmat sun`iy pasaytirilgan edi;
- odamlar dunyoda nima bo'layotganini bilmas edilar;
- ayollar ijtimoiy hayotda kam ishtirok etar edi;
- yoshlar jamiyatda hal qiluvchi kuch emas edi.

Bugungi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi:

1. Odamlarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlari asosidagi takliflarini shakllantiruvchi.
2. Aholini turli ijtimoiy jamoalarga uyushtiruvchi.
3. Aholi dunyoqarashini maqsadli boyituvchi.

4. Iste'dodlarni aniqlovchi va tarbiyalovchi.
5. Milliy qadriyatlarni tiklashga xizmat qiluvchi maqomiga ega bo'ldi.

Istiqlolga erishganimizdan so'ng ijtimoiy-madaniy faoliyat tubdan o'zgardi. Bu masala tub tarkibiy o'zgarishlar tadrijiy tarzda amalga oshirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar natijasida ijtimoiy madaniy faoliyatning asosiy ish funktsiyalari tarkib toptirildi. Ular quyidagilar:

- O'zbekistonning mustaqil rivojlanishini ta'minlovchi besh asosiy tamoyilning hayotdan mustahkam o'rin olishiga ko'maklashish;
- aholi turli qatlamlarida mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayoniga bevosita daxldorlikni shakllantirish;
- hech kimdan kam bo'lmagan shaxs, jamiyat va davlatni shakllantirishga faol ko'maklashish;
- jamiyatda xushyorlik sezgirlik ogohlikni ta'minlashda aholining faolligini oshirish;
- aholini bunyodkorlik faoliyatiga yo'naltirish;
- aholini madaniyat, san'at, texnika, hunarmandchilik va sport mashg'ulotlari, klublar, to'garaklarga to'liq qamrov tamoyili asosila keng jalb etilishiga erishish;
- odamlarda milliy an'analar, urf-odatlar, qadimiy bayramlarimizga ehtirom tuyg'usini tarkib toptirish orqali milliy o'zlikni anglashga ko'maklashish;
- aholi turli tabaqalari vakillarida istiqlool ramzlari, bayramlari, ideallariga sadoqat, fidoyilik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilish;
- odamlarda badiiy estetik didning yuqori darajada shakllanishiga xizmat qilish;
- aholida oila muqaddasligi qadriyatining mustahkamlanishiga faol xizmat qilish;
- "maktab oila mahalla" hamkorligini ta'minlash orqali ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga erishish;
- turli ijtimoiy harakatlar, nodavlat tashkilotlar, partiyalar, milliy-madaniy markazlar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- "zamonamiz qahramoni" obrazini hududdagi real shaxslar timsolida yaratish orqali ibrat omilini keng targ'ib etish;
- har bir insonga xos bo'lgan iste'dodni aniqlash yo'lida doimiy faoliyat olib borish va ularning hududiy intellektual salohiyat xaritasini ishlab chiqish;
- jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarni reklama qilish orqali yoshlarda faol bunyodkorlik fazilatlarini shakllantirish;
- hududning ijtimoiy-madaniy rivojlanish imkoniyatlari bo'yicha asoslangan amaliy prognozlar yaratish ishlarini olib borish;
- istiqlool yillarida shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning uzviy bug'uniga aylandi.

Bugungi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyat kasbi egalari quyidagi sohalarda ishlashlari mumkin:

1. Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi muassasalarda (madaniyat uylari, klublar, muzeylar, parklar).
2. Turli ijtimoiy harakatlar, partiyalar, nodavlat tashkilotlari va qo'shma korxonalarda.
3. Ijtimoiy va tijorat reklama muassasalarida.
4. Mahalliy hokimiyat tuzilmalarida, mahalla bug'inlarida.
5. Ommaviy axborot vositalarida, radio va televideniya.
6. Sotsiologik markazlar, ilmiy-tadqiqot institutlarida.
7. Milliy-madaniy markazlarida.
8. Kontsert tashkilotlarida (san'at menejeri, prodyusser).
9. Milliy-madaniy merosni saqlash va uni targ'ib etuvchi muassasalarda.
10. Pedagogik faoliyatlarni tashkil etishda.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining kasbiy jihatdan tayyorlanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar:

1. Aholi ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini aniq belgilay olish malakasiga egalik (0-5 ball).
2. Aholini istiqboldagi madaniy ehtiyojlarini, ma'naviy estetik takliflarini shakllantira olish salohiyatiga egalik (0-7 ball).

3. Aholining yosh, jins, moddiy holati va ijtimoiy maqomi asosida turli faoliyatlarni tashkil etish bo'yicha asosli takliflar tayyorlay olish malakasiga egalik (1-5 ball).
4. Turli madaniy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha ssenariylar yoza olish malakasiga egalik (1-5 ball).
5. Madaniyat muassasalari imkoniyatlari doirasida tadbirkorlik ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'z loyihalarini asoslab bera olish (0-7 ball).
6. Hududdagi mavjud ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni, mehnatga bo'lgan aholi ehtiyojlarini, kasblarning rivojlanish imkoniyatlarini o'rganib, shular bo'yicha mantiqli ma'lumotnomalar tayyorlay olish malakasiga egalik (0-7 ball).
7. Hududdagi ijtimoiy-madaniy muhitni o'rganish bo'yicha sotsiologik tadqiqot instrumentariylarini tayyorlay olish malakasiga egalik (0-7 ball).
8. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning barcha sohalari bo'yicha ish hujjatlarini tayyorlay olish malakasiga egalik (0-5 ball).
9. Aholi turli tabaqalari orasidagi iste'dodlar haqida mufassal ma'lumotnomalar tayyorlash va ular bo'yicha tegishli to'g'araklar, uyushmalar, klublar tashkil etish takliflarini shakllantirish malakasiga egalik (0-7 ball).
10. Hududda ogohlik sezgirlik xushyorlikni ta'minlash bo'yicha ma'lumotnomalar tayyorlay olish (0-5 ball).
11. Hududda "maktab-oila-mahalla" hamkorligini ta'minlash bo'yicha takliflar tayyorlay olish (0-7 ball).
12. Hududdagi milliy-ma'naviy merosga e'zozli munosabatni shakllantirish bo'yicha asosli takliflar tayyorlay olish (0-5 ball).
13. Hududda "zamonamiz qahramonlari" maqomiga munosib insonlardan yoshlarni tarbiyalashda ibrat omili tarzida foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlay olish (0-5 ball).
14. Jamiyatdagi va hududdagi ijobiy o'zgarishlarni targ'ib eta olish bo'yicha takliflar tayyorlay olish (0-5 ball).

15. Aholini bo'sh vaqtda turli qo'shimcha faoliyatlar bilan to'liq qamrov tamoyili asosida mashg'ul eta olish bo'yicha o'z takliflarini tayyorlay olish (0-7 ball).

16. Odamlarni milliy an'analar, urf-odatlar doirasida birlashtira olish malakasiga egalik (0-7 ball).

17. Odamlarning dunyoqarashini boyitib borish bo'yicha asosli takliflar tayyorlay olish (0-5 ball).

Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi yuqoridagi mezonlarning 33 balldan yuqori natija olgan bo'lsa, "faoliyat yurita olishi mumkin", 55 balldan yuqori natijaga erishsa, "faoliyatni bemalol uddalay oladi", agar 76 balldan yuqori natijaga erishsa, "faoliyatni rivojlantira oladi", degan maqomlarga erishadi, deb hisoblaymiz. Hulas, ijtimoiy-madaniy faoliyat kasbining imkoniyat doirasi keng bo'lib, bozor munosabatlarining talab va taklif tamoyili talablari asosida erkin faoliyatlarni yo'lga qo'yishga yo'naltirilgandir.

Uning har bir sohaga kirib borishi va ob'ektiv yondashilgan holda tashkiliy ishlarni yu zaga keltirish, maqsadli harakatlarni tashkil etishga vosita bo'la oladi. Har qanday fanning yoki jarayonning kelib chiqishi va tarixiy omillarini o'rganib chiqqan holda harakat qilish, muvaffaqiyat omilidir.

II. Bob Ijtimoiy- madaniy faoliyat samaradorligini oshirishda san'atning o'rni va ahamiyati

1.1 Milliy-ma'naviy tiklanishda san'atning roli

Ma'rifatga intilish millatimiz ruhini, ma'naviyatimiz asosini tashkil etadi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur tasodifan paydo bo'lgani yo'q. Bu aynan shu xalqimizning qon-qoniga singigan ma'rifat qonuniyatining davomidir", degan edi.

Darhaqiqat, tarixga murojat etadigan bo'lsak buyuk allomalarimiz, davlat arboblari, shoiru fuzalolarimiz o'z asarlarida bu haqda ibratli fikrlar bildirganlar. Masalan, Sharq "Arastu" deya nom olgan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shaxri" asarida fozil odamlarni barkamol insonlar deya talqin etgan. Yoki Navoiy hazratlarining "Odami ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin gami" degan xitobida insonning asl o'zligi qanday bo'lishi ifoda etiladi.

"Shuningdek XX asr boshidagi o'zbek ziyolilari, ma'rifatparvar ajdodlarimiz mudroq xalqni uyg'otishning eng maqbul yo'li deb ilm-ma'rifatni ko'rsatishgan.

Ma'rifatparvar jadid Mahmudxo'ja Behbudiy tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish ekan, shaxsning kamol topib borishidagi eng asosiy omil ma'naviy ruhiy salohiyatini shakllantirishdir deydi"⁹.

⁹Baxtiyor Boronov. Ijtimoiy – madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. – Toshkent. 2011, 67- b.

Muammolar haqida gap ketar ekan, avvalo, yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda eng avvalo san'at, madaniy-ma'rifiy muassasalar, jumladan, muzeylar, madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog'larining ish faoliyatlarini zamon ruhiga mos ruhda o'zgartirish bosh masala ekanligini unutmasligimiz kerak.

O'zbek xalqi jahondagi boshqa xalqlar kabi oddiy boyliklarninggina emas, ma'naviy boyliklarning ham asoschisidir. U o'zining peshona teri, tafakkur quvvati, qobiliyat va iste'dodi bilan asrlar osha fan va madaniyatni, adabiyot va san'atni, axloq va falsafani vujudga keltirdi, tarixning haqiqiy ijodkori sifatida jamiyatning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng imkoniyatlar ochib berdi va bermoqda. Uning badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodiyoti sohasidagi xizmatlari ham bebahodir. Doston va ertaklarning, maqol va matallarning, uzoqni yaqin, mushkulni oson qiluvchi bahodirlar, qahramonlar haqidagi rivoyat va afsonalarning ham yaratuvchisi, avaylab-asrovchisi, avloddan-avlodga o'tkazuvchisi ham aynan uning o'zidir.

Ertaklar, rivoyatlar va dostonlarni o'qir ekanmiz, xalqimizda voqealarni oldindan ko'ra biluvchi ajoyib tafakkur, qobiliyat va ite'dod bor ekanligini, u hech qachon umidsiz, orzu-niyatsiz yashamaganligini, har doim kelajakka tomon intilganligini anglab olamiz. Har qanday ertak va afsonaning, qadimiy fantaziyaning zahirida uning muayyan maqsad va niyatlari, jimoniy mehnatni yengillashtirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilishlari yashirilib yotgan bo'ladi. Ular xalq ommasining talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelish bilan bir qatorda, o'z navbatida uning o'zi kishilarning ma'naviy, aqliy taraqqiyotiga turtki vazifasini ham o'tagan, mehnatni sevishga o'rgatgan, ish unumini oshirishga, tabiatning xatarli kuchlariga ta'sir etishda kishilarga yordam bergan.

Xalq ag'zaki ijodiyoti dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar, osotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, topishmoqlar, to'y va marosim qo'shiqlari, laparlar, o'yinlar, teatrlar, musiqa, o'lanlar va termalarni, aytimlar, olqish va qarg'ishlarni ham o'z ichiga oladi. Xalq ijodiyotining bu qadar keng va xilma xilligi o'zbek xalqining ma'naviyati,

dunyoqarashi, tafakkur madaniyati naqadar boyligi va qadimiyligidan dalolatdir. Miflar, afsonalar, qahramonlik dostonlari, to'y va sayllarda, xalq yig'inlarida, bayramlarda, sayru safarlarda aytiladigan qo'shiqlar, kuy-ohanglar, termalar, aytishuvlar, masal va topishmoqlar-bularning hammasi o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining uzoq tarixga ega bo'lgan sohalaridir. Bebaho ma'naviy boylik bo'lmish og'zaki ijodiyotning ham, yozma ijodiyotning ham yaratuvchisi-ijodkori, asrlardan-asrlarga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tkazib pardozlovchisi keng xalq ommasidir.

Prezident “ xalq-o'zining ming yillik an'ana va tajribalari, so'nmas xotirasi va buyuk tuyg'ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch. Yolg'on, aldovga duch kelgan paytda uning asriy qadriyatlari, doimo uyg'oq vijdoni tilga kiradi, nohaqlikka, qabihlikka qarshi kurashga da'vat etadi”,-deydi.

Xalq doim yaratgan, yaratishdan hech qachon to'xtagan emas. Yaratish, ijod qilish- xalqq xos xususiyatdir. Xalq ommasi baxtli-saodatli kunlarida ham, boshiga musibat tushgan kezlarda ham yaratishdan, kelajakka tomon intilishdan, orzu-umidlar bilan yashashdan, ham moddiy, ham ma'naviy boyliklar yaratishdan zinhor va bazinhor to'xtamagan. U mehnat va mehnatkashlar haqida, bahodirlar to'g'risida, uzoqni yaqin, mushkulni oson qiluvchilar, hayotini ezgulikka, elu yurt obodonligi yo'lida baxshida etganlar to'g'risida, odamxo'r, zolim devlarni, hayot kushandasi bo'lgan ajdaholarni, yalmog'iz kampirlarni daf etuvchi alp yigitlar, suvda cho'kmas, utda yonmas qahramonlar haqida kuylagan. Xalqning orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, shodlik, baxtiyorlik onlariyu, qadr-qiymati, ma'naviy-axloqiy g'oyalari, dunyoqarashi, falsafiy-huquqiy tushuncha va tasavvurlari, olam haqidagi bilim-boyliklari uning og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan.

O'zbeklar o'zining insonni lol qoldiradigan ajoyib amaliy san'ati, yuksak badiiy did va mahorat bilan ishlangan son-sanoqsiz hunarmandchilik buyumlari bilan qadim zamonlardan boshlab hozirgacha ham dunyo xalqlari o'rtasida shuhrat qozonib kelmoqda. Hunarmandchilik san'ati bizning xalqimiz uchun avlod-ajdodlaridan saqlanib kelayotgan meros, bebaho qadriyatdir.

O'zbek xalqining amaliy san'ati, hunarmandchilik ildizi uzoq o'tmishga borib tutashadi. O'zbek xalq hunarmandchiligi tarixiga hozirgi zamon nigohi bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, manbalar, o'tmishdan saqlanib qolgan yodgorlik va obidalar eramizdan avvalgi minginchi yillarda yaratilgan san'at durdonalari haqida shahodat beradi.

O'zbekistonning hozirgi hududidagi qadimgi Shosh, Chag'oniyon, Maroqand, Urganch, Buxoro, Shahrisabz shaharlarining qadimgi o'rnida olib borilgan qazilma tadqiqotlar ota-bobolarimiz yaratgan hunarmandchilikning o'lmas obidalarini kashf etdi. O'tkazilgan arxeologik qazilmalar va yozma manbalar Markaziy Osiyo aholisining o'tmish davrlarda konlarda ishlaganini, mis va temir eritib turli xil harbiy va mehnat qurollari yasash bilan, kemasozlik, to'quvchilik, binokorlik, zargarlik va boshqa ishlar bilan shug'ullanganini ko'rsatadi.

Yunon tarixchisi Gerodot "Tarix" asarida Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiyona davlatlarining eramizdan avvali VI asrdagi madaniyati haqida keng ma'lumot bergan. Gerodot massagetlar haqida: **"Ular otliq va piyoda jang qiladilar, bu ikki xil jang usulini biladilar, ular o'q-yoy, nayza va dudama-kalta qilich bilan qurollanganlar. Bu qurollarni ular jezdan yasaydilar. Yugan, suvluq va boshqa ot jabduqlariga ham oltin qadaydilar. Temir bilan kumushni ular mutlaqo ishlatmaydilar, chunki ularning mamlakatida oltin bilan mis nihoyatda ko'p bo'lib, temir bilan kumush mutlaqo yo'qdir"**, deb yozgan edi.

O'rta Osiyoga tashrif buyurgan XIV asr mashhur arab sayyohi Ibn Batutta Xorazm, Buxoro va Samarqand shaharlari bozorlaridagi hunarmandchilik rastalari o'zining xilma-xilligi, fayzi bilan diqqatga sazovorligini alohida ta'kidlagan. U Xorazm shahri qozisi Abu Hafs Umar uyiga tashrif buyurib, qabulxonasida ko'rganlarini shunday tasvirlaydi: Bu-go'zal va keng xona bo'lib, chiroyli gilamlar bilan bezatilgan, devorlari mato bilan qoplangan qator tokchalarning har biriga oltin suv yuritilgan kumush idishlar va iroqiy ko'zalar qo'yilgan edi.

Xalq dahosining mahsuli bo'lgan hunarmandchilik va amaliy san'atning turlari nihoyatda xilma-xildir. Ularning hammasi xalqning kundalik turmush talab va ehtiyojlari o'rta qo'ygan zaruriyat asosida yuzaga kelgan va rivojlangan.

Avlodu ajdodlarimiz o'tmish davrlardan boshlab naqqoshlik, o'ymakorlik, to'quvchilik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, misgarlik, sangtaroshlik, kulolchilik, musiqa asboblari yasash va boshqa sohalarda katta mahorat ko'rsatganlar. Ular nozik va go'zal, jahonda tengi yo'q naqsh ishlaydigan usta bo'lishgan. Faqat yog'ochga emas, shuningdek, marmar toshga, metallga o'ta nozik va go'zal naqsh solishlari, gilam va matolarga rang-barang gullar tushirishlariga qarab ota-bobolarimizning mahoratlari va didlariga qoyil qolamiz.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Namangan, Qo'qon va Toshkentdagi xalq ustalari ganch o'ymakorligi sohasida katta shon-shuhratga ega bo'lganlar. Bu san'at namunalarini qadimiy binolar, muhtasham saroylar, arklarning ichki va tashqi bezaklarida, devor peshtoqlarida, ustun va ravoqlarda nihoyatda nafis ishlangan afsonaviy qushlar, baliq, o'simlik va hayvonlarning tasvirlarida, lojuvard koshinlarda ko'rish mumkin. Nozik o'ymakorlik san'atini mukammal egallab olgan yuksak didli ustalar nafaqat ganchga o'yma naqshlar berganlar, balki jimjimador panjaralar va g'oyat go'zal naqshli guldonlar ham yasay bilganlar. **“Varaxshada topilgan ganchlardan yasalgan haykallar va devor bezaklari, qadimiy Afrosiyobdagi naqshli ganch panellar va Tuproqqal'adagi topilmalar ganchkorlik kasbi uzoq tarixiy an'anaga ega ekanligini isbotlaydi. Xiva ganchkorlarining o'yma nozik mahsulotlari hozirgacha saqlanib kelgan ko'shklarda mavjud. Ular katta ganch taxtalarda va tokchalarda, devor va shiplarda turli gullar va geometrik naqshlar bilan bezatilgan ajoyib san'at namunalarida o'z ifodasini topgan”.**

Amaliy san'atining noyob turi-yog'och o'ymakorligi ham O'zbekistonning barcha viloyatlarida qadimdan keng tarqalgan va yuksak darajada e'zozlangan. Zo'r mahorat bilan yasalgan, turli naqshlar bilan bezatilgan eshik va darvozalar, ustun va shiftlar, sandiq va qutilar, xontaxta va kursilar, javon va idish-tovoqlar, har xil

quticha, qalamdonlar o‘zining tabiiyligi, nafsligi va murakkabligi bilan hozirgacha kishilarni hayratda qoldiradi.

“Buxoro yog‘och o‘ymakorligi naqshning jozibadorligi, jimjima bezaklarning oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanish bilan ajralib turadi. Xiva ustalari yog‘och o‘ymasining monumentalligi, tabiiy rangining mustahkamligi bilan boshqalardan farqlanadi. Quva o‘ymakorlari esa kalta bo‘rtmali, yassi o‘yma naqshlar yaratganlar. Peshtoqda ham naqsh bilan qoplangan yassi bo‘rtmali, zaminsiz chizma yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan. Marg‘ilon ustalari uchuqur zaminli o‘ymani qo‘llab kelganlar. Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyi, Buxorodagi Sitorai Mohi-Xosa, Xivadagi Toshhovli, Marg‘ilondagi Saidmahmudxo‘ja madrasasi, Toshkentdagi N.K. Romanovlar saroyi va A.A. Polovsev uyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi va boshqalarda o‘zbek yog‘och o‘ymakorligi san’atining bebaho namunalari yaxshi saqlanib qolgan”.

Zargarlik xalqimiz amaliy san’atining noyob, murakkab va g‘oyatda nozik sohalaridan bo‘lib hisoblandi. U nihoyatda uzoq tarixga ega.

Zargarlik xalq ustalaridan oltin va kumushni bolg‘alash, qizdirish, sayqallash, pardozlash, buyumga ko‘z bosish, tilla suvi berish kabi ishlarni uddalash mahoratini talab qilgan. Ular oltin, kumush, qimmatbaho toshlar va metallardan barmoqqa, ko‘krakka, peshonaga, boshga, sochga taqiladigan la‘l, yoqut, feruz ko‘zli naqshinkor uzuk va bilakuzuklarni, tillaqosh, tillazulf va tillabargaklarni, zebigardon, zirak va tillaganchlarni ishlashgan, Farg‘ona va Toshkentda, Xorazm, Samarqand va Buxoroda tayyorlangan zargarlik buyumlari Turkistonning hamma joyida, Qashqar va Afg‘onistonda, Eron va Rossiyada juda katta qiziqish bilan xarid qilingan.

Zargarlik san’ati Xiva va Buxoroda ayniqsa mashhur bo‘lgan. XX asr boshlarida birgina Buxoroning o‘zida 400 ga yaqin zargar bo‘lgan. Ular asosan Toqi zargaronda ishlagan, savdo qilishgan. Buxorolik zargarlar qadimgi taqinchoqlar, isirg‘a, uzuk va bilakuzuk tayyorlashda rang-barang tovlanuvchi moda-oltin, yoqut, marvarid, Feruz, lojuvard, haqiqdan ko‘proq

foydalanganlar. Uzunlik uchun salmoqli monolit shakllar, tilla halqa bilan yaxlit yoqut bir butun qo'shib ketishi xarakterli bo'lsa, isirg'ada dam-badam tebranuvchi nozik shokilalarning shakli bejirim, yoqutu marvaridlarning jimjimali joylashishi, tilla bezakka mufassal sayqal berish natijasi o'laroq zar va ko'zli kudung omuxtalashishi katta ahamiyatga ega.

Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilib, bir necha bor sayqal topib, jahon uzra dovrug' taratib bizning davrimizgacha yetib kelgan eng muhim, o'ziga xos va takrorlanmas amaliy san'atlardan yana biri-to'qimachilik va kashtachilikdir. Yurtimizda paxta tolasi, jun va ipak juda ingichka va mayin ip qilib yigirilib, bo'yoqchi va pardozchilar tomonidan har xil rangda bo'yalib, ulardan odamni mahliyo qiladigan, ko'zni quvontiradigan beqasam, adras, baxmal, atlas, qalama, so'zana, nimso'zana, joynamoz, dasturxon, banoras, sandal yopgichlar, chimmat va boshqa yuzlab xildagi buyumlar to'qilgan, tayyorlangan. Farg'ona va Toshkentning ko'k va to'q yashil beqasami, Surxondaryoning oq, sariq naqshli qizil rangdagi atlas, Zarafshon vodiysida ochiq guldor olachipor matodan tikilgan to'n. Shahrisabz, Kitob, Qamashi, Beshkentda qizil va sariq rangli yo'l-yo'l banorasdan qilingan chopon katta obro'ga ega bo'lgan.

Ilm-fan va madaniyatning qadimiy beshiklaridan hisoblangan Buxoroning zardo'zi san'ati, ayniqsa, uning adrasi butun jahonda mashhur bo'lgan. Matolarni turli-tuman rangda qoyil maqom qilib bezash va gul bosishda, zardo'zi kashtachilikda, ip gazlama va shoyi iplar bilan tikishda, matolarga tilla suvi yuritilgan ipakdan zeb berishda uncha-muncha odam Buxoro zardo'zlariga va ustalariga tenglasha olmagan.

O'zbekiston gilamchilik sohasida ham boy o'lkadir. Xonlar, amirlar, beklar saroyi va ko'shklarini, oddiy fuqarolar xonadonlarini bezagan va obod qilgan burun qonidek qip-qizil pat gilamlar naqshlarining guldorligi, gullarining maydaligi va g'oyatda nafis hamda jozibadorligi, turlicha ko'rinish va hajmdaligi bilan o'zaro farqlanadigan, bir-biridan qolishmaydigan samarqandcha va buxorocho, xivacha va turkmancho, eron, afg'on, uyg'ur va xitoycho gilamlar xalq ommasi amaliy

faoliyatining mahsuli sifatida hozirgacha ham o'zining shon-shuhrati va qimmatini to'la saqlab kelmoqda.

Bugungi kunda jumhuriyatimizda ota-bobolarimizning gilamdo'zlik, shol to'qish, kigiz tayyorlash sohasidagi asriy tajribalari bilan bog'liq an'analari deyarli saqlanib qolgan.

Badiiy kashtachilik o'zbeklar orasida azaldan keng tarqalgan sevimli hunar hisoblangan. O'zbek oilalarida, ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida bu kasbni bilmaydigan, sevib-ardoqlamaydigan kishi topilmagan deyish mumkin. O'zbek kashtachilari tomonidan yuksak badiiy did bilan tikilgan palak, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, gulko'rpa, parda, belbog', yostiqlik ustiga yopiladigan takyapo'sh, jiyak, ko'ylak, dastro'mol, nimcha va boshqa ajoyib buyumlar maishiy turmushimizni hali-hamon bezab va go'zallashtirib kelmoqda.

Badiiy-amaliy san'atning do'ppido'zlik sanati el-yurt o'rtasida mashhur. Do'ppi — o'zbek xalqi milliy madaniyati va qadriyatining tarkibiy qismidir. U shu bilan birga o'zbek xalqining milliy g'ururi ham bo'lib hisoblanadi. Do'ppini yuksak darajada e'zozlash-o'zbeklarga ota meros. O'zbeklar orasida eng yaqin kishilarga, do'st-birodar va qadrdonlarga, mehmonlarga do'ppi kiydirish, eng qimmatli sovg'a tariqasida do'ppi in'om etilishining hikmati benihoya katta, unda chuqur ramziy ma'no bor. Do'ppini eng ulug' va mo'tabar bosh kiyim, baxt-omad belgisi, faxr-iftixor sifatida qadrlash va e'zozlashga qaratilgan son-sanoqsiz afsonalar, rivoyatlar, maqol va matallar, hikmat va o'gitlar borligi bejiz emas, albatta. Chunki, unda xalqimizning milliy qiyofasi, orzu-armon va niyatlari, tabiiy-iqlimiy sharoitlari o'ziga xos tarzda badiiy ifodalangandir. Do'ppi-xalqimiz aql-idroki va tafakkurini, nozik didi, qobliyatini va iste'dodini o'ziga xos tarzda aks ettirgan va umumlashtirgan buyuk san'at asaridir. Mahaliy sharoitni nazarda tutib nihoyatda qulay, mos va yengil, bejirim qilib tikilgan, nafis va go'zalligi bilan ko'zni quvontiradigan erkaklar bosh kiyimi-do'ppi, bir tomondan, xotin-qizlarimiz, buvilarimiz madaniyati va san'atining naqadar yuksak va barkamolligi, farosati o'tkirligining muhim belgisi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zbeklarning nozik ta'b,

serzavq xalq ekanligini ko'rsatadi. Qora avraga oppoq bodom guli solib tikilgan chust do'ppisi, Shahrisabzning bejirimi gilam do'ppisi, Qarshi, Boysun, Chelak va boshqa tumanlarda keng tarqalgan kashtali, o'ziga xos naqshli qavim qilib to'qilgan piltado'zi do'ppisi, Farg'ona vodiysi va Toshkentning nihoyatda chiroyli, guldastani eslatadigan iroqi do'ppisi, o'zining kashta uslubi, doirasimon shakli, popugi va go'zal naqshlari bilan ajralib turadigan Xorazm do'ppisi, Buxoroning zardo'ppisi-bularning hammasi xalqimizning o'ziga xos milliy-ma'naviy boyligidir.

Kulolchilik-amaliy san'atning o'zbeklar diyorida keng yoyilgan, ommaviy tus olgan tarkibiy qismlaridan biridir. Rishton, G'ijduvon, Shahrisabz, Qarshi, G'uzor, Kasbi, Xiva, Xonqa, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Andijon kabi shahar va tumanlar kulolchiligi O'zbekistondagi qadimgi kulolchilik markazlari sifatida el og'ziga tushgan va e'tirof etilgan.

So'nggi yillarda kulolchilik va uning ajralmas qismi hisoblangan chinni idishlar tayyorlash sohasida O'zbekistonning antik va o'rta asr ustalari yutuqlariga murojaat qilish, xalqimiz qadimiy merosini ijodiy o'zlashtirish va rivojlantirish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Toshkent va Samarqand chinni zavodlarida milliy o'ziga xos uslub va shakllarda ishlab chiqilayotgan buyumlar, turli-tuman nafis servizlar mustaqilligimizning iqtisodiy, madaniy-ma'naviy zaminlarini mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirishda xalqimiz va jamiyatimizga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelayotganligini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Kandakorlik, metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki bo'rtiq qilib naqsh solish san'ati ham hozirga qadar o'zining yuksak badiiy uslubi, go'zalligi, shakllarining nafisligi bilan o'zbek xalq hunarmandlarining mahoratidan guvohlik beradi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Qarshi, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlar kandakorlik, miskarlik, temirchilik, pichoqchilik, tunukasozlik, boshqa o'nlab va yuzlab hunarmandchilikning markazlari bo'lgan.

Xalq hunarmandlari nafaqat so'nggi antik va ilk o'rta asrlarda, balki undan keyingi paytlarda ham oltin va kumushdan, mis va jezdan, qimmatbaho metallarning boshqa turlaridan shunday ajoyib kandakorlik buyumlari yasaganlar.

Afsonaviy o'simlik va parrandalar tasviri, epik qahramonlar obrazi o'z aksini topgan barkashlar, naqsh solingan ko'zalar, chiroyli siyohdonlar, xovonchalar o'zbeklarda kandakorlik san'ati keng tarqalganligi va yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Miskarlik san'at haqida ham shunday deyish mumkin. Asrimiz boshlarida Buxoroda 400 ga yaqin, Xivada 200 dan ortiq miskar bo'lgan. Ayrim ustalar zo'r mahorat bilan badiiy buyumlar yasaganlar. Ayniqsa, Buxoro, Farg'ona va Xiva miskarlari mashhur bo'lganlar. Hunarmandlar taxtalangan mis va jezdan, qizil va sariq misdan har xil ichimliklar uchun mis piyola, mis kosa, mis choydish, mis choynak, ovqat va sut uchun mislangan mis tovoq, mis barkash, jom, la'li, mis ko'za, qumg'on, satil, mis oftoba, obdasta, tos, lagan, koshkul singari idishlar, har xil quticha, sandiqcha ishlab chiqarganlar. Miskarlik san'ati hozirgi kunda mazmunan boyitilgan, usluban takomillashtirilgan, shaklan xilma-xillashgan tarzda davom etmoqda. Mustaqil respublikamiz gerbi va boshqa ramziy tasvirli kompozitsiyalar yaratishda bugungi kunda xalqimizning miskarlik va kandakorlik san'ati qo'l kelmoqda.

Ammo shuni afsus-nadomatlar bilan qayd etish kerakki, xalq amaliy sanati Doro qirg'iniga dosh bergan, arablar istilosi davridagi alg'ov-dalg'ovlardan eson-omon chiqqan, Chingizxon qabohatidan kulfat chekkan bo'lishiga qaramay undan keyin ham rivojlanishda davom etgan. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur va boburiylar davrida ayniqsa gullab-yashnagan, yanada sayqal topgan bebaho xalq hunarmandchiligi, tasviriy san'atning ko'plab sohalari o'lkamizda qatog'onlik hukm surgan yillarda e'tibordan deyarli chetda qola boshladi. Bu davrda nainki Markaziy Osiyo xalqlarining, xususan, o'zbeklarning tili, adabiyoti, tarixi, balki amaliy san'ati ham katta jarohat oldi.

Samarkand, Buxoro, Xiva, Urganch, Namangan, Farg'ona, Qarshi, Shahrisabz va boshqa ko'plab shaharlardagi hunarmandchilik ustaxonalari, Toshkentdagi zargarlar, degrezlar, egarchilar, o'qchilar, pichoqchilar, miskarlar,

mahallalari, eski shahar mavzesidagi bozorning bir qancha rastalari buzib tashlanib, hunarmandchilikning ko'pgina nodir turlari tarixga aylanib qoldi.

Xonadonlardan, masjid va madrasalardan bir paytlar qo'li gul xalq hunarmandlarining aql-idroki va tafakkuri bilan ishlangan sernaqsh o'ymakor darvozalar va ustunlar, odamga zavq beradigan hashamdor eshiklar va uy bezaklari asta-sekin iste'moldan chiqib, ular o'rnida temir panjara va davoza paydo bo'ldi. Devorlarga ishlanadigan ganchu naqshlar qariyb unutilayozdi.

O'zbek xalqi madaniyati va ma'naviyatiga qilinayotgan xurujlar avjiga mingan shaxsga sig'inish va turg'unlik yillarida ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan, milliy g'ururimiz hisoblangan ganchkorlik, o'ymakorlik, naqqoshlik, kulolchilik singari xalq hunarmandligiga birin-ketin zarba berila boshlandi. Ularga "kustarshina" tamg'asi bosildi. Bu kamchilik qilganidek, ota-bobolarimiz dahosi, mahorati va zakovati bilan yaratilgan, ulkan ma'naviy va badiiy meros sifatida xonadonlarimizni obod va go'zal, ruhimizni tetik va bardam qilib kelayotgan hunarmandchilik buyumlari, nodir taqinchoqlar, qaraganda ko'zni qamashtiradigan turkiy, eroniy va arabiy ipak gilamlar, chinni asboblari birma-bir yig'ishtirib olindi. Eng achinarlisi, xalq kosib va hunarmandlarining yashash tarzi, turmush sharoitining majburan o'zgartirilganidir. Eng nodir kasb egalari bo'lgan xalq hunarmandlari ota-bobolaridan meros bo'lib kelayotgan kasblarini bir umr tashlab boshqa ishlar bilan shug'ullanishga majbur bo'lishdi. Ming yillik hunari, madaniyati, an'alaridan, borinki, tarixidan ular shu tariqa qariyb mahrum bo'lishdi.

Ilgari o'zbeklarning 150-200 xil hunari bo'lgan bo'lsa, Stalin yuritgan mash'um siyosat tufayli ulardan sanoqli darajada ozginasi qoldi. Oqibatda shunday holga tushdikki, zargarlik, ma'dan erituvchilik, miskarlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, to'quvchi va tikuvchilik kabi azaliy hunarmandchiliklardan odamlar ko'ngli sekin-asta soviy boshladi.

Xayriyatki, O'zbekiston davlat mustaqilligi sabab bo'lib, xalq amaliy san'ati va madaniyatiga munosabat keskin o'zgardi. Odamlarning qadimiy xalq hunarmandchiligi buyumlariga mushtoqligi tezda bilinib qoldi. Tarximizga tortilgan

qora chiziqni o'chirish, xalq amaliy san'atini qayta tiklash va avj oldirib yuborish zarur bo'lib qoldi. Bundan bir necha yil ilgari tashkil etilgan "Usto" xalq amaliy san'ati birlashmasi ishining rivojiga alohida e'tibor berilmoqda, turli joylarda uning yirik mutaxassislar yetakchiligidagi bo'limlari vujudga keldi.

O'rta Osiyo, umuman Sharq tasviriy san'atida rassomlik-musavvirlik, kitob bezash, muqovasozlik, hattotlik va miniatyura san'ati ham muhim o'rin egallab kelganligi va bir necha ming yillik tarixga ega ekanligini bizgacha yetib kelgan manbalar to'la tasdiqlaydi. IX-X asrlarda va ungacha bo'lgan davrlarda qurilgan binolar, hukmdorlarning qasr va uylari, mehmonxonalar, ijtimoiy binolar devorlari qabul marosimi va bazmlarni, jang va ov manzaralarini tasvirlovchi suratlar bilan bezatilganligi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Musavvirlik san'ati O'rta Osiyoda XV-XVI asrlarda ayniqsa o'zining gullagan davrini boshidan kechirgan. Temur va temuriylar davri, umuman Sharq, xususan Markaziy Osiyo- musavvirlik san'ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr, tub burilishdir. Biroq ana shu davrdagi ma'naviy-madaniy hayotdagi ko'tarilish va yuksalishning manbai, boshlanishi IX-XII asrlarga borib taqaladi.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi Markaziy Osiyoning madaniy kamoloti IX-XII asr madaniyatining davomidir. Markaziy Osiyo xalqlaridan yetishib chiqqan buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodi xuddi shu davrda shakllandi va ijod etdi. Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar Sharofatiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy; olimlar-Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy; faylasuf-shoirilar-Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy; musavvirlar -Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh, Mahmud Muzahhib; hattotlar- Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur, Darvesh Muhammad Toqiy va juda ko'p boshqa shaxslar shular jumlasidandir.

Ularning hamasi o'sha davr va o'zlarigacha bo'lgan insoniyat ilmiy bilimi va madaniyati yutug'ining barcha sohalarini mukammal bilib va o'zlashtirib olgan, o'zlari tanlagan sohalarini hali hech kim tomonidan zabt etilmagan cho'qqilarini egallagan, ijtimoiy-falsafiy tafakkur maydonida javlon urgan ulug' siymolar,

qomusiy aql egalari edilar. Shuning uchun ham ularning boy, serqirra ijodlari, tengi yo‘q va takrorlanmas ilmiy-falsafiy, badiiy, tarixiy meroslari asrlardan asrlarga, davrlardan-davrlarga eson-omon o‘tib, barcha tazyiqu qiyinchiliklar, algov-dalg‘ovlarga bardosh berib bizlargacha yetib keldi.

Ilm-fan, adabiyot, san‘at va madaniyatning, umuman jamiyat moddiy, madaniy-ma‘naviy hayotining barcha sohalari deyarli bir xilda gurkirab rivojlangan, o‘zlarining qomusiy aqlari, ko‘plab muhim ilmiy kashfiyotlari bilan jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk allomalar xalq orasidan saf-saf bo‘lib yetishgan davr Markaziy Osiyo tarixidan oltin asr yoki Uyg‘onish davri deb ataladi. “Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Mahmud Koshg‘ariylar yashagan IX-XII asrlarni O‘rta Osiyo xalqlari tarixida shartli ravishda Uyg‘onish davrining birinchi, boshlang‘ich davri desak, Ulug‘bek, Koshiy, Ali Qushchi, Jomiy, Navoiy, Behzod ijod etgan XIV-XV asrlarni so‘nggi ikkinchi davri deb atash mumkin.

Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari ijodida yuksak bosqichga ko‘tarilgan musavvirlik san‘ati-Sharq Uyg‘onish davrining yutuqlaridan biridir. Behzod o‘zining takrorlanmas ijodi, go‘zal minnatyura san‘ati va ajoyib mahorati bilan nafaqat Sharq xalqlari madaniyati tarixida, balki butun dunyo xalqlari madaniyati tarixida ham o‘chmas iz qoldirdi, uning taraqqiyoti uchun barakali hissa qo‘shdi.

Ikkinchi Moniy”-“Sharq Rafaeli” deb yuksak darajada e‘zozlangan Behzod haqiqatan, tom ma‘noda sehgardir. Buyoqlarining mayin va go‘zalligi, jonliligi, nafis va nozik chiziqlarining ko‘zga yaqqol tashlanganligi, tabiat, hayvonot olami, inson va uning hayotiy munosabatlarini g‘oyatda aniq, jozibador, qanday bo‘lsa, o‘shanday qilib tasvirlay olganligi bilan u O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon va boshqa o‘lkalar tasviriyl surat chizishda nozik mo‘yqalamni undan ilgari ham, keyin ham hech bir musavvir Behzodchalik ishlatishga muaffaq bo‘laolmagan.

Mashhur tarixchi Xondamir “Habibus-siyar” asarida Behzod san‘atiga baho berib, **“U qalamning ajoyib mahorati bilan jonsiz narsalarga jon bag‘ishlaydi,”**

degan edi. Tirikligidayoq butun Sharq mamlakatlarida dongi ketgan buyuk san'atkor Behzodni o'z huzurida bo'lishini har bir saltanat egasi o'zi uchun eng katta boylik, kuch-kudrat manbai va shon-sharaf deb hisoblagan.

Manbalarda aytilishicha, podshoh Ismoil Safaviy Kamoliddin Behzodni, o'z mulkimning yarimisiga almashmaydigan eng sevimli naqqosh, saroyimdagi xazinalar orasidagi eng nodir va noyob gavharim, deb atagan va yuksak darajada qadrlagan.

Ko'pgina tarixiy manbalardan bizga aniq bo'lishicha, Behzod buyuk san'atkor sifatida nihoyatda sermahsul, mehnatsevar va zahmatkash bo'lgan. U mashhur so'z san'atkorlarining asarlariga rasmlar ishlagan. Madaniyat hamda davlat arboblarning suratlarini chizgan. Jang va ov manzaralarini tasvirlovchi bir qator kompozitsiyalar ishlagan. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sulton Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, shoir Abdullo Xotifiy, shoh Tuxmaspning Behzod tomonidan ishlanib, bizgacha kelgan tasvirlari uning shu san'atda yetuklikka erishganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, insonning manaviy kamolatida xalqimiz tomonidan yaratib kelingan sanat va adabiyot, milliy va diniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Har bir xalq millat va xalq sifatida taraqqiiy etar ekan, o'z kelajagini o'zining milliy va diniy qadriyatlari asosida qurmog'i kerak. Shundagina u bu dunyoda millat va xalq sifatida abadiy qoladi.

2.2 Barkamol avlodni tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni

Bugungi kunda har bir mutaxassis keng qamrovli ishlarni tashkil etish, olib borish, samarali ta'lim-tarbiya berishni amalga oshirishi talab etiladi. Bu borada turli san'at turlaridan unumli foydalanshi ham ijobiy natija beradi. Biz san'at turlarining ichida salmoqli o'rin egallagan va turli kasb egalariga birdek ta'sir etuvchi musiqa san'atidan foydalanish masalasiga to'xtalmoqchimiz.

O'zbek millatining musiqa merosi nafaqat xalqimizning kundalik hayot-turmushi, xilma-xil his-tuyg'ularini ifodalovchi ashula, qo'shiq, doston, klassik musiqa-maqomlar, katta ashulalar, ayollar qo'shiqlari, turli shakldagi cholg'u kuylarini o'z ichiga oladi.

Qo'shiq — qalb mulki. U hayotning qalbdagi aks-sadosi. Qo'shiq har bir kishining qonida bor. Xalqimiz bugungi baxtli turmushga, istiqloлга erishguncha juda uzoq va og'ir hayot yo'lini bosib o'tdi. Yuzlab qo'shiqlarimiz bunga misoldir. Xalqo'zining orzu-armonlarini, g'am-g'ussalarini, quvonch-istaklarini qo'shiq vositasida ifodalagan, tashvish va o'kinchlarini ana shu nodir meros orqali avlod-dan-avlodga etkazgan, qo'shiq bilan o'zini yupatgan, diliga taskin izlagan.

Musiqa san'ati Musiqa-san'atning eng qadimiy va shu bilan birga xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalaridan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Lekin u voqelikni haykaltaroshlik va musavvirlik san'atiga nisbatan boshqacha, o'ziga xos tarzda tasvirlaydi. Musiqada haykaltaroshlik va musavvirlikka xos bo'lgan predmet tasviri ham, poeziya va prozaga xos konkretlik ham yo'q. Musiqada ovoz obrazlari bilan real voqelik obrazlari o'rtasida aniq muvofiqlik bo'lmaydi.

Musiqa kishilarning his-tuyg'ularini, fikrlari va kayfiyatlarini o'ziga xos badiiy ifoda etadi. “Musiqa san'atida tovushlar badiiy umumlashma asosida tipiklashtiriladi. Musiqa aniq tushuncha, konkret predmetlar, muayyan vaziyat va hodisalarni real (tasavvur qiladigan darajada) ifodalash imkoniyatiga ega bo'lmas-da, kishi kechinmalari, xilma-xil hislari va kayfiyatlarini, psixologik holatlarini to'laqonli, badiiy aks ettira oladi”, bu-muzikaning o'ziga xos muhim jihatidir.

Musiqaning ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbotlagan. Abu Ali ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin, degan fikrni ilgari surgan edi.

Har bir xalqning musiqa san'ati (kuy-qo'shig'i) o'sha xalqning yuragi, qalbi deb bejiz aytilmagan. Inson qalbining teran qatlam-larida ro'y bergan murakkab tebranishlarni faqat musiqa, qo'shiq o'zining jozibador va maftunkor tili bilan

jozibali ifodalay oladi. O'zbek xalq ijrochilik san'ati musiqa folklori bilan bevosita va mustahkam aloqada shakllanganligini yaxshi bilamiz.

O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilinganidan keyin respublikamizda musiqa san'atida rang-barang mavzudagi ashula va Qo'shiqlar ijod qilindi. Ularning mazmuni Vatan, istiqloq, mustaqillik, yoshlik, barkamol avlod tarbiyasi mavzulariga qaratildi. Buxoro, Samarqand shaharlari o'tmish tarixi, obidalari va bugungi kuniga bag'ishlangan, Amir Temur, Ulug'bek, Bobur singari buyuk siy-molar haqidagi she'rlarga kuylar bastalandi.

Musiqa hissiyot tuyg'ular doirasi rang-barangligi, nozikligi, inson-ning dunyokarashi, tushunchalari va bosib o'tgan tarixiy yo'llari hakida bayon etadi. Musiqa his-tuyg'ular dunyosining tarixiy rivojlanish qonunlarini anglash sohasida falsafa fanidan ham ilgarilab ketdi. Chunki tovushlar yigindisi, tuzilish shaklining mujassamligi va ularning harakati qonunlari bundan bir necha asr muqaddam o'rganilgan edi.

«Musiqa, — deb yozadi al-Forobiy, — miqdori raqam bilan aniq-lanadigan xilma-xil tovushlar yoki ohanglar qo'shilmasidir». Demak, musiqaning barcha nazariy tuzilishlarida matematika, akustika hal qiluvchi o'rin tutgan.

Abdurahmon Jomiy o'zining «Musiqa risolasi»da musiqaning kelib chiqishi to'grisida fikr yuritib, «Kishilarda dastlab xilma-xil tovushlar paydo bo'lgan, undan harflardan so'z va bu so'zlardan fikr hosil bo'ladi», deydi. Va musiqaning insonga ta'sir kuchi ustida to'xtalib: «Agarda inson tovushlarni nozik va bir maromda qo'shilgan holda uqib olsa, u ma'lum darajada to'liq estetik zavq oladi», deydi.

Jomiy musiqaning inson hissiyotiga ko'rsatadigan ta'sir kuchi haqidagi fikrini davom ettirib: «Nafis (muloyim) ohanglar navbatma-navbat almashib turishi natijasida shinavandalarga yoqimli zavq bag'ishlaydi», deydi.

O'zbek xalqining o'tmishdagi urf-odatlari, an'analari qadim-qadim zamonlardan buyon musiqa folklori bilan bevosita aloqada bo'lgan holda vujudga kelgan va tarakkiy qilgan. Qadimgi turkiy xalqlar va qabilalarhayoti, ularning dunyoqarashlari, ayrim urf-odatlari, bularda musiqaning ishtiroki, ayniqsa,

mavsum, marosim, turli xalq bayram-lari haqidagi xilma-xil qo'shiqlar Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) «Devonu luatit turk» asarida ham bayon etilgan.

O'zbek xalq marosimlarining deyarli hammasi musiqa ishtirokida o'tadi. Ko'pchilik xalq marosimlarining ta'rifi, xilma-xil mavzulari xalq dostonlarida ham o'z ifodasini topgan. Dostonda kuylanadigan har bir marosim, afsona cholgular jo'rligida ijro etiladi.

Ayni paytda talabalarning badiiy didini rivojlantirish, milliy musiqa va tasviriy san'atimizga mehr uyg'otish, uning sehrli va jozibador olamiga oshno etish, san'atning eng nodir namunalaridan bahramand bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Prezidentimizning 2008 yil 8 iyulda qabul qilingan «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'risida»ti qarori ushbu yo'nalishdagi ta'lim dargohlari ishini yangi bosqichga ko'tarishda katta omil bo'lmoqda. Turli ijodiy loyihalar, ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar o'quvchilar iste'dodini har tomonlama kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

O'zbek milliy cholg'ulari xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismini tashkil etadi. An'anaviy xalq bayramlari, sayllar, «Mustaqillik», «Navro'z» umumxalqtantanalari, turli to'y marosimlari kabi shodiyona tadbirlarni hamda ma'naviy hayotimizning ko'pdan-ko'p sohalarini xalqimizning qadrli kuy va qo'shiqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki bunday ommaviy yig'in-tantanalarda milliy cholg'u-larda ifodalangan kuylar, uning jo'rligadaga qo'vdiqlar alohida fayz va shukuh bag'ishlaydi. Sababi — milliy cholg'u kuy va qo'shiqlarda o'tmishda yashagan ajdodlarimizning ma'naviyati, iste'dodi, hayotbaxsh fazilatlari, har qanday vaziyatdaham namoyon bo'lgan bukilmas irodasi mujassamdir. Binobarin shunday ekan, milliy cholg'ular bizni o'tmish bilan o'ziga xos tarzda «jonli» bog'lashga, ajdodlar ruhini teran his qilishga hamda o'zligimizni anglashga ham xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar yosh avlodni ajdodlarimiz madaniy merosini o'rganish hamda ularda vorislik va iftixor tuyg'ularini uyg'otishda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Insoniyat qanday yutuqlarga erishgan bo'lsa, eng avvalo madaniyat tufaylidir. Agar u madaniyatdan mahrum qilinsa, hayvonot dunyosidan hech qanday farqi qolmaydi. Inson madaniyatni yaratdi, madaniyat esa insonni kamolga yetkazdi.

Insoniyat qanchalik taraqqiy etsa, unga shunchalik darajada yuqori madaniyat kerak bo'ladi. Biroq, shu bilan birgalikda biz madaniyatni ma'naviyatsiz tasavvur eta olmaymiz. Jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir.

Biror bir mamlakat o'z ma'naviy mikoniyatlari odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay, va mustahkamlamay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Shuning uchun ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi jamiyat taraqqiyotining yetakchi omillaridan hisoblanadi.

Uni rivojlantirishda eng asosiy omillardan biri ijtimoiy – madaniy faoliyat taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Ijtimoiy – madaniy faoliyat taraqqiyoti negizida ma'naviyat va ma'rifat asosiy o'rinni egallaydi. Shu o'rda prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltiramiz. **“Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga, ularni hal qilish mumkin xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma'naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasida ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota – bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda”.**

Mustaqillik yillarida boy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy madaniyatimizni jahon sivilizasiyasiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz merosi o'zimizga qaytarildi.

Biz yuqorida ta'kidlagan va bergan tavsiyalarimiz asosida shuni xulosa sifatida qayd etamiz. Har bir muassasa, har bir o'quv yurti olib borayotgan faoliyati va tayyorlayotgan kadrlari o'zining mutaxassisligiga doir aniq fanlar yuzasida va yo'nalishidan chetga chiqmagan holda kerakli bo'lgan bilimlarni berilishi ya'ni madaniyat va san'at kollejlari madaniyatshunoslar jalb etilib, madaniyat va ma'naviyatning targ'iboti madaniyatshunoslik fanlari orqali o'rgatilmasa, kadrlarning yuksak saviyali bo'lib yetishishi mumkin emas.

Fikrimizning so'ngida Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, san'ati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag – tomirigacha nazar tashlaymiz”¹⁰.

¹⁰ Islom Karimov. Adolatli jamiyat sari. T., “O'zbekiston”, 1998, 49- b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch, T., 2008.
2. Karimov I. A., O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, T., 1996.
3. Karimov I. A., Istiqlol va ma'naviyat, T., 1994.
4. Karimov I. A., Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, T., 1998.
5. Karimov I. A., Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz, T., 2001.
6. Karimov I. A., O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, T., 2000.
7. Abduholiqov S., Madaniyat tarixi va uning masalasi, T., 1992.
8. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1-jild, T., 1998.
9. Avesto, Tarixiy – adabiy yodgorliklar (Asqar Mahkam tarjimasi), T., 2001.
10. Ajdodlar o'giti, T., 1993.
11. Asqarov A., O'zbekiston tarixi, T., 1994.
12. Asqarov A., O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, T., 2007.
13. Atamurodov S., Xusanov S., Rametov J., Ma'naviyat asoslari, Ma'ruza

matnlari, T., 2000.

14. Ashirov A., “Avesto” dan meros marosimlar, T., 2001.
15. Ashirov A., O’zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari, T., 2007.
16. Ashirov A., Ahmadjonov Sh., Etnologiya, T., 2007.
17. Axmedov B., O’zbek ulusi, T., 1992.
18. Alisher Navoiy, Tanlangan asarlar, 13 – jild, T., 1966.
19. Erkeyev A., Ma’naviyat – millat nishoni, T., 1997.
20. Erkeyev A., Milliy g’oya va ma’naviyat, T., 2002.
21. Erkeyev A., Ma’naviyat va taraqqiyot, T., 2009.
22. Boynazarov F., Antik dunyo, T., 1983.
23. Jabborov I., O’zbek xalq etnografiyasi, T., 1994.
24. Jabborov I., Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasini, T., 1999.
25. Jalolov A., XXI asr oxiri va XX asr boshlaridagi o’zbek adabiyoti, T., 1991.
26. Jumaniyozov R., Xalq ijodiyoti – xalq ijod, T., 1992.
27. Jo’rayev M., Ipak yo’li afsonalari, T., 1993.
28. Ziyoyev A., O’zbek davlatchiligi tarixi, T., 2000.
29. Imom Ismoil al-Buxoriy, Al – adab al – mufrad (adab durdonalari), T., 1990.
29. Imomnazarov M., Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar, T., 1998.
30. Karimov B. R., Millat, inson va til: taraqqiyot muammolari, Qarshi: Nasaf, 2003.
31. Mavrulov A., Ma’naviyatni sog’lomlashtirish davri, T., 1996.
32. Mavrulov A., Gulmetov E., Qobiljonova T., Ernazarov Sh.,
Madaniyatshunoslik , Ma’ruzalar matni, T., 2000.
33. Madaniyat va jamiyat, T., 1993.
34. Madaniyatshunoslik, Ma’ruzalar matni, T., 2000.
35. Mallayev N., O’zbek adabiyoti tarixi, T., 1976.
36. Mahmudov T., “Avesto” haqida, T., 2000.
37. Mahkamov I., Axloq – odob saboqlari, T., 1994.
38. Mahmud Koshg’ariy, Devonlu lug’otit turk, T., 1963.
39. Mahmudov R., Huquq va madaniyat, T., 1964.

40. Mahmudov M., Ahli dil (Ma'naviy olam sirlari). T., 1997.
41. Mahmudov T., Mustaqillik va ma'naviyat. T., 2001.
42. Ma'naviyat asoslari, T., 2000.
43. Mustaqillik ilmiy - ommabop lug'at, T., 1998.
44. Taylor E., Pervobtnaya kultura, M., 1989.
45. Timoshinov V. I., Kulturologiya, Almata, 1997.
46. Teoriya i istoriya kulturi, T., 1992.
47. Temur tuzuklari, T., 2001.
48. O'zbekiston tarixi ba madaniyati, T., 1992.
49. O'zbekiston san'ati, T., 2001.
50. Farobiy, Fozil odamlar shahri, T., 1993.
51. Uyg'onish davri va sharq mutafakkirlari, T., 1985.
52. Firdavsiy, Shohnoma, T., 1986.
53. Yusupov E., Ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti, Xo'jand, 1996.
54. Yusupov E., Ismoilov F., Inson barkamolligi, T., 1990.
55. Yusupov E., Komil insonning ma'naviy asoslari, T., 1988.
56. G'oyibov N., Amir Tetur davri ma'naviyati, T., 2001.
57. G'ofurov Z., Mustaqillikning ma'naviy zaminlari, 1994.

Internet saytlari

www.gov.uz

www.Lex.uz

www.ziyonet.uz

www.edu.uz

www.bilim.uz

www.google.uz

www.Vikipedia.ru

www.psyfactor.org

www.utro.ru

[www.eso-online.ru/netradicionnaya reklama/roli reklamy](http://www.eso-online.ru/netradicionnaya_reklama/roli_reklamy)

www.reclamca.ru

www.nrtm.ru

**Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat
instituti “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi 2- kurs
magistranti Boysunov Jonbekning “Ma’naviyatni anglash –
ijtimoiy madaniy faoliyat takomillashuvining omili”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar
xulosasi**

Boysunov Jonbekning magistrlik dissertatsiyasi kirish, **III- bob**, **VI-** paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. dissertatsiyaning **I- bobida** ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyoti ma’naviy ehtiyojni shakllantirish omillari uning jamiyat taraqqiyotidagi roli haqida fikr mulohazalar bildirilgan bo’lsa, **II – bobida** uni targ’ib etuvchi va shakllantirishda muhim sohalardan biri ijtimoiy – madaniy faoliyat tarixi va nazariyasi haqida bayon etilgan.

Ma'limki bugungi kunda ijtimoiy – madaniy faoliyat sohasi sobiq ittifoq davridan mutloqo farq qilib, erkin islohatlar olib borilishi natijasida alohida fan tizimi asosida shakllantirilib, oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda.

Dissertatsiyaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, unda ijtimoiy – madaniy faoliyatning o'zi nima ekanligi va uning fenomeni ko'rsatib berilgan hamda, tarixiy dalillar bilan ilmiy asoslangan. Bu esa, har jihatdan bajarilgan ishning saviyasining oshiradi. Ijtimoiy – madaniy faoliyat juda keng qamrovli faoliyat bo'lib, uning bir qirrasini – madaniyat uylari misolida izohlab berilishi, dissertatsiyaning **III – bobida** to'la qonli asoslagan.

Har bir bajarilgan ish, o'z mazmun mohiyati jihatidan amaliy asosga ega bo'lishi lozim. Binda esa madaniyat uylarining bugungi kundagi ahvoli va o'tmishi, faoliyat tizimi hamda uning barkamol avlod tarbiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri, kelajakda bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar borasida o'tkazilgan tadqiqotning natijalari muhimdir.

Barkamol avlodga ma'naviy qadriyatlarni singdirish, jamiyat taraqqiyotida muhim shaxslar qilib tarbiyalash, mafkuraviy tahdidlardan asrash, bugungi kun globallashtirish jarayonining aktual muammosi bo'lgani uchun, buni o'rganish va bartaraf etish chora - tadbirlarini ishlab chiqish, madaniyat muassasalari xususan madaniyat uylari vazifalaridan hisoblanganligi uchun, dissertant ushbu masalalardagi kamchilik va muammolarni izohlab berishga harakat qilgan va o'zining ilmiy salohiyati va imkoniyatidan kelib chiqqan holda tavsiflar berga.

Umuman olganda dissertatsiya me'yoriy talablarga javob beradi. Biroq ju'ziy xatolardan holi emas. Bunga ijtimoiy – madaniy faoliyat tarixi va nazariyasi bobini yoritishda, juda kam manbaalardan foydalanganligi bois, muayyan darajada bobni yoritishga harakat qilingan. Yana bir kamchilik bu unda imloviy xatolarni borligidir. Dissertatsiyani ijobiy baholab, uni himoyaga tavsifiya etaman.

Ilmiy rahbar:

t.f.d.professor: Mavrulov A.

va muzeylarida saqlanayotgan asarlari insoniyat ma'naviy merosining gavharini tashkil etadi.

Shunday qilib, xalqimiz tomonidan xalq tasviriy sanati sohasida boy imkoniyat va tajribalar to'plangan. Bugun mamlakatimizda sanatning bu sohasi

navo eshituvchilarni elitib, uxlatib qo'yibdi. Kuy elitganidan ular hatto betoqat bo'lib, o'zidan ketib qolay dedi".

Musiqaning ajoyib sehr kuchi, mo'jizakor inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyati haqida fikr yuritib Forobiy, "ta'siri, Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida" degan mashg'ur asarida shunday deydi: **"Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa,**

Xalq qo'shiqchiligi

ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga solinishi va o'z substansiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi". Musiqa singari qo'shiq ham xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodiyotining bu muhim shaklini keltirib chiqargan, rivojlantirgan, takomillashtirilgan sabablar ichida eng birinchisi va belgilovchisi-mehnat, inson amaliy faoliyatidir.

Kuy va qo'shiq insonning doimiy hamrohi, uning shod-xurramlikdagi yo'ldoshidir. Demak, qo'shiq va musiqaning, raqs va baytlarning yuzaga kelish va rivojlanish tarixini xalq tarixidan, xalqning kundalik hayoti, uzoq o'tmishi, bosib o'tgan tarixiy taraqqiyotidan ajratib bo'lmaydi.

Xalq poeziyasi, xalq qo'shiqlari uning tarixi bilan, mehnat bilan uzviy bog'liqdir. Poeziyada ham, qo'shiqda ham xalqning ruhiyati, yuksak tuyg'ulari, pok sevgisi, orzu-armonlari, ijtimoiy ahvoli mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun xalq tarixini uning poeziya va qo'shiqlari bilan, qo'shiqlarini esa tarixi bilan tushuntirish mumkin. Xalq og'zaki ijodini, qo'shiqlarini bilmay turib, mehnatkash xalqning chinakkam tarixini bilish mumkin emas.

Dunyoda qo'shiq aytmaydigan, qo'shiqdan zavqlanmaydigan, raqs va laparlarni, yoqimli kuylarni yoqtirmaydigan bironta ham xalq bo'lmasa kerak. O'zbeklar ham shular jumlasiga kiradi.

“Avesto”, Urxun-Enisoy yodgorliklari, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiyning “Mezonul-avzon” singari shoh asarlari, boshqa turli xil yozma manbalar va ilmiy asarlar turkiy xalqlarning og‘zaki ijodiyoti, qo‘shiq va musiqasi o‘zining uzoq tarixiga ega ekanligidan guvohlik beradi.

“Devonu lug‘otit turk”da qayd qilib o‘tilgan mehnat qo‘shiqlari, o‘roqchi qo‘shig‘i, xirmon qo‘shiqlari, qo‘shchi qo‘shiqlari, qahramonlik, jang qo‘shiqlari, mavsum va marosim qo‘shiqlari, ishqiy qo‘shiqlar-bularning hammasi “xalq ko‘nglidagi qayg‘u-hasrat va shodlikning yo‘ldoshi, uning bilim qomusi, uning diniy va falsafiy kitobidir”. Ota-bobolarimiz to‘y-

tomoshalarda, xalq yig‘inlarida, marosimlar, sayillar va bayramlarda xalq shoirlari-baxshilarining shirador ovozi, do‘mbira va qo‘bizidan taralgan sehrli kuy-ohangi, askiyachilarning o‘tkir san’ati, qiziqchilar, dorbozlar, qo‘g‘irchoqbozlar tomoshasi, ashulachi va raqqosalarning qo‘shig‘i va o‘yin-kulgisidan behisob zavq-shavq olishgan. Musiqa, raqs, bayt, kuy, g‘azal singari qo‘shiqlar ham xalq hayoti bilan shu qadar yaqinlashib, qo‘shilib ketganki, inson o‘z hayoti, turmush tarzi va borlig‘ini ularsiz tasavvur etolmaydi. Musiqasiz, qo‘shiqsiz hayot hayot deb hisoblanmagan.

Xalqimizning qadimiy va boy tarixini, bosib o‘tgan uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini, o‘y-fikrlari, orzu-intilishlarini, o‘tmishda boshidan kechirgan nolayu fig‘oni, ko‘z yoshi, yuragidagi dardi, g‘amu hasratini uning yaratgan qo‘shig‘i, ijro etgan raqsi, kuy-ohangi, musiqasiga qarab bilish mumkin. Xalq qalbiga yo‘l ochadigan eng kuchli kalit- qo‘shiqdir. Qo‘shiqlar, ertaklar, termalar, dostonlar, barcha folklor asarlari o‘tmishdan qolgan ma’naviy boylikdir. Qo‘shiqning mazmun va mohiyatini bilish o‘sha qo‘shiqni yaratgan xalq tarixini bilish demakdir. Xalqlarimizning o‘tmish zamonlarda boshidan kechirgan azob-uqubat va kulfatlarini biron-bir musiqa asari, olmaydi. Xalqimiz o‘tmishda boshidan kechirgan og‘ir kun va musibatlar qo‘shiq va musiqada ifodalanganidan ko‘ra ko‘proq va mushkulroqdir. Chinakam chuqur mazmunli qo‘shiqlar uzoq yashaydi, xalqning ongiga singib ketadi. Bunday qo‘shiqlar vaqt o‘tgani bilan baribir

eskirmaydi, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, navqironligicha qolaveradi, o‘zining jozibasi bilan kishilarga badiiy zavq, quvonch, orom beraveradi.

Sovet hokimiyati yillarida turli bahonalar ro‘kach qilinib o‘zbek qo‘shiqlari xalqimiz milliy ruhi, milliy an‘analari va udumlariga mos kelmaydigan opera va balet asarlari bilan sun‘iy ravishda almashina boshladi. “Segoh”, “Feruz”, “Ushshoq”, “Chapandoz”, “Tanovar”, “Shahnoz”, “Bir ishva bilan”, “Bayot” singari xalqimiz orzu-istaklarini aks ettirib kelayotgan bebaho qo‘shiqlarga “saroy qo‘shiqlari”, deb qaraldi, ulardan xalqni bebahra qilishdi, ijro etgan talantli hofizlarning esa sho‘ri quridi. Nihoyat, ular o‘rnini “zamonaviy» qo‘shiqlar egalay boshlaydi. Allaqaydan kelgan rok muzika to‘ylarimizda quloqni qomatga keltiradigan bo‘ldi.

Eng yaxshi milliy qo‘shiqning sehrli ta’siri, mo‘jizakor kuchidan inson huzur qiladi. “Nasrullovi”, “Munojot”, “Ajam”, “Bayot”, “Ushshoq”, “Qora ko‘zim”, “Sayyora”, “O‘zgancha” boshqa qanchadan-qancha to‘y va marosim qo‘shiqlari, “Yor-yor”, “Alla”, «Shoshmaqom»lar-bularning har biri o‘zining latofati bilan insonga olam-olam huzur bag‘ishlaydi. Bunday kuy va qo‘shiqlar insonni hech qachon zeriktirmaydi, ularni takror va takror eshitging kelaveradi. Xalq tomonidan yaratilgan va yaratib kelinayotgan qo‘shiqlar o‘zining ajoyib latofati bilan madaniy-ma’naviy taraqqiyotga, shaxs kamolotiga ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Ammo, hozirgi kunda ba‘zan yengil-yelpi, yevropa yo‘nalishiga xos, badiiy niqoblarsiz qo‘shiqlar, ayniqsa, estrada yo‘nalishida ko‘payib ketmoqda. Bu esa yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ular dunyoqarashini estetik did, g‘oyaviy ongini chalg‘itadi, xolos.

Xalq amaliy san‘ati, milliy kuy va qo‘shiqlar madaniyat va ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas manbalaridan bo‘lib xizmat kelmoqda. Ular milliy qadriyatlarimizning eng muhim, noyob qismidir. **“Asrlar davomida aqlu zakovati ila bunyod etgan ma’naviyati tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ana shu milliy ong, ana shu milliy g‘urur bugungi istiqbolimizning oltin poydevoridir”.**

Ma'naviyat mustaqillikning eng muhim shartlaridan biridir. Ma'naviyat bo'lmasa mustaqillik ham, taraqqiyot ham, baxt – saodat ham, imyon – e'tiqod ham, elda diyonatu adolat ham, xullas, odamlarda Vatan va erk tuyg'usi ham bo'lmaydi. **“Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz, -O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida, butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan”.**

Mustaqillik uchun xizmat qiladigan, xalqimizni milliy istiqlol uchun kurashga tayyorlaydigan ma'naviyatimiz rivojlanadigan, chuqur ildiz otadigan asosiy zamin-bu jonajon O'zbekistonimizdir. “O'zbekistonning mustaqilligi, uning dunyo ko'z o'ngidagi ochiqligi shunday bir serunum tuproqki, bizning ma'naviy imkoniyatlarimiz unda tobora tezroq unadi. ***“O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi-insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi”.***

Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlar, har xil bayramlari, boy qadimiy merosi o'zining alohida o'rni va ahamiyatiga ega. Madaniy-ma'naviy merosimiz, asriy an'analari-o'tmishdan, avlod-ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk xazinadir. Bu xazina insonga hayotda baqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi.

Madan iy meros

Xalqimiz madaniy merosi, an'analari, urf-odatlar bizlar uchun faqat o'tmishdan qolib kelayotgan yodgorlikkina emas, barcha ma'naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idoki va tafakkurining buyuk yutug'i hamdir. Daraxt o'z ildizlari bilan zamindan suv, oziq-ovqat olib voyaga yetganidek, inson ham avlod-ajdodlaridan qolib kelayotgan bebaho boyliklardan ruhiy oziq, kuch-quvvat oladi, ularga tayanadi. Har bir millat

va elat ajdodlari bilim boyliklaridan, tajriba va tarixiy saboqlaridan, obod-axloq, ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari va yo'l-yo'riqlaridan foydalanadi, bularsiz yashay olmaydi.

O'tmishga, madaniy merosga hurmat-bu, birinchi galda, uning yaratuvchisi, ko'z qorachig'idek avaylab-asrovchi va rivojlantiruvchisi bo'lgan xalq ommasiga ko'rsatilgan izzat-ikrom, mehr-oqibatdir. O'zining o'tmish tarixiga, madaniyatiga, tarixiy merosiga, milliy an'analariga katta e'tibor va hurmat bilan qaraydigan xalqning istiqboli porloq bo'ladi. O'tmishdoshlarimizga bizlar qanday munosabatda bo'lsak, nasl-nasabimiz ham bizlarga xuddi shunday javob qaytarishadi. O'tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, hozirgi davrni, mustaqilligimiz istiqboli va ahamiyatini shunchalik chuqur va mukammal tushunamiz.

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, oqilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichga ko'tara bilishdadir.

Totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik yillarida xalqimiz o'tmishiga hadeb tosh otish, uni butkul qoralash sovet mafkurasiga xos holat edi. Bu ashaddiy madaniyatsizlik va siyosiy kaltabinlik, odob-axloqsizlikdan boshqa narsa emas edi. Buni boshqacha ta'riflab ham, tavsiflab ham bo'lmaydi. Yurtboshimiz aytganlaridek, ba'zi bir bo'sh-bayov, siyosiy irodadan mahrum bo'lgan, o'z xalqi or-nomusi, qadr-qimmatini va g'ururini himoya qilishga jur'at eta bilmagan mahalliy rahbarlar amal pillapoyasidan ko'tarilishga umidvor bo'lib, o'z avlod-ajdodlarining urf-odatlarini va ma'naviy qadriyatlarini mensimadilar. Xalqning urf-odatlarini, an'analarini, madaniyatini obdon oyoq osti qilinishiga yo'l qo'yib berdilar va o'zlari bunga hattoki bosh-qosh ham bo'ldilar.

Milliy madaniy-ma'naviy, axloqiy tarixiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat masalasida ham jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. O'zlarini ilmning hamma sohasini yakayu yagona bilag'oni deb atagan kommunistik mafkura targ'ibotchilari o'z faoliyatlarida o'tmishdan qolgan barcha madaniy merosni butunlay inkor etish

yo‘liga o‘tib oldilar. Navoiy, Bobur, Ulug‘bek, Yassaviy, Mashrab, Nodirabegim singari allomalar feodalizm davri namoyandalari, deb e‘lon qilinib, ularning meroslarini o‘rganish to‘la, xolisanlillo baho berish imkoniyatiga ega emas edi. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan bo‘lgan bunday adolatsiz munosabat O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgunga qadar davom etdi.

Erishilgan mustaqillik xalqimiz madaniy-ma‘naviy taraqqiyotiga keng yo‘l ochib berdi. O‘zbekistonda hozir madaniy merosimizga alohida e‘tibor bilan qaralmoqda, juda ko‘plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo‘lyozmalar ketama-ket nashr qilinib turibdi. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta‘mirlash ishlari allaqachon boshlab yuborildi.

Xalqimiz dahosi bilan yaratilgan va g‘ayriqonuniy ravishda jumhuriyatdan tashqariga olib ketilgan, milliy boylik bo‘lgan san‘at asarlarini, qimmatli qo‘lyozmalarni izlab topish, O‘zbekistonga qaytarish chora-tadbirlari ko‘rilyapti. **“Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta‘mirlash, o‘zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo‘lgan san‘at asarlarini izlab topish, ularni O‘zbekistonga qaytarish ma‘naviyat dasturimizning muhim bo‘lagini tashkil etadi. Bu milliy boylik bizga ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan. Binobarin, biz ham uni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylashimiz va farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak.**

... Butun dunyoda bunday noyob boyliklar birinchi galda davlat muzeylari tomonidan sotib olinadi va saqlanadi. Biz ham xudi shu yo‘ldan borishimiz, buning uchun kerakli mablag‘ni aslo ayamashimiz darkor. Tengsiz milliy boyliklarimizning shuncha talon-toroj qilingani yetar, endi biz bunga aslo yo‘l qo‘ymaymiz”.

Jumhuriyatimizda ilm-fan, madaniyat, xalq ta‘limi, maorif, adabiyot va san‘atni rivojlantirish, tarixiy obidalarini ta‘mirlash, asliga keltirish, qariyb unutilayozgan xalq hunarmandchiligini tiklash masalalari bo‘yicha Prezident farmonlari e‘lon qilindi, bir necha qarorlar qabul qilindi.

Sharq xalqlarining bir necha ming yillar mobaynida yaratgan shunday bebaho odob-a'loq qoidalari, jahonga ko'z-ko'z qilsa arziydigan qadriyatlari borki, ularni unutish o'tgan avlodlar xotirasi oldidagina emas, hozirgi va kelajak nasl-nasablarimiz oldida ham kechirilmaydigan eng katta gunohi azimdir.

Odob-axloq, ta'lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz bizlar uchun faqat milliy merosgina emas, balki insoniyat ma'naviy hayoti borasida katta o'rin olishi mumkin bo'lgan ma'naviy boylik hamdir. Ana shu milliy qadriyatlarimizni tiklash, ulardan to'la bahramand bo'lish, yosh avlodni ular bilan tanishtirish mustaqilligimizni mustahkamlashda, odamlarda insonparvarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni qoror toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Gap ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, mehmondo'stlik, insonparvarlik va boshqa umuminsoniy va milliy qadriyatlar ustida bormoqda. Ularning jamiyatimizning iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy-ma'naviy kamoloti uchun nechog'lik muhim o'rin tutishini yetti yashardan yetmish yashargacha bo'lgan har bir inson biladi. I. Karimov tabiri bilan aytganda: **“Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir”.**

O'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a'zolarining barchasi to'planmaguncha ovqat yemay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota-onani o'rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, ulug'-ajdodlarga, qo'ni-qo'shnilarga, xesh-aqrobalarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamni ayamaslik va boshqalar bunga misol bo'ladi. Birovlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilish, o'zidan kattalar, yoshi ulug'lar bilan hayo, odob-andisha asosida so'zlashish, ularga nojoiz so'zlarni

aytmaslik, betagachoparlik qilmaslik, odob-axloq, andishani qo'ldan bermaslik-bularning hammasi xalqimizda chinakkam lutfu nazokat hisoblanadi va yuksak darajada e'zozlanadi. O'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolaru otalarni, nuroniy onalaru buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamni ayamasklik o'zbek xalqining an'anaviy qoidasi bo'lib, ular o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga chuqur singdirilib boriladi. Ota-bobolarimiz an'analariga ko'ra, yoshlar o'zidan kattalarni ko'rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat'i nazar, salom berishlari, yo'lda ro'baro' kelganda birinchi yo'l berishi, ular bilan samimiy munosabatda bo'lishlari, iltifotlarini ayamaskliklari lozim.

O'zbek oilalarida o'tadigan bironta ham marosim, to'y-tomosha, hashar keksalarning maslahatisiz va ishtirokisiz o'tmaydi. Keksalarning turmush tajribalari, bilim boyliklari, bosib o'tgan yo'llari, yo'l-yo'riqlari, maslahatlari, saboqlari-yoshlar uchun eng katta boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir. Keksasi bo'lgan xonadonda fayz-baraka bo'ladi, degan mazmunda aytilgan qanchadan-qancha matallar, maqollar, afsonayu rivoyatlarimiz borligini aytib o'tmasak bo'lmaydi!

XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib qarilarni hurmat qilish, ular haqida behuda so'z aytmaslik, ular huzurida odob va kamtarlik bilan so'zlash joizligini uqtirgan edi.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlardan yana biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromi, xurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandning suyanchig'i, bitmas-tuganmas boyligidir. Hech ikkilanmasdan shuni aytish kerakki, ota-ona farzand uchun hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-axloq qoidasi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tish gunoh hisoblanadi. Bundaylarni el-yurt la'natlaydi.

Shunday ekan, ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmati unutmaslik, duolarini olish- bolalarning farzandlik burchi. Bu-milliy qadriyatlarimizning eng muhim talabalaridan biridir.

Buyuk bobolarimiz aytganidek, ota – ona uchun xizmat qilmoq farzandlar uchun majburiyatdir: **“ Ota - ona ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo‘lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo‘lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunungga nur berib turgan-birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so‘zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, “adab” so‘zidagi “dol” kabi qomatingni xam qil”.**

Tan olib shuni aytishimiz kerakki, keyingi paytlarda keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish zarurligi haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshlagandek. Ba’zi yoshlarda kattalarni hurmat qilish, ularning gapiga quloq solish singari yuksak ma’naviy fazilatlar yo‘qolib ketayotgandek sezilmoqda. Ehtimol, boshqa millat vakillari bunga unchalik e’tibor berishmas, lekin biz, o‘zbeklar buni his qilmay ilojimiz yo‘q. Keksalar uchun ajratilgan uylarda farzandlari tirik bo‘lgan ota-onalar yashayotganligiga toqat qilib bo‘lmaydi. Goh-gohida bo‘lsa-da, ota-onaga qo‘l ko‘tarish, undan ham og‘irroq jinoyat qilish hollari sodir bo‘lib turganligini matbuotdan o‘qib, odamlardan eshitib turibmiz!! Bu-oddiy bir nuqson emas, balki inson uchun manaviy tubanlik, bag‘ritoshlik, ko‘rnamaklikdir, avlodlarimiz o‘gitlarini nazar-pisand qilmaslik, oyoq osti qilishdir. Bunday holatlarni ko‘rib, milliy, axloqiy qadriyatlarimizga, o‘zbek xalqining sha’niga dog‘ tushiradigan bunday yaramas hodisalar qayerdan kelib chiqdi, ularning asosiy sababi, ildizi nimadan iborat, degan savol har bir manaviyatli insonni o‘ylantirishi tayin. Shuni aniq aytish kerakki, taraqqiyotning muayyan bosqichida ayrim yoshlar o‘zbek xalqining eng asl milliy qadriyatlarini chuqur o‘rganish, tahlil etish, mohiyatini to‘la anglab yetishdan to‘la mahrum bo‘lib qoldilar. Avlod-ajdodlarimizning o‘gitlari, pand-nasihatlari, eng ajoyib

an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz tinmay targ'ib-tashviqot qilinishi, odamlar ongi va turmushiga singdirilishi o'rniga nuqul qoralandi, yomon otli qilindi, bid'at, xurofot, deb baholandi. Milliy qadriyatlarimizning serma'no, serhikmat g'oyalarini o'zida jo qilgan va targ'ib-tashviq qiladigan o'zbek xalq rivoyatlari, ertaklari, dostonlari, maqol va matallari, aruz va baytlari, kuy va qo'shiqlariga unchalik e'tibor berilmadi, ular sinchiklab o'rganilmadi. Bularning o'rniga Yevropa va boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy meroslariga ruju qilindi. O'nlab yillar davomida biz ta'lim-tarbiya borasida Yevropa, Rossiya modelini ko'klarga ko'tarib maqtab, targ'ib qilib, yoshlarimizni o'z milliy qadriyatimizdan bebahra qilib qo'ydik. Ana shu kasofatlar tufayli diniy, axloqiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizning, oila, maktab, mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shnilar ta'lim-tarbiyasining hayot sinovidan o'tgan bebaho boyliklaridan judo bo'la boshladik, bora-bora ularni unutdik va bugun xalqimiz orasida turli illatlarga duch kelib turibmiz.

Milliy qadriyatlarimizning mohiyatiga zid bo'lgan bunday salbiy hodisalarning uzoq davom etishiga ortiqcha chidash, sabr-toqat qilish mumkin emas edi. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo'yildi. Mustaqilligimiz ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalarida ham tub burulish davrini boshlab berdi. Milliy an'analar, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar o'zining qaddini rostlay boshladi.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e'zoz, farzandlarga mehr-sadoqat-bular insonni inson sifatida ulug'laydigan, axloqiy, ma'naviy jihatdan go'zal va barkamol qiladigan qadriyatlardan bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni-Konstitutsiyada farzandlarning jamiyat, oila hamda ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g'oya va qoidalarga asoslanib belgilab berilgan. Uning 66-moddasida qayd qilinishicha, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amg'o'rlik qilishga majburdilar.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda jamiyat a'zolari madaniy-ma'naviy, axloqiy kamolotini oqilona yo'lga qo'yish, ma'rifiy tadbirlarni

muntazam amalga oshirish benihoya katta ahamiyatga ega. Agar inson to'g'ri tarbiya topmasa, uning faoliyati jamiyat uchun zararli bo'ladi. Jamiyat hayotidagi barcha muammolar yechimi ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan kishilarning fidokorona, halol mehnati, halol va pokligi asosida ro'yobga chiqadi. **“Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarmizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda axloq-ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xush muomaladangina iborat emas. Axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani”.**

Hozirgi paytda taraqqiyotimiz taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot, insofu diyonat, muruvvat, mehr-oqibat- bular ma'rifatli, ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlaridir.

Milliy qadriyatlar ustida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, qadimiy urf-odatimizga ko'ra o'zbek oilalarida, ayniqsa, ko'p bolali xonadonlarda yoshlar bolaligidanoq mehnat quchog'ida tarbiyalanadi, mehnatda chiniqadi. Dalada, uy-joyda ota-onaga yordam berib, mehnat qilib, hali hech bir bola mayib bo'lgan emas. Aksincha, mehnat qilgan bola chiniqqan, oq-qorani tanigan, ota-onasining qadriga yetgan. Mehnat qilib murakkab hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan har qanday to'siq va qiyinchiliklarni sabr-toqat bilan yengib o'tishga o'rgangan.

Afsuski, o'tgan sovetlar davrida xalqimizning ana shu muhim an'analari ba'zan e'tibordan chetda qola boshladi, yoshlarning mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish masalasiga rasmiyatchilik bilan qaraladigan bo'ladi. Shahar va qishloqdagi maktab o'qituvchilarini kasb-hunarga o'rgatish masalasiga birmuncha sovuqqonlik bilan qaraldi.

Prezidentimiz tamonidan qabul qilingan kadrlar tayyorlash milliy davlat dasturiga binoan, respublikamizda turli mutaxassislik bo'yicha 297 yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Xalqimiz orasida boy tajribalar to'plangan kasb – hunar sirlarini o'rganish, ta'lim –tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rin tutadigan bo'ldi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-

odatlarimizga e'tibor kuchaydi. Yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladigan bo'lganligi tahsinga sazovardir.

Jamiyatda har kim o'ziga munosib o'rin egallashi va hayot kechirishining mezonlari hozir tamomila boshqachadir. Bundan buyon insonning jamiyatdagi o'rnini, istiqboli va kelajagini faqat uning bilimigina emas, balki aql-idroki, ishbilarmonligi va uddaburonligi, mehnat malakalari ham belgilaydi.

Jumhuriyatimiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan hozirgi sharoitda oiladagi, maktablar, barcha bilim va tabiya muassasalaridagi mehnat tarbiyasining ahamiyati ayniqsa katta. Mustaqil O'zbekiston uchun haqiqiy mehnatsevar, malakali, ishbilarmon, ko'plab xorijiy insonlar jumhuriyatimizni yanada rivojlanishiga munosib hissa qo'shishlari mumkin.

Insonning o'zi va o'z oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi.

Bilimni sevish va ardoqlash, olimu fuzalolarni, ustodlarni hurmat qilish, mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolat, halollik va haqgo'ylik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lash borasida ham boshqalar ibrat olishi mumkin bo'lgan ajoyib qadriyatlarimiz ham benihoya ko'p. Shulardan yana ba'zi birlari ustida to'xtab o'tishga to'g'ri keladi.

Milliy qadriyatlarimizda bilim va bilimdonlik juda ulug'lanadi. Bilim va zakovatning qadr-qimmati, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning madaniy-ma'naviy, axloqiy kamoloti uchun ahamiyati haqida qanchadan-qancha kitoblar bitilganini, rivoyatlar aytilganini, maqollar to'qilganini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq narsa yo'qligi to'g'risida Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisrovning "Saodatnoma", "Ro'shnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa" kabi mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan.

Bizning madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning xosiyati haqida kuyib-yonib so'zlamagan na bironta shoir va yozuvchi, bironta olim bo'lmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning

uchun loaqal Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning, Abu Nasr Forobiyning, Ahmad Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning muborak nomlarini eslashning oʻzi kifoya qiladi. Ularning qalamlariga mansub boʻlgan asarning har biri insoniyat uchun mislsiz boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir.

Oʻzlarining aql-idroklari, tafakkur quvvati, zehn-zakovati, buyuk kashfiyotlari, ilm-fani bilan dunyoni hozirgacha ham lol qoldirib kelayotgan buyuk mutafakkirlari, fuzaloyu ulamolari benihoya koʻpligi bilan oʻzbek xalqi har qancha faxrlansa, iftixor qilsa, boshini baland koʻtarib gʻururlanib yursa arziydi!! Oʻzbeklar nasl-nasabi, oʻtmishi nihoyatda ulugʻ va baquvvat, ildizi juda chuqur, qadimiy xalqlardan biridir. Biz tarix maydonida kuni kecha paydo boʻlgan xalq emasmiz.

Ilm-fanga oʻchlik, maʼrifat tomon talpinish, madaniyatga tashnalik, odob-axloq qoidalarini chuqur oʻzlashtirib hayotga tatbiq etishga intilish, kitob mutolaasini hech qachon kanda qilmaslik, zehnini oʻtkirlab, fikrini boyitib, tafakkur quvvatini oshirishga doimo shay turish-bularning hammasi oʻzbek xalqiga avlod-ajdodlaridan oʻtib kelayotgan buyuk anʼana, ajoyib meros boʻlib, bular uning qon-qoniga chuqur singib ketgan.

Insonni kamtar, sermulozamat, vazmin, ogʻir-bosiq qilib koʻrsatadigan fazilat va xislatlar kishining bilimidan kelib chiqadi. Buni bizning ajdodlarimiz orasida oʻtgan ulugʻ va dono kishilar, shoir va faylasuflar ham koʻp taʼkidlab oʻtganlar.

XII asrning isteʼdodli shoiri va donishmand murabbiysi Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” (“Haqiqatlar armugʻoni”) asarida ilmli bilan imsizni, olim bilan johilni qiyoslab bayon etgan quyidagi fikri bunga misol boʻladi: **“Bilim toʻgʻrisida soʻzlamoqdaman, soʻzimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga oʻzingni bogʻla. Bilim bilan baxt-saodat yoʻllari oʻrganiladi, bilim egallab, saodat yoʻlini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arzimas qalbaki aqchadir. Bilimli bilan bilimsiz qachon teng boʻladi? Bilimli ayol, er marddir, bilimsiz er, ayol zaifdir. Suyakka ilik, er kishiga ilm kerak. Erning koʻrki aql, suyakning koʻrki ilikdir. Iliksiz suyak boʻsh-quruqdir, iliksiz suyakka esa qoʻl uzatmaydilar. Er kishi bilim oʻrganib, bilguvchi boʻlib qoladi,**

bilimsiz er kishi tiriklikda ko'rguliklar ichida qoladi. Bilimli er o'lsa ham o'likdir". Ahmad Yugnakiyning bu mulohazalari, hozirgi davrimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ilmu ma'rifatning insonning qadr-qimmatini va izzat-e'tiborini oshirishdagi ahamiyati Kaykovusning "Qobusnoma"sida, Yusuf Xos Xojibning "Kutadg'u bilig", "Baxt keltiruvchi bilimlar" nomli asarlarida ham o'zining chuqur ifodasini topganligini qayd qilib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ana shu yerda ulug' bobomiz Alisher Navoyining "Mahbubul-qulub" asaridagi kamtarlik-tavoze' haqidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir: **"Tavoze'-do'stlik gulshanida toza gullar ochadi va chamandan oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi. Tavoze'-takabbur muxolifga muloyimlik va kamchilik yo'lini ko'rsatadi. Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o'z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq. Hech qanday ehson bermay kattadan-kichik, hammani shod qiladi. Hech qanday hadya qilmay, kishilarning g'amini tarqatadi... Tavoze' va odob egallariga hamma ta'zim qiladi va hurmat bildiradi".**

"Makorimul-axloq" kitobining muallifi tarixchi Xonadamir **"Boshingga takabburlik havosini keltirma. Chunki takabburlik bilan hech kim biror joyga yetgan emas. Go'zallar zulfi kabi shikasatlikni odat qil, bu bilan har nafasda minglab ko'ngilni ovlaysan"**, -deydi.

Diniy qadriyatlar

Mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda diniy qadriyatlardan, ayniqsa, odob, axloq borasida islom dini ta'limotidan oqilona, ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Islom dinida nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan, hozirgi paytda ham o'z qimmatini to'la saqlab kelayotgan eng muhim axloqiy qoidalar, falsafiy fikr-mulohazalar behisob. Islom odamlarni dinidan, millatidan qat'i nazar o'zaro hurmat izzatda bo'lishga, bir-birlarlarini doimo qo'llab-quvvatlashga undaydi. Millat ajratish, boshqa millat vakillarini kamsitish tushunchalari islom diniga tamomila yot. **"Islom dini-bu ota-boblarimiz dini, u biz uchun ham**

iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik, -deydi I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi majlisidagi ma'ruzasid, – u quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'g'itlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar”.

Sovet hokimiyati yillarida, islom dinining kuchayishi pirovardida islom millatchiligi kuchayishiga olib keladi, juda ijtimoiy zaminga ega bo'lgan islom millatchiligi aholini rus xalqiga, sovet siyosiy tuzmiga qarshi kurashaoladigan va uni larzaga keltiradigan kuchga aylantirishi mumkin, degan hadiksirash va bahonalar bilan milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi kurash avj oldirib yuborildi. Islom dini, shu tariqa, xalq uchun afyun, deb qoralandi. Islom dini, tabiat, jamiyat, tafakkur to'g'risidagi ilmiy dalillarga butunlay zid bo'lib, mazlumlar ongini zaharlaydi, deb kelindi. Hamma joyda va har doim, diniy normalar, qoidalar, dasturlar erkin fikr yuritishga yo'l qo'ymaydi, ijtimoiy va shaxsiy xayot taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi, ularni diniy yo'l bilan cheklab qo'yadi, degan g'oya zo'r berib yoyildi. Qur'oni karim va Hadisi sharif singari muqaddas kitoblar ta'qib ostiga olinib qatag'on qilindi. Odamlarni ana shu qadriyatlardan mahrum etishdi. O'zbekistondagi barcha dinlarning, birinchi navbatda, islom dinining ko'zga ko'ringan yirik vakillari birin-ketin qamaldi, surgun qilindi, imi-jimida otib tashlandi. Siyosiy ta'qib va tazyiqlardan nasroniy va yahudiy dinlariga qaraganda ham islom dini kuchliroq talafot ko'rdi. Din peshvolari, ruhoniylar juda ko'plab imtiyozlardan mahrum qilindi, mol-mulklari tortib olindi, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'rifiy ishlardan butunlay chetlatildi.

Chorak kam bir asr davomida diniy-ma'naviy tarbiyaga o'rin berilmadi. Diniy tarbiya tor doirada, faqat masjidlardagina qisman amalga oshirildi. Diniy axloq va madaniyatning zarari haqida aytmagan gap qolmadi, milliy udum va an'analar, milliy qadriyatlar kamsitildi, eng muhim insoniy munosabatlar obro'siga putur yetkazildi.

Dahshatlisi shu bo‘ldiki, islom dinini “fosh etish” maqsadida aziz-avliyolarning mozorlariga o‘t qo‘yildi, maqbaralari ostin-ustun qilindi. Kommunistlar, rahbar xodimlar ota-onalari, qavm-qarindoshlari janozasiga borishdan qo‘rqib qolishdi. Yurak yutib borganlar esa partiyadan o‘chirilib, ishdan olindi.

Madaniy inqilob davrida “Xudosizlar jamiyati” tuzilib, unga minglab odamlar a‘zo bo‘lishgan. O‘sha “fa’ollar” odamlarni go‘yo, diniy sarqitlardan ozod qilish va dahriylik ruhida tarbiyalash bahonasida qari-qartanglar, xotin-qizlar, mullalar, eshonlarning nafsoniyatlariga shu qadar qattiq tegishgan, insoniy sha’ni, milliy diniy, axloqiy qadriyatlarini toptaganlarki, buni tarix unutmaydi.

Xalq o‘rtasida dahriylikni targ‘ib qilish va dinga qarshi murossasiz kurashish niqobi ostida o‘rta asr me’morchiligining takrorlanmas namunasi bo‘lgan minglab masjidlar, yuzlab madrasalar, xalqimizning milliy g‘ururi hisoblangan muhtasham qasrlar, tarixiy obidalar, xonlar, amirlar saroylari ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan darajada vahshiylik va yovuzlik bilan buzib tashlanib, omborxonalarga, paxta quritadigan joylarga aylantirilgan. XX asr boshida birgina Toshkent shahrining o‘ziga 349 ta masjid va 17 ta madrasa bo‘lgan. Hozir qani o‘sha binolar? Ulardan ayrimlarigina saqlanib qolgan, xolos.

Bular kamlik qilganidek, necha-necha asrlardan beri avlodlarimiz tomonidan ko‘z qorachig‘idek avaylab-asrab kelingan, xalqimiz turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan haqiqiy xaqchil urf-odatlar, xalq marosimlari va bayramlari, turli sayillar so‘rab-surishtirib o‘tirmay taqiqlab qo‘yildi. Nikoh va beshik to‘ylari, hosil bayrami, qovun sayli, gul sayli, gap-gashtaklar, ko‘pkari, kelin salomlar, qizlar bazmi va hattoki, milliy libos kiyib yurishlar “eskilik sarqiti”ga chiqarildi. Ko‘klamda sumalak pishirish, bolalarni sunnat to‘yi qilish, aqiqa, boshqa marosimlarni o‘tkazish qoralandi. Diniy marosim sifatida Navro‘z bayramini o‘tkazish taqiqlandi. Holbuki, uning hech qanday diniy marosimga aloqasi yo‘q. Axir, u xalqning islomdan ancha ilgari mavjud bo‘lgan ajoyib udumi-ku?

Sobiq SSSR o‘zini butun dunyoga dahriylar mamlakati, deb e‘lon qildi. Dinsizlik yuqumli kasallikday hamma joyda yoyildi. Odamlar sekin-asta dindan,

diniy iymon-e'tiqoddan yiroqlasha boshladi. Islom diniga qarshi uzoq yillar davomida olib borilgan ko'r-ko'rona, bir yoqlama kurashdan, g'ayrilmiy, g'ayriinsoniy xatti-harakatlardan xalqimiz va madaniyatimiz behad zarar ko'rdi, odamlarning dili ranjidi, ko'ngli o'ksidi. Holbuki, islom dinining har bir oyati va surasida insoniyat manfaatiga xizmat qiladigan qimmatli o'gitlar, yo'l-yo'riqlarni istagancha topish mumkin. Hadisi sharifda, kimki musulmon mamlakatida yashovchi boshqa dinga mansub kishini xaqorat qilsa, qiyomat kuni yasalgan qamchi bilan uriladi, deyiladi. Ta'kidlanishicha, mo'min muminning ko'zgusidir, ularning hammasi bir-birlariga birodar, biri ikkinchisidan ortiq, kam emas. Mo'min-musulmonlar hamma sohada bir-biriga o'zaro yordamlashadi, mol-dunyosi va obro'sini himoya qiladi, birining kamchilik va nuqsonini boshqasi tuzatadi. Mo'min muminning molu joniga tajovuz qilmaydi.

Islomda mamlakatlararo mojarolar, qonli to'qnashuvlar qattiq qoralanadi. Tabiatga mehr-muhabbat, tevarak-atrofni, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu nabototni asrab-avaylash islomning eng asosiy g'oyatlaridan biridir. Biz yashayotgan zamindagi, yer yuzidagi barcha noz-ne'matning qadriga yetish insonning burchi. Tabiiy ne'matlarni e'zozlash ularni avaylab-asrash, isrof qilmaslik asosida amalga oshadi. "Qur'on" oyatlarida, Payg'ambarimiz Hadislarida hayvonot olami, nabotot olami va atrofimizni o'rab turgan boshqa barcha narsalarni to'la-to'kis himoya qilish, saqlash, ularni buzmaslik, isrof qilmaslik to'g'risida ta'limotlar borki, ularning ma'nosi bilan tanishib, bu ta'limotlar go'yo, hozirgi kunimizni ko'zlab aytilgandek.

Jamiki tabiiy boyliklarni, dov-daraxtlarni avaylash masalasida islom dinida bayon etilgan eng zarur, eng foydali yo'l-yo'riqlar, bebaho o'git va g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar hisoblanib, u millat tanlamaydi. Unda alohida ta'kidlanishicha, qaysi bir mo'min biror ekin eksa yoki hayvonlar yesa, bu uning sadaqa hukmida bo'ladi. Unda yana soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesgan odam do'zaxga mahkum etiladi, degan fikrlar ham bayon etilgan. "Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, bexosdan qiyomatqoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering", deb uqtirilgan fikrning

qanchalik muhim va zarurligini aytib o'tishning hojati bo'lmasa kerak? Yoki muqaddas Hadisi sharifda ko'chat ekish haqida shunday hadisni o'qishimiz mumkin: "Halq soyasidan bahramand bo'lib turgan daraxtni kesganni xudo kechirmaydi".

Islom dini jamiyatda insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib-tashviq qiladi.

Qur'onda insonni ulug'laydigan uni mukarram zot, deb ta'riflaydigan oyatlar istagancha topiladi.

Islom dinida birovlarining haqiga ko'z olaytirish, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'g'irilik kabi qabih ishlar bilan shug'ullanish, fohishabozlik, poraxo'rlik qattiq qoralanadi.

Din odamlarni harom-xarish yo'llardan uzoq yurishga, insofli-diyonatli bo'lishga, o'zidan yaxshi iz qoldirishga undaydi.

Tarbiya-odob-axloq, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat singari insoniy qadriyatlar dinda keng tashviq qilinadi. Buning aksicha, razolat, kibr-havo, adovat, hasad, hiyonat, yolg'onchilik, fitna-fasod, zulm kabi insoniylik sha'niga dog'tushiradigan razil sifatlar esa keskin qoralanadi.

Islom, uzoq yillar davomida tuhmat qilib kelinganidek, xurofot va bid'at manbai emas, balki, har qanday ilmni o'rganishga da'vat etadigan ta'limotdir. Islom ilmni ibodat darajasiga ko'targan, hattoki ibodatdan ilmni ustun qo'ygan. Imkoni boricha va qayerda qodir bo'lsang ilm o'rgan, ma'rifatingni ziyoda qil, degan g'oya islom dinining mano-mag'ziga chuqur singibdirib yuborilganligini Hadisi sharifdan olingan misollardan ko'rish mumkin. **"Ilmni Chin mamlakatidan bo'lsa ham talab qilinglar", «Beshikdan to tobutgacha bilim ol", Olimning o'limi-olamning o'limi"**, deb Hadisda aytilgan chuqur ma'noli fikrlar musulmonlar uchun asosiy qo'llanma bo'lgan.

Prezidentimiz tomonidan ta'kidlanganidek, **"Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarini ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Har bir**

alohida insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so‘z bilan atganda, umumxalqqa rahnamo bo‘lgan. Uni og‘ir-og‘ir sinovlarga bardosh berishga, yorug‘ kunlarga intilib yashashga da‘vat qilgan, ishontirgan. Bunday da‘vat o‘z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag‘ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan... Asrlar davomida din odamlarni eng ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashishga, hamjihat bo‘lishga undagan”.

Islom dini va axloqida bayon etilgan, uning butun mohiyati, asos-asosiga jo qilib yuborilgan ana shu va boshqa g‘oya va qoidalarni bilib olish, ularga asoslanib ish yuritish, faoliyat ko‘rsatish shaxsning ma‘naviy kamoloti, axloqiy poklanishi uchun benihoya zarur va muhim. Ma‘naviy boy, axloqan pok inson har qanday ishni eplaydi, qiyinchiliklarni yengadi.

Shunday qilib, insonning manaviy kamolatida xalqimiz tamonidan yaratib kelingan sanat va adabiyot, milliy va diniy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Har bir xalq millat va xalq sifatida taraqqiiy etar ekan, o‘z kelajagini o‘zining milliy va diniy qadriyatlari asosida qurmog‘i kerak. Shundagina u bu dunyoda millat va xalq sifatida abadiy qoladi.

Madaniyat uylari va madaniyat saroylari – aholining madaniy madaniy dam olishni uyushtirish maqsadida quriladi. Madaniyat uylari va madaniyat

saroylarida ko'p o'rinli tomosha va ma'ruza zallari, doimiy kino qurilmalar, kutubxonalar va to'garak mashg'ulotlari, tasviriy san'at va boshqalar uchun alohida xonalar bo'ladi.

Madaniyat uylari va madaniyat saroylarida ko'rgazmalar tashkil qilinadi ma'ruza mavzuli kechalar, atoqli kishilar bilan uchrashuv bayram kechalar va boshqa marosimlar o'tkaziladi. Turli bolalar to'garaklari ishlaydi. Madaniyat uylari va madaniyat saroylari faoliyati xalq ijodi va badiiy xavaskorlikni barcha turlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular xalq teatrlari orkestr, xor opera va xoreografiya jamoalari, ashula va raqs ansambillari ijod qiladi.

O'zbekistonda madaniyat ishlari vazirligi tuzimiga qarashli tuman, shahar va qishloq madaniyat uylari va madaniyat saroylari shuningdek, yirik korxona kasaba uyushmalari qumitasi tomonidan tashkil qilingan. Madaniyat uylari va madaniyat saroylari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida bo'ladi. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda 6 ming klub va madaniyat uylari mavjud. Uning bugungi kundagi faoliyati qoniqarli darajada deyish mumkin emas. Chunki u yerdagi kadrlar faoliyati va bilim saviyasi to'la qonli talab darajasida emas. Moddiy rag'batlantirish moddiy ba'zani yetishmasligi yechimini kutayotgan muammolardir.

To'g'ri, yosh avlodga bilim berib kelayotgan o'qituvchilarning saviyasini, ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini va albatta, bilim darajalari hozirgi kunda tubdan o'zgarmoqda. Afsuski, hozirda madaniyat muassasalari xodimlarining ayrimlari yosh avlod tarbiyasiga mas'uliyatsiz yondoshmoqdalar. Ulardagi bilimning sayozligi, yangilikka intiluvchanlikning yo'qligi mazkur kasbga nisbatan jamiyatning muayyan tabaqalari orasida noto'g'ri targ'ib etilishiga olib kelishi mumkin.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning ko'rinishi, ayniqsa, madaniyat xodimida yaqqol namoyon bo'lishi darkor. Aks holda, ulg'ayib borayotgan yosh avlodni ma'naviy qashshoq madaniyatdan ancha orqada qolishiga, ahloq normalariga zid tarbiya topishiga omil bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, viloyat, shahar va tumanlardagi shu soha rahbarlari tamoman boshqa kasb egalaridir. Bundan ko'rinib turibdiki, madaniyat muassasalari xodimlarini yangi zamon ruhiga mos qayta tayyorlash, shu kunning dolzarb masalasidir.

Mustatsillik yillarida hukumatimiz tomonidan madaniy-ma'rifiy muassasalarga ham jiddiy e'tibor berildi, jumladan, kadrlar masalasi, moliyaviy tomondan ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Demak madaniyat muassasalari xodimlari ushbu e'tibordan turli xulosa chiqarib, ish faoliyatlarida yangicha shakl va usullardan foydalanishlariga to'g'ri keladi.

Bu borada, bizning takliflarimiz quyidagicha; birinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari bilan muzeylar, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniyat markazlari o'rtasidagi aloqalarni yanada takomillashtirish zarur.

Ikkinchidan, madaniyat muassasalari va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaxshilash bilan birgalikda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati" hamkorligida yosh avlod tarbiyasida ko'pgina xayrli ishlar qilish mumkin. Avvalo, jamiyat uchun kerakli bo'lgan shaxsni mukammal qilib tarbiyalash, shu jamiyatning a'zosiman degan har bir shaxsning muqaddas burchidir.

Shuning uchun, millat taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi barkamol insonni tarbiyalash, har bir oila zimmasidagi vazifadir. O'z oila a'zolariga ya'ni farzandiga berilayotgan tarbiyaning izchilligini ta'minlash uchun unda milliy madaniyatimiz va mafkuramizga bo'lgan e'tiqodni shallantirish har jihatdan muhimdir. Bunda ta'lim muassasalari bilan birgalikda madaniy – ma'rifiy muassasalarning ham o'rni beqiyos bo'lib, jamiyatdagi taraqqiyot omilini busiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Biroq, har bir shaxs dunyoqarashini shakllantirishida yetakchi omil bo'lgan ma'naviy madaniyatni barkamol avlod ongiga singdirish, va uning xususiyatlarini alohida tarzda o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy madaniyat - insonning ma'naviy xususiyat va hislatlari jamiyatning ma'naviy darajasini aks ettiruvchi tushuncha. Jamiyat va o'z – o'zini tarbiyalash jarayoni, shaxsning hatti - harakatlari va qiyofasida ma'naviyat tamoyillari qanchalik singib ketganligini namoyon etuvchi atama. Ma'naviy madaniyat “moddiy madaniyat” tushunchasidan farq qiladi, ammo u bilan bog'liq va o'zaro aloqada namoyon bo'ladi.

“Agar ma'naviyat tushunchasi barcha ma'naviy narsalar va xususiyatlarni-insoniyatning ijodiy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, badiiy, diniy, ahloqiy shunaqa tasavvurlari, tushunchalari majmuini anglatasa, ma'naviy madaniyat esa anashu tushuncha, bilim va tajribalarni kundalik hayotda qo'llanilishini anglatadi. Tuyrli omillar hayotiy tajriba, tarbiya, ahloqiy ma'rifat, san'at, adabiyot va hokozoning ta'siri natijasida shaxs muayyan darajada o'z ongi, xulq –atvori jamiyatdagi ma'naviy madaniyatni mujassamlashtiradi”¹¹.

Binobarin, shaxs hatti – harakatlarida namoyon bo'ladigan ma'naviy madaniyatning o'ta murakkab tuzilgan dasturga o'xshatish mumkin, ya'ni inson turli vaziyatlarda o'zini ma'naviy jihatdan qanday tutish kerakligi borasida ko'maklashuvchi tajribalarni singdiradi.

Shuningdek ma'naviy madaniyatni inson ongini betinim ijod qilib turuvchi jihatlari – yechimi murakkab bo'gan qiyin vaziyatlarda muayyan qaror qabul qilishga yordam beradigan ma'naviy tafakkur, his tuyg'u kabi omillarga ham suyanadi.

Ma'naviy madaniyat harakatlari - voqelikni baholay olish salohiyati, ahloqiy bilim va tajribalari, ulardan foydalana bilish qobiliyati, yaxshi – yomon, ijobiy – salbiy, vaziyatlarni farqlash va hokozo omillar bilan bog'liq. Har qanday sharoitda ma'naviy – ahloqiy me'yorlarga sodiq qolish o'zgalar tashvishiga sherik bo'lish, ahloqqa doir tajribalarni amalda qo'llay olish, shaxslararo muloqotda ijobiy fazilatlarni namoyon eta olish ham ma'naviy madaniyat darajasini ko'rsatishi mumkin. Zero, har qanday murakkab vaziyatda inson nomiga gard

¹¹Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T., “G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi”, 2010, 309 – b.

yuqtirmaydigan hatti – harakatlar qilgan shaxsnigina ahloqan ye'tuk, ma'naviyati boy inson deya olamiz. Masalaning boshqa tomoni – moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi, bir – birini taqozo qilishi bilan bog'liqdir.

Insonning to'laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo'lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o'chog'lari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy shart – sharoitini yaxshilash hamda faoliyatini takomillahtirish ham bu borada ijobiy natijalar beradi.

Afsuski, sobiq ittifoq davrida madaniyatga noto'g'ri munosabatda bo'lindi, unga sarflanayotgan mablag'lar doim boshqa sohalardan kam bo'ldi, natijada xalqimiz bu sohada orqada qolib ketdi.

Istiqlol davridagi islohatlar va barcha rejalarda madaniyat, ma'rifat, tarbiya va sportni rivojlantirish, bu sohalarda xizmat qilayotgan kadrlar, ya'ni o'qituvchilar va shifokorlar, madaniy – ma'naviy muassasalar va boshqa sohalarda mehnat qilayotgan ko'plab mutaxassislarni chinakam ziyolilar sifatida tarbiyalash, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy boyliklarni yaratadigan kishilarga g'amxo'rlik qilish, ularning samarali faoliyati uchun barcha moddiy ma'naviy sharoitlarni yaratib berish eng ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

O'sib kelayotgan avlodga, uning madaniy ma'naviy tarbiyasiga katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasiga e'tibor kuchayib bormoqda. Shuning uchun bu jarayonni uzluksiz davom ettirish, oila boshliqlari ota – onalar, maktab o'qituvchilari, mahalla oqsoqollari hamda madaniy – ma'rifiy muassasalar zimmasidagi asosiy vazifalar hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda har bir viloyat va tumanlarda madaniy – ma'rifiy ishlarni rivojlantirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Madaniy - ma'rifiy ishlar – keng ommani ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushuncha.

Madaniy - ma'rifiy ishlar mazmuni, maqsad – muddaolari har bir zamon va makonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy – ma'rifiy, g'oyaviy, mafkuraviy

xususiyatlariga chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Madaniy – ma'rifiy ishlar tushunchasi keng ma'noda o'quv muassasalari ta'lim – tarbiya maskanlari, klublar, axborot – resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini qamrab oladi.

Bunda san'at, muzey, kinoteatr, teatr va boshqa madaniy – ma'rifiy muassasalar, shuningdek, OAV(gazeta, jurnallar, Internet, radio, TV) muhim o'rin tutadi. Asrlar o'tishi bilan madaniy - ma'rifiy ishlar muassasalarining keng tarmog'ining tashkil etilishi, ularning o'sishi va takomillashuvi bilan unga rahbarlik qilish jarayoni ham mukammallashib borgan.

“Inson dunyoqarashini shakllantirish, ma'naviy ahloqiy tarbiya, g'oyalar targ'iboti, iqtisodiy bilimlarning ilmiy – texnikaviy targ'ibot – tashviqoti, estetik va jismoniy tarbiya, badiiy havaskorlik, madaniy dam olishni tashkil etish, yosh iste'dodlarni har tomonlama qo'llab – quvvatlash madaniy – ma'rifiy ishlarning turli yo'nalishlaridir.

Ezgulik va mehr – oqibat, ulug'vorlik va go'zallik, vijdoniylik va mehr – shafqat, boshqalarga hurmat hamda tabiat bilan uyg'unlikni saqlash kabi ma'naviy hislar har bir kishiga asta – sekin, tadrijiy ravishda madaniy – ma'rifiy ishlar orqali singdirib boriladi”¹².

Madaniy – ma'rifiy ishlar jarayonida o'quv va klub muassasalarida an'anaviy shakllar (suhbat, muloqot, ma'ruza, spektakl, konsert, she'rxonlik) bilan birga mavzuli kechalar, kitobxonlar konferensiyalari va boshqa konsertlar uyushtiriladi.

Madaniy – ma'rifiy ishlar bo'yicha mutaxassislar universitetlar, pedagogika va madaniyat institutlari, madaniyat va san'at kollejlarida tayyorlanadi. Sobiq ittifoq davrida madaniy – ma'rifiy ishlar totalitar – mafkuraviy faoliyatning mustaqil sohasi sifatida shakllangan bo'lsada, ma'naviyat – ma'rifat masalalariga noto'g'ri munosabat yuritilgan, unga sarflanadigan mablag' doimo boshqa sohalardan kam bo'lgan. Insonning to'laqonli hayoti uchun zarur bo'lgan

¹²Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T., “G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi”, 2010, 313-b.

maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa ma'naviyat o'choqlarini ko'paytirish, ular sharoitini yaxshilash masalasiga jiddiy e'tibor berilmagan.

Istiqlol davrida milliy g'oyani shakllantirish, an'analarni qadrlash, urf – odatlar, milliy qadriyatlarni tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Madaniyat va ma'rifat sohalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va shifokorlar, olimlar va ziyolilar, madaniy oqartuv muassasalari va boshqa sohalaridagi mutaxassislarning ijodiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Shu bilan birga Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Ma'naviy – ma'rifiy sohadagi istiqbolni faqat bu soha odamlari yaratmaydi, balki bu ishni tizim bajaradi. Tizim yaratilsa, iqtidorli ijrochilar eng muhim joylarga qo'yilsa – ish yurishib ketaveradi. ...Bu tizim markazida ma'naviyat, ahloq – odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak” .

Istiqlol yillarida zamon, hayot talabiga binoan ma'naviy – ma'rifiy ishlarni yangi, davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Bunda ta'lim tizimi, muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari ommaviy muassasalar sifatida millionlab aholiga ma'naviy – ma'rifiy xizmat ko'rsatmoqda.

Respublika ‘Ma'naviyat va ma'rifat markazi’ (1994) tashkil etildi va uning viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi bo'limlari ishga tushirildi. Markazga Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi rahbarlik qila boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi “milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy - ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida” gi qaroriga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyati hamda tarkibiy tuzilishi qayta ko'rib chiqildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy – amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan va davlat byudjeti hisobidam moliyalashtiriladigan “Milliy g'oya va mafkura ilmiy – amaliy markazi” tashkil etildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boradigan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi shakllantirildi.

Barcha viloyatlarda hokimlarning ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari faoliyati yo'lga qo'yildi. Respublikamizdagi mahalla oqsoqollari vafuqarolar yig'inlari raislarining ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchilari tizimi shakllantirildi.

“Madaniy – ma'rifiy ihlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish borasida bir qator ijobiy chora – tadbirlar amalga oshirildi. Respublikaning barcha viloyatlari, yirik shahar va tumanlarida faoliyat yuritayotgan ma'naviy – ma'rifiy muassasalar ishtirokida katta xalq sayllari, hosil bayramlari, “Mustaqillik”, “Navro'z”, “Mehrjon”, bayramlari, “Sharq taronalari” xalqaro festivali, xonandalar, raqqosalar, eng yaxshi kasb ustalarining ko'rik tanlovlari, “O'zbekiston Vatanim manim”, “Eng ulug', eng aziz”, “Kelajak ovozi”, va boshqa ko'rik - tanlovlari o'tkazilmoqda”¹³.

Yurtimizda ma'naviy - ma'rifiy muhitni yanada yaxshilash, ming yillar moboynida uning bag'rida sayqallanib kelayotgan ibratli an'ana va qadriyatlarni targ'ib – tashviq etish borasida ko'plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Shu mavzuda ilmiy - ommabop, publitsistik asarlar, hujjatli fil'mlar va teleko'rsatuvlar yaratilib, turli ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda.

Bu sohadagi Madaniy – ma'rifiy ishning yo'nalishi har bir kishi ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ezgulik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehr - oqibat, iymon e'tiqodni tarbiyalashda madaniyatning milliy etnik asoslari va zamonaviylikni uyg'unlashtirishga qaratilganligi, madaniyat muassasalarida ya'ni madaniyat uylarida bajarilayotgan vazifalarning samaradorligi ularda o'tkazilayotgan va tashkil qilinayotgan tadbirlar bilan bog'liq.

Madaniy – ma'rifiy tadbirlar samaradorligi – joylarda amalga oshirilayotgan madaniy - ma'rifiy tadbirlar va tarbiyaviy ishlardan kutilgan natijaga erishilganini ifodalaydigan tushuncha.

¹³ Usmon Qoraboyev. Madaniyat masalalari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2009, 28 – 38 betlar.

Shu soha hodimlarining faoliyati va tarbiyaviy salohiyatidan unumli foydalanish darajasining ko'rsatkichi. Bu maqsadga erishish uchun ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarni ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim – tarbiya jarayonida Madaniy – ma'rifiy tadbirlar samaradorligiga ta'sir o'tkazuvchi omillarning harakat qilish mexanizmlari va xususiyatlarini aniqlash, ulardan unumli foydalanish, ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar orqali yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy – ma'rifiy tadbirlar samaradorligi yuqori bo'lishi uchun ularni tayyorlash va o'tkazish jarayonida yoshlarda tarbiya va o'zini - o'zi tarbiyalash hissini shakllantirish va rivojlantirish tashkilotchining diqqat markazida bo'lishi lozim.

“Ta'lim tizimidagi ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni madaniy – ma'rifiy tadbirlar bilan uyg'unlashtirish, bir tomondan, ta'lim samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar tayyorlash hamda o'tkazishga yoshlarni keng jalb qilish ularda tuyg'udoshlik hissini uyg'otadi va bu holat o'tkazilgan tadbirning tarbiyaviy samaradorligini yanada oshiradi”¹⁴.

Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlardan ma'naviy – ahloqiy tarbiyada samarali foydalanishning muhim sharti shuki, bunda har bir kishining xususiyatlari, muayyan voqea – hodisaga nisbatan fikri qay darajada shakllanganini hisobga olish lozim. Ta'lim muassasalarida ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil qilish, tayyorlash va o'tkazishga talaba – yoshlarni keng jalb qilish, ayniqsa, mavzu tanlash, reja tuzish, senariy tayyorlash, tadbir o'tkaziladigan xonalarni jihozlash kabi yumushlarni talabalarning o'zlariga topshirish lozim.

Madaniy – ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish o'quv yurtlarida o'tkaziladigan ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarning reja va ssenariylari professor –

¹⁴Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T., “G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi”, 2010, 314-b.

o'qituvchilar yoki o'quv yurti xodimlari tomonidan tuzilgan taqdirda ularni talabalar muhokamasidan o'tkazish va muhokama jarayonida bildirilgan fikrlarning inobatga olishga ham bog'liq.

Madaniy – ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida o'quv yurtlarining ma'naviy – ma'rifiy muassasalari bilan hamkorligini mustahkamlashning ahamiyati katta. Bunday hamkorlik, bir tomondan, tomoshabin bilan ta'minlashga, ikkinchi tomondan, ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarni ta'sirchanligini va samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Qolaversa, Madaniy – ma’rifiy tadbirlarning mazmunan milliy ma’naviy - ahloqiy qadriyatlarimiz, milliy g’oya va madaniyatimiz, ma’naviy me’rosimiz bilan uyg’un holda ham zamonaviy shakllar va interaktiv usullar asosida tashkil etilishiga bog’liq. Bularning barchasi faoliyat negiziga jamlangan madaniyat uylaridagi faoliyat bilan bog’liqdir. Biz madaniyat uylari tarmog’i va shakllanish tizimlari haqida emas balki, uning barkamol avlod tarbiyasidagi o’rni haqida mulohazalarga to’xtalamiz.

Madaniyat uylari deganda – aholining madaniy hordiq chiqarish, madaniyat va san’atga doir kasb – hunar, ilm o’rgatadigan va u bilan bevosita shug’ullanadigan hamda yoshlarni bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishga ko’maklashadigan, ma’naniy va madaniy ozuqa beradigan dargohni ko’z o’ngimizda jonlantiramiz.

Madaniyat uylarining barkamol avlod tarbiyasida tutgan o’rnini quyidagi vazifalarda ko’ramiz. Barkamol avlodni tarbiyalashda milliy g’urur va milliy madaniyatimizni ularning ongiga singdirishda eng asosiy vosita hisoblanadi. Madaniyat uylarida yaratilgan shart - sharoitlar kutubxona, to’garaklar, yosh avlodning biror kasb yoki hunar o’rganishdagi e’tiqodini shakllantiradi.

Barkamol avlod tarbiyasida yana bir muhim jihatlardan biri tashqi ma’naviy tahdidlardan asrash, ularning tafakkurini shakllantirish, globallashuv jarayonida kirib kelayotgan turli ommaviy madaniyat orqali salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan jihatlarni bartaraf etishda madaniyat uylarining o’rni beqiyosdir

Bugungi kunda madaniyat uylarining faoliyati jamoatchilikni qoniqtirmayotganligi, ko’rinib turgan holatdir. Madaniyat uylari faoliyatida biz barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan sa’y – harakatlarni eng avvalo, milliy qadriyatlarni tushuntirishimizdan boshlashimiz kerak.

Ana shundagina madaniyat uylarida tashkil etilgan to’garaklar, bolalar ansambli, shu kabi bir qator jamoaviy yo’nalishlarning faoliyati barkamol avlod o’z yo’li va kasb – koriga ega bo’lib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo’shib, yetuk shaxslar bo’lib kamol topishi shubhasiz.

Xalqimizning milliy anʼanalari, udumlari, mehnatsevarlik, halollik, mehmondoʻstlik, yaxshi qoʻshnichilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, farzandlar va ota-onalar oʻrtasidagi oʻzaro mehr-muhabbat singari qadriyatlari tiklandi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar bilan uygʻunlashib, oʻtmishdagi barcha millat va elatlarning maqsadu intilishlarining yaxlitligini, umumiyligini ifodalaydi.

Jamiyatimizda inson huquqlari faqat qonunlar bilan emas, balki xalqning oʻz-oʻzini anglashi, uning ezgulik sohasidagi ahloqiy tajribasi, mehmondoʻstligi bilan mustahkamlanadi.

Oʻzbekistonda oilalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash eng muhim insoniy qadriyatlardan biri boʻlib kelmoqda.

“Insonning eng asosiy huquqi uning tinch yashashga boʻlgan muqaddas huquqidir. Davlat va jamiyatning asosiy burchi bu huquqqa barcha imkoni bor vositalar bilan kafolat berishdir.

Ming yillar davomida shakllangan maʼnaviy va milliy qadriyatlar hozirgi davrda yaratilgan maʼnaviy boyliklar bilan qoʻshilib tanlanishi, mustaqil taraqqiyot yoʻlimizni tezlatadi, xalqimizda gʻoyaviy va maʼnaviy boylikni taʼminlashga koʻmaklashadi”¹⁵.

Bunday qadriyatlarni oʻrganish, xalqning oʻzini anglashda, uning tarixiy xotirasini tiklashda, millat qadr-qimmatini jamiyat hayotila his qilishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Insoniarvarlik bilan sugʻorilgan oʻzbek milliy qadriyatlari oʻzining chuqur tarixiy ildizlariga ega.

Uzoq asrlar davomida oʻzbeklarning turmush tarzi, mehnat faoliyati, oʻzaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanish, yaxshi qoʻshnichilik, bolajonlik ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati eʼzozlanib kelingan.

Shu sababli ham oʻzbek xalqining milliy maʼnaviyati, maʼnaviy qadriyatlarning qaysi tarmogʻiga nazar tashlamaylik, ularning zahirida chuqur

¹⁵Kamoliddin Dadaxoʻjayev. Ijtimoiy – madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. – Toshkent, 2011, 71-b.

ijtimoiy, ahloqiy ahamiyat kasb etadigan inson parvarlik g'oyalari aks etganligini ko'ramiz.

Ma'lumki, turon zaminda shaxs umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan. Shu bois ham bugun dunyoni qomusiy ilmlari bilan lol qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Al-Xorazmiy, Ahmad Yugnakiy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy kabi allomalar, betakror asarlari bilan jahon xazinasiga hissa qo'shgan Umar Hayyom, Alisher Navoiy, Jomiy va Bobur kabi mutafakkirlar shu zaminda etishib chiqqanlar.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatda qadriyatlardan foydalanishda quyidagi tamoyillarga rioya etish kerak:

1. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi.
2. Uyg'unlashgan milliy qadriyatlarni tiklash va saqdash.
3. Barkamol shaxs tarbiyasidan ibrat olish.
4. Ma'naviy targ'ibot vositalari orqali zamonaviy qahramon obrazini yaratish.
5. Tarbiya jarayonlarida oila, mahalla, "maktab madaniyat muassasasi" birligiga erishish.

Yuqoridagi tamoyillarga asoslangan vazifalar asosida madaniyat uylarida bajarilayotgan ishlar samarali va aktual bo'lishini hisobga olib, quyidagi xulosaga keldik. Madaniyat uylarining barkamol avlod tarbiyasiga ta'sirini kuchaytirishning asosiy qirralari u yerdagi faoliyatning moderniazatsiya jarayoniga moslashtirish, va aholi qiziqishini orttirish, tizimli va bir maromda ishlash orqali ortiqcha daromad orttirish yo'llarini o'ylab topgan holda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, eng asosiy vazifalar hisoblanadi

II.II Aholi ijtimoiy faolligini

Aholini ijtimoiy faolligini oshirish borasida olib borilayotgan amaliy vazifalar bugungi kunning ko'zga ko'rinarli jihatlaridan hisoblanadi. Biz bunga alohida to'xtalishdan avval ijtimoiy faollik so'ziga izoh berishimiz zarur.

“Ijtimoiy faollik- sub’ektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ma’lum ijtimoiy ma’naviyat sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakatdir”¹⁶.

Sub’ekt sifatida shaxs, ijtimoiy guruh, qatlam, umuman jamiyat bo’lishi mumkin. Ijtimoiy faoliyat ijtimoiy ongning shakllanishiga oid fundamental tushuncha bo’lib, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biridir. Aholini ijtimoiy faolligini oshirishda siyosiy, iqtisodiy, yo’nalishlar bilan bir qatorda madaniyat va ma’rifatning o’rni ham alohida ahamiyatga egadir

Mustaqillik sharoitida ma’naviy islohotlar zamirida madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyati tubdan o’zgardi, yangi mazmun kashf etdi, shaklan kamol topdi. Bu o’zgarishlar istiqlool bergan imkoniyatlar asosida sodir bo’ldi. Zero, bu sohani yangilanishi tarixiy zarurat edi.

Sho’rolar davrida madaniy-ma’rifiy muassasalar xalq manfaatlariga xizmat qilish o’rniga, zo’raki ravishda kommunistik g’oyalarni targ’ib qilish maskanlariga aylantirilgan edi.

Mustaqillik sharoitida esa madaniy-ma’rifiy muassasalar xalqning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy an’analarini tiklash, xalq ijodini ravnaq toptirish, yangi milliy mafkurani targ’ib etish maskaniga aylandi.

Mustaqillik tufayli respublikamizda milliy-ma’naviy tiklanish davlat siyosati darajasiga ko’tarilgandan so’ng, madaniy-ma’rifiy muassasalar xalq ma’naviyati kamoloti yo’lida xizmat qilish imkoniyatlariga ega bo’ldi.

Prezidentimiz farmoni asosida respublikamizda "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi (hozirgi ma’naviyat va ma’rifat kengashi markazlari) va uning tarmoq tizimlarining vujudga kelishi madaniy-ma’rifiy muassasalar (jumladan, klublar, madaniyat uylari, madaniyat saroylari, madaniyat va istirohat bog’lari, madaniy komplekslar, axborot-texnologiya markazlari, kutubxonalar, muzeylar) faoliyati jiddiy yangilanishiga turtki bo’ldi.

Eng muhimi ma’naviyat va ma’rifat rivojiga davlatning bosh vazifasi deb qarash bu soha faoliyatini yangidan ravnaq topishiga asos bo’ldi.

¹⁶ Falsafa insiklopedik lo’g’at. “O’zbekiston milliy insiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti”, -T, 2010, 126-b.

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida milliy ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanish asosiy soha bo'lgani sababli, madaniyat muassasalari komil insonni tarbiyalash jarayoniga o'zining munosib hissasini qo'shishga ma'so'l hisoblanadi, chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, uni ahloqiy jihatdan barkamol qilmasdan turib rivojlanish muammolarini hal etish mumkin emas. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish fuqarolarning ma'naviy-ahloqiy kamolotiga, imon-e'tiqodiga, goyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo'ladi. Xalq orasida, turar joylarda madaniy-ma'rifiy faoliyat olib boruvchi muassasalarning bu ishlarni amalga oshirishda o'ziga xos imkoniyatlari mavjud edi.

Shu narsani e'tiborda tutish kerakki, madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan joylarda va muayyan aholi qatlamlariga xizmat ko'rsatadi. Shu boisdan ham madaniyat muassasalari muayyan regionning asosiy madaniyat markazi, ma'rifat va mazmunli dam olish maskani sifatida xalq ijodini kamol toptirishda, bayram va sayllarni uyushtirishda keng imkoniyatlarga ega ma'naviy-mafkuraviy tashkilotlar sifatida xizmat qilmoqdalar.

“Madaniyat muassasalari kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, shaxs ma'naviyatini har tomonlama rivojlantirish va ularning ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish jarayonlarini uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi shaklida amalga oshiradi. Shuningdek, ular joylarda mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ham davlat, partiyalar, yoshlar uyushmalari, kasaba tashkilotlari va ko'ngilli jamiyatlarning tayanch-tarbiyaviy markazi sifatida ham faoliyat olib boradilar”¹⁷.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat ko'p qirrali jarayon bo'lganligi sababli ijtimoiy hayot, ijtimoiy ong va jamoatchilik fikrining deyarli barcha sohalari bilan chambarchas bog'liqdir.

¹⁷ Usmon Qoraboyev. Madaniyat masalalari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2009, 68-70 betlar.

Madaniyat muassasalari mehnatkashlarning asosan bo'sh vaqtlari jarayonida faoliyatlarini amalga oshirishlari sababli jamoatchilik fikrini tarkib toptirishda samarali natijalarga erishish imkoniyatlariga egadir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar ajdodlarimiz yaratgan boy madaniy meros, xalq ma'naviyati durdonalari va an'analarini tiklash, rivojlantirish, targ'ib qilish ishlariga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Ular bir tomondan aholi turli qatlamlarini madaniyat namunalaridan bahramand bo'lishga sharoit yaratib bersa, ikkinchi tomondan, kishini madaniy hayotini bevosita yaratuvchisiga aylantirishga ham da'vat etadi, uchinchi tomondan esa insonning to'laqonli madaniy qiyofasi, xulq-atvori, odobi va ahloqining umuminsoniy va milliy andoza, talablar doirasida shakllanishiga undaydi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehnat jamoasi, ko'ngilli uyushmalar, oila va shaxs hayoti oldida turgan ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga va turli ijtimoiy-madaniy muammolarni yechishga ham imkoniyat izlaydi. Zero, mehnatkash xalq turmush tarzini boy ma'naviy mazmun bilan to'ldirish, badiiy bezashga ko'maklashish muhim ijtimoiy masalalardir.

Respublikamiz madaniyatshunos olimlari, madaniy-ma'rifiy soha nazariyotchilari, soha amaliyotchilari bilan hamkorlikda tarixiy an'analar mustaqillik mafkurasi, ma'naviy yangilanish ehtiyoji, bozor iqtisodiyoti xususiyatlari, aholining talab va ehtiyojlari, amaliy tajribalar negizida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining nazariy asoslari, jumladan, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini ishlab chiqmoqdalar. Unga muvofiq mustakillik sharoitida madaniy – ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadilar:

- aholi o'rtasida muayyan ijtimoiy-madaniy, mafkuraviy, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;
- xalq havaskorlik ijodini ravnaq toptirish;
- ommaviy tadbirlar, marosimlar, bayramlar, sayllar o'tkazish vositasida yalpi ijtimoiy kayfiyat yaratish, jamoatchilik fikriga eltuvchi umumiy holatni yuzaga keltirish;

- jamoaviy fikr generatorlari lider shaxslar, baobro' kishilar, oqsoqollar faoliyatini istiqlol yo'lini mustahkamlash ishiga safarbar qilish;
- mehnatkashlarning madaniy dam olishini tashkil qilish;
- aholi turli qatlamlari vakillarini ijtimoiy foydali faoliyatlarni amalga oshirish uchun ularni estetik qiziqishlari asosida uyushma va tashkilotlarga birlashtirish.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning maqsadi aholining bo'sh vaqtini uyushtirish jarayonida kishilarning madaniy ehtiyojlarini qondirish va ularni ma'naviy boyitishdan iboratdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining bosh vazifasi kishilarning madaniy, ma'rifiy, ijodiy faoliyatlari, hordiq olishlari uchun sharoit va imkoniyat yaratib berish.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholining madaniy dam olishini uyushtirish;
- kishilarni ma'naviy-ma'rifiy boyitish, intellektual saviyasini oshirish;
- ommaning ijodkorligi va tashabbuskorligini taraqqiy ettirish;
- milliy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlarimizni e'zozlash, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizni avaylab saqlash va yanada rivojlantirish;
- xalqning milliy ongini, o'z-o'zini anglash darajalarini oshirish;
- aholiga yangi va rang-barang axborotlar berib turish;
- nogironlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar va yolg'izlarga ma'naviy yordam ko'rsatish.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar quyidagi tamoyillar asosida ish olib boradi:

- hayotiylik va haqqoniylik;
- xalqchilik, milliylik va umuminsoniylik;
- ommaviylik va ixtiyoriylik;
- ilmiylik va ijodkorlik

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati mazmunida insonparvarlik ahloqiylik imon-e'tiqodlilik, farosatlilik, ma'rifatparvarlik, halollik va odillik, vatanparvarlik va millatsevarlik, birodarparvarlik, baynalminallik, mehnatsevarlik, xurfikrlilik, taraqqiyparvarlik kabi insoniy fazilatlar o'z aksini topadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatida quyidagi ish shakllaridan foydalanadi: ma'ruza, doklad, ilmiy va ijodiy konferentsiya, munozara, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy bahslar, dam olish kechalari, mavzuli kechalar, o'tkir zehnlilar bahslashuvlari, teatrlashgan kontsert, ommaviy tomosha, marosim, sayl, bayram, festival, ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar, sayohat, madaniy sayr, ekskursiyalar, olimpiada, qiziqarli o'yinlar, badiiy-sport tadbirlari, targ'ibot-tashviqot guruhlar, chiqishlari, badiiy havaskorlik to'garaklari uyushmalari va hokazolar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z ish faoliyatida quyidagi vositalardan foydalanadi:

- jonli so'z, xujjatli manbalar, matbuot va hokazo.
- badiiy vositalar (badiiy so'z, mo'siqa, raqs, teatr, adabiyot).
- tasviriy vositalar (taklifnoma, e'lon, dastur, afisha, buklet, dastur, emblema, baner va xokazolar).
- texnik vositalar (radio, TV, audio, video, texnogen apparaturalar, elektron axborot vositalari) va boshqalar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatida quyidagi usullardan foydalanadi:

- Tarbiyaviy usullar ibrat, ishontirish, namuna, taqdirlash, tanqid qilish.
- Ma'rifiy usullar o'rganish, bayon qilish, mashq, namoyish.
- Tashkiliy va faollashtirish usullari.

Madaniy-ma'rifiy muassasalari:

- jamoa va davlat tashkilotlari, kasaba uyushmalari,
- ommaviy axborot vositalari,
- diniy tashkilotlar,
- o'quv yurtlari,
- harbiy-mudofaa qismlari,
- san'at muassasalari,
- sport va dam olish maskanlari,
- turizm tashkilotlari kabilar bilan hamkorlikda madaniy-ma'rifiy faoliyat olib borishlari mumkin.

Madaniy - ma'rifiy muassasalar faoliyatining mustaqillik davridagi ijobiy o'zgarishlari.

Ma'lumki, sho'rolar davridagi madaniy-ma'rifiy muassasa faoliyatining asosiy maqsadi kommunistik mafkurani keng xalq ommasiga singdirib borishdan iborat edi. Istilochilarning maqsadi o'z mustamlakasidagi xalqlarning ma'naviy o'zligini yo'q qilish, uni siyosiy yakka mafkura kommunistik goyaga bo'ysundirish bo'lib, mustaqil fikrlovchi millat vakillarini qattiq qoralashdan iborat edi.

Mustaqillik sharofati bilan madaniy-ma'rifiy muassasalar milliy g'oya, o'zlikni anglash kabi masalalarga alohida e'tibor berishmoqda. Hozirgi kunda bu faoliyatning goyasi o'zligini anglagan, ma'naviy barkamol va ma'rifiy yetuk komil insonni tarbiyalashga, milliy o'zligiga, erkiga va haq-huquqlariga to'laqonli ega bo'lgan millat va xalq ommasiga xizmat qilishdan iboratdir..

Madaniy-ma'rifiy muassasalar madaniy meros, milliy qadriyatlar, xalq an'analarini tiklashda "Navro'z" bayrami, "Mustaqillik" kuni, "Hayit" kunlari kabi diniy va xalq bayramlarini tashkil qilishda muhim o'rin tutmoqda. Xalqning dardlari, qiziqishini o'rganish, insonparvarlik haqqoniylik milliylik kabi tamoyillar madaniy-ma'rifiy ishlar mezonini bo'lib qolmoqda.

Keyingi yillarda respublikamizning qator viloyatlari (jumladan, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Xorazm) madaniy-ma'rifiy ishlarga jiddiy e'tibor bera boshlashdi. Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari (klublar, kutubxonalar, muzeylar, istirohat bog'lari kabilar) aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda o'ziga xos xususiyatlar asosida turli usullar, shakllar va vositalar yordamida faoliyat olib boradilar.

Klub muassasalari (klublar, madaniyat uylari va saroylari) mahalliy joylarda aholining bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, madaniy faoliyat bilan shug'ullanish, ijodkorlikni oshirish, bilim saviyasini boyitish va ma'naviy kamol topishiga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalariga ilmiy-uslubiy yordam berish vazifasini "Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik

markazi" bajarmoqda. Bu markaz respublika darajasidagi yirik madaniy-ommaviy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, festivallar o'tkazmoqda.

Mazkur markaz boshchiligida madaniy-ma'rifiy muassasalar muammolariga oid ilmiy-amaliy anjumanlar, seminar-yiginlar, ilg'or tajriba targ'ibotlari, sotsiologik tadqiqotlar, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilmoqda va bu sohaning ravnaqiga o'z hissasini qo'shmoqda. Mustaqillik sharoitida bu tizim vakillari joylarda sho'rolar davrida ta'qiqlangan xalq an'analari, milliy marosimlar, bayramlar va xalq ijodi turlarini tiklash va targ'ib qilishga o'zining munosib hissalarini qo'shishmoqda. Shuningdek, ular zamonaviy havaskorlik san'ati namunalarini ravnaq topishiga faol yordam berishmoqda.

O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalari keyingi davrda bolalar ijodiga alohida e'tibor bermoqda. Respublika klub muassasalarida 6 mingga yaqin bolalar jamoalari ishlab, ularda 200 mingga yaqin yosh avlod vakillari qatnashishmoqda.

Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufida Respublika bolalar badiiy ijodiyoti markazi mavjud. Markaz mintaqada yashab ijod qilayotgan qobiliyatli bolalarni izlab topib, ular ijodini targ'ib qilish, tasviriy va xalq amaliy san'atini turli yo'nalishlari bo'yicha kasb-hunar o'rgatish bilan shugullanadi.

Madaniyat va istirohat bog'lari Vatanimizda an'anaviy tabiiy-madaniy maskan sifatida azaldan mashhur bo'lib kelgan. Hozir ham bu go'zal maskanlar ko'pchilikning sevimli madaniy dam oladigan joylari hisoblanadi. Endilikda xalqimizning madaniy bog'dorchilik an'analari qayta tiklanmoqda. Madaniyat va istirohat bog'larida ajdodlarimiz tajribalari asosida gulzor, xiyobon, chorbog' yaratish an'alaridan foydalanilmoqda.

Respublikamizda nafaqat tarixda mashhur bo'lgan bog'lar, masalan, Samarqanddagi Amir Temur bog'lari tiklanmoqda, shuningdek Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi milliy bog' kabi mashhur yangi bog'lar barpo etilmoqda. An'anaviylik va zamonaviylikni o'yg'unlashtirgan yangi bog'lar Namangan, Farg'ona, Xorazm va boshqa viloyatlarda ham vujudga kelmoqda.

Respublikamizdagi 120 dan ortiq bog'larning 3/4 qismi, ya'ni 90 tasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida faoliyat ko'rsagmoqda. **Axborot-texnologiya**

markazlari va kutubxonalar - aholini yangiliklar bilan tanishtirishga, ularning bilimdonligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Kutubxonalar - Vatanimizda yozma yodgorliklar saqlanadigan joy sifatida qadim zamonlardan paydo bo'lib, hozirgi kunda bilimga chanqoq aholi qatlamlarini adabiyotlar bilan ta'minlovchi madaniy, ilmiy-ma'rifiy muassasalar sifatida xizmat qilmoqalar. Kutubxonalar eng ezgu xizmat- ommaga kitoblar yordamida bilim tarqatish bilan shugullanishmoqda. Ularning asosiy vazifalari adabiyotlarni yig'ish, saqlash va o'quvchi - talaba yoshlarga yetkazib berish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kutubxonalarning moddiy-texnik bazasi bir muncha zaiflashgan bo'lsa-da, keyingi yillarda respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar natijalarida ular sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat kutubxonasi O'zbekistonning barcha kutubxonalari uchun ilmiy-uslubiy markaz hisoblanadi. U respublikamizdagi eng katta kitob uyi bo'lib, uning umumiy fondi 5 millionga yaqin nushani tashkil qiladi. U har yili kutubxonalarga 2 millionga yaqin kitob tarqatadi. Kutubxonalarning umumiy soni 40 mingga yaqin.

Muzeylar - tarixiy, tabiiy, moddiy, ma'naviy yodgorliklarni maxsus e'tibor berib to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ilmiy-ma'rifiy muassasalari sifatida mustaqillik sharoitida munosib ravnaq topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini yaxshilash va takomillashtirish to'g'risidagi (1998 yil, 12 yanvar) farmoni O'zbekistonda muzeylar faoliyati va tizimini yanada takomillashtirish, ularning kishilarni ahloqiy kamolotidagi o'rnini oshirish, tarixiy merosni asrash, o'rganish va targ'ib qilish, muzeylardan milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuygularini shakllantirish yo'lida foydalanish, ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kabi ishlarni amalga oshirishga zamin bo'lmoqda.

Respublikamizda hozir 50 ga yaqin muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqillik davrida Toshkentda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar davri davlat muzeyi, Andijonda "Bobur" yodgorlik kompleksi, Buxoroda Bahovuddin Naqshband, Chelak tumanida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi,

Quvada "Shahriston" tarixiy-me`morial majmuasi kabilar yaratildi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona davlat muzey - qo'riqxonalari ta'mirlandi. Xaq amaliy san'ati muzeyi, O'zbekiston davlat san'at muzeylari boyitilmoqda. Bunday ishlarning natijasida xalqimizning tarixiy xotirasi tiklanmoqda, millatimiz o'zligini anglamoqda, kecha u kim bo'lgani va ertaga kim bo'lishi haqida o'ylashga imkon yaratilmoqda.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining hozirgi shakllari va mazmunini istiqlol yo'lidan odimlayotgan O'zbekiston xalqi ma'naviy hayoti, tarixiy-madaniy tajribasi, turmush tarziga, xalq ma'naviy muhitiga yanada muvofiqlashtirish, mavjud imkoniyatlardan va jahon tajribasidan keng foydalanish ma'naviyatimizni ravnaq toptirish yo'lidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Shuning uchun madaniy ma'rifiy muassasalar majmuiga kiruvchi madaniyat uylari faoliyati tarmog'ini kengaytirish unda faoliyat olib borayotgan hodimlarning bilim va saviyasini qayta tekshirib, yanada chuqurlashtirish moddiy texnik ba'zasini boyitish muhimdir.

Biz madaniyat uylari va madaniyat saroylari deganda alohida tushuncha va mohiyatga ega bo'lgan madaniy targ'ibot markazini anglashimiz kerak. Har bir jamiyatda yuzaga keladigan muammo va uning yechimlari unda olib borilayotgan islohotlarning to'g'ri bajarilishiga bog'liq, bu esa zarurat tug'iladigan vazifalarni oldimizga qo'yaveradi. Shunday ekan bugungi kunda jamiyat rivojlanishi inson ehtiyojlarining qondirilishi va uni har tomonlama rivojlantirilishiga bog'liq. Ijtimoiy-madaniy muassasalar inson ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda muhim o'rin tutadi.

Ayrim ijtimoiy-madaniy muassasalar tizimiga mansub kishilarning soni kamligi birinchi navbatda, ularning ehtiyoj va qiziqishlari o'z faoliyatiga to'g'ri kelmasligidadir. Ijtimoiy-madaniy muassasa hodimlari aholi yoki guruhlarining talab, qiziqish va ehtiyojlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Bu, avvalo, muassasaning o'z faoliyati sohasida aholiga kam ma'lumot yetkazayotgani uchundir. Natijada, qiziqish, ehtiyojlarga ega bo'lgan aholi madaniyat muassasalarida o'zlari uchun kerakli, qiziqarli mashg'ulotlar yo'q degan fikrda

yuradilar, ko'p hollarda u yerdan kutganini topa olmaydilar va ular targ'ib qilayotgan tadbirlarda qatnashmaydilar.

Shuning uchun, aholining ehtiyoj va qiziqishlarini o'rganish ijtimoiy madaniy faoliyatning mazmun, usul, shakl va vositalarini aniqlashda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir.

Ijtimoiy-madaniy muassasalarning xususiyatlaridan biri unga ixtiyoriy ravishda tashrif buyurish hamda dam olishni mazmunli o'tqazishdir.

Ijtimoiy-madaniy muassasa hodimining vazifasi qatnashuvchining qiziqishi va ehtiyoj mazmunini aniqlab, unga yuqori malakali madaniy xizmat ko'rsatishdir.

Inson doimiy ravishda tashqi dunyo bilan aloqada bo'lib, undan o'zi uchun muhim narsalarni olishga harakat qiladi. Ehtiyojlarni qondirish yo'lida albatta, inson muloqotga muhtoj bo'ladi va ehtiyoj inson faolligining omili bo'lib uni faoliyatga chorlaydi.

Bu holat inson faolligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning faoliyati uning xulq-atvori talablari asosida shakllanishi mumkin. Insondagi dangasalik yoki mazmunsiz vaqt o'tkazish holatlarini uning ichki dunyosi hamda tashqi ta'sirning uygunlashuvi natijasida bartaraf etish mumkin.

Shunda maqsadga intilish, irodalilik prinspiallilik va biron bir maqsadga erishish istagi va qaror paydo bo'lishi mumkin.

Ehtiyojning paydo bo'lishiga va uning qondirilishiga ma'lum bir hissiy holatlar ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Ehtiyojlarni bir necha guruhlariga bo'lish mumkin. Inson ehtiyojlari ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit va madaniy ehtiyojlar ta'sirida shakllangan. Ehtiyojlar moddiy va ma'naviy ko'rinishlarga ega. Moddiy ehtiyojlar inson hayoti uchun kerak bo'ladigan narsalarni qondirishga qaratilgan ehtiyojlardir: oziq-ovqat, uy jihozlari, kiyim-kechak hamda ishlab chiqarish va ishlatish uchun kerakli bo'lgan buyumlar (ishlab chiqarish vositalari, transport va boshqalar).

Funksional va ma'naviy ehtiyojlar uchun muhim bo'lgan moddiy predmetlar alohida guruhni tashkil etadi. Masalan, kitoblar, musiqa asboblari va texnik jihozlar, sport anjomlari,

bularning hammasi mazmunan ma`naviy (madaniy) ehtiyojlarni qondirishga qaratilgandir. Ma`naviy ehtiyojlarni quyidagilar tashkil etadi:

- bilim olish (intellektual) bilimlarni egallash va ulardan ilmiy faoliyat jarayonida foydalanish ;
- estetik-badiiy va boshqa estetik qadriyatlarni yaratish va anglash;
- ahdoqiy-odobiy madaniyatga ega bo'lish va ularni hulq-atvorda namoyon etish.

Insonlar bilan muloqotda bo'lishga qaratilgan sotsiogen ehtiyojlar ham ma`naviy ehtiyojlarning tarkibiga kiradi. Sotsiogen ehtiyojlarga:

- kommunikativ axborot, fikr va his-tuyg'u almashuv ehtiyoji;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muloqot jamoa va jamoat tashkilotlar faoliyatida qatnashish;
- his- hayajonli ahamiyatga ega munosabat - do'stlik muhabbat, oila qurish;
- o'z mavqei va o'rniga ega bo'lish atrofdagilarning hurmati va e'tiboriga sazovor bo'lish va u yoki bu sohada mavqe va yutuqlarga ega bo'lish.

Yuqoridagi barcha ehtiyojlar inson va jamiyat uchun muhim bo'lgan universal ahamiyatga ega bo'lgan ehtiyojlar bilan aloqadordir.

“Ijtimoiy-madaniy tadbirlarda qatnashish yoki biron-bir ma`ruzani tinglash orqali ehtiyojlar qondirilmoqda, deyish to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun, odamlarning u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishlari maqsadli bo'lishi kerak.

Ayrimlar uchun yuqoridagi tadbirlarda qatnashish orqali estetik ehtiyojlarni, bodnetlar uchun bilim olish va uchinchilar uchun ma`naviy ehtiyojlarni qondirish bo'lishi mumkin”¹⁸.

Faoliyat motivlari ehtiyojlarni aniqlash, faoliyat turini tanlash uchun yordam beradi. Madaniyat muassasasiga madaniy tadbirlar qilishdan maqsadni bilish uchun sotsiologik tadqiqotlarni so'rov usulidan foydalanib, biron-bir tadbirdan so'ng

¹⁸ Qodirova Sh. Ijtimoiy – madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. –Toshkent. 2011, 84-b.

qatnashuvchilarga quyidagi anketa savollari bilan murojaat etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadbirdan qoniqdingizmi?

Yangi ma'lumot oldingizmi ?

Bilimlaringizni chuqurlashtirish xohishi paydo bo'ldimi?

Tadbir his-tuyg'ularingizga ta'sir etdimi?

Odamlarimiz bilan g'ururlandingizmi?

Faol mehnat qilish istagi uyg'ondimi?

Jamoat ishida faol qatnashish istagi paydo bo'ldimi?

Boshlovchi hamda mehmonlarning chiqishi yoqdimi?

Tadbirda tanlangan musiqa asarlari ma'qul bo'ldimi?

San'atkorlarning ijrochilik mahorati yoqdimi?

Sahna bezatilishi tadbirning mavzusiga mosmi?

Taassurotlar bilan uyda , ishxonada fikrlashasizmi?

O'zingizni tadbir ishtirokchisi sifatida sezdingizmi?

Tadbir qiziqarli bo'ldimi?

Yaxshi dam oldingizmi?

Ushbu savollar orqali qatnashuvchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Tadbirlarni shunday tashkil qilish kerakki, qatnashuvchida o'zi uchu biron-bir yangilikka ega bo'lish imkoniyati yaratilsin.

Ijtimoiy-madaniy ishlarning muhim vazifalaridan biri bu madaniy-ma'naviy sohada odamlarni igg faolligini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

Ehtiyojlar turlicha bo'lib, faoliyat jarayonida rivojlanib boradi (mehnat, o'quv, dam olish). Madaniy ehtiyojlar ijtimoiy-madaniy faoliyat usul va shakllari orqali qondirilishi mumkin.

Masalan, bilim olish va intellektual ehtiyojlarni mavzuli kechalar, uchrashuvlar (olimlar. aktyorlar. meditsina hodimlari va h k), intellektual o'yinlar, ilmiy, xujjatli videofilmlar muhokamasi, bilimdonlar klub uyushmalari, turistik

sayohatlar, ekologiya, iqtisod va boshqa sohalarga oid suhbatlar tashkil etish orqali, estetik ehtiyojlarni kontsert va spektakllarga borish va ularni muhokama qilish, badiiy asarlar ko'rgazmasi, havaskorlik jamoalarida qatnashish, atrof-muhitni estetik jihozlash, musiqali dam olish dasturlarini tashkil etish, muzey va san'at ko'rgazmalariga tashrif buyurish orqali, muloqotga bo'lgan ehtiyojlarni ijtimoiy-malaniy faoliyatning barcha shakl usullaridan foydalanish turli xil ko'rik-konkurs, ommaviy bayramlar o'tkazish orqali qondirish mumkin.

Funksional ehtiyojlarni harakat o'yinlari, intellektual o'yin, sport bilan shug'ullanish orqali qondirishning ayricha ahamiyatini belgilagan holda biz ayni vaqtda faoliyat olib borayotgan madaniyat uylari sobiq ittifoq davridagi holati, ya'niy ma'lum darajadagi tarixi mustaqillikdan so'ng olib brilgan ishlari va bugungi kundagi vazifalari haqida gapirib o'tishimiz zarur bo'ladi.

Xulosa

Insoniyat qanday yutuqlarga erishgan bo'lsa, eng avvalo madaniyat tufaylidir. Agar u madaniyatdan mahrum qilinsa, hayvonot dunyosidan hech qanday farqi qolmaydi. Inson madaniyatni yaratdi, madaniyat esa insonni kamolga yetkazdi.

Insoniyat qanchalik taraqqiy etsa, unga shunchalik darajada yuqori madaniyat kerak bo'ladi. Biroq, shu bilan birgalikda biz madaniyatni

ma'naviyatsiz tasavvur eta olmaymiz. Jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir.

Biror bir mamlakat o'z ma'naviy mikoniyatlari odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay, va mustahkamlamay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Shuning uchun ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi jamiyat taraqqiyotining yetakchi omillaridan hisoblanadi.

Uni rivojlantirishda eng asosiy omillardan biri ijtimoiy – madaniy faoliyat taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Ijtimoiy – madaniy faoliyat taraqqiyoti negizida ma'naviyat va ma'rifat asosiy o'rinni egallaydi. Shu o'rda prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltiramiz. **“Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga, ularni hal qilish mumkin xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma'naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasida ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota – bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda”.**

Mustaqillik yillarida boy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy madaniyatimizni jahon sivilizasiyasiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz merosi o'zimizga qaytarildi.

Biz yuqorida ta'kidlagan va bergan tavsiyalarimiz asosida shuni xulosa sifatida qayd etamiz. Har bir muassasa, har bir o'quv yurti olib borayotgan faoliyati va tayyorlayotgan kadrlari o'zining mutaxassisligiga doir aniq fanlar yuzasida va yo'nalishidan chetga chiqmagan holda kerakli bo'lgan bilimlarni berilishi ya'ni madaniyat va san'at kollejlari madaniyatshunoslar jalb etilib, madaniyat va ma'naviyatning targ'iboti madaniyatshunoslik fanlari orqali o'rgatilmasa, kadrlarning yuksak saviyali bo'lib yetishishi mumkin emas.

Fikrimizning so'ngida Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag – tomirigacha nazar tashlaymiz”¹⁹.

¹⁹ Islom Karimov. Adolatli jamiyat sari. T., “O'zbekiston”, 1988, 49- b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch, T., 2008.
2. Karimov I. A., O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, T., 1996.
3. Karimov I. A., Istiqlol va ma'naviyat, T., 1994.
4. Karimov I. A., Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, T., 1998.
5. Karimov I. A., Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz, T., 2001.
6. Karimov I. A., O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, T., 2000.
7. Abduholiqov S., Madaniyat tarixi va uning masalasi, T., 1992.

8. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1-jild, T., 1998.
9. Avesto, Tarixiy – adabiy yodgorliklar (Asqar Mahkam tarjimasi), T., 2001.
10. Ajdodlar o'giti, T., 1993.
11. Asqarov A., O'zbekiston tarixi, T., 1994.
12. Asqarov A., O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, T., 2007.
13. Atamurodov S., Xusanov S., Rametov J., Ma'naviyat asoslari, Ma'ruza matnlari, T., 2000.
14. Ashirov A., "Avesto" dan meros marosimlar, T., 2001.
15. Ashirov A., O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari, T., 2007.
16. Ashirov A., Ahmadjonov Sh., Etnologiya, T., 2007.
17. Axmedov B., O'zbek ulusi, T., 1992.
18. Alisher Navoiy, Tanlangan asarlar, 13 – jild, T., 1966.
19. Erkayev A., Ma'naviyat – millat nishoni, T., 1997.
20. Erkayev A., Milliy g'oya va ma'naviyat, T., 2002.
21. Erkayev A., Ma'naviyat va taraqqiyot, T., 2009.
22. Boynazarov F., Antik dunyo, T., 1983.
23. Jabborov I., O'zbek xalq etnografiyasi, T., 1994.
24. Jabborov I., Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi, T., 1999.
25. Jalolov A., XXI asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti, T., 1991.
26. Jumanioyozov R., Xalq ijodiyoti – xaq ijod, T., 1992.
27. Jo'rayev M., Ipak yo'li afsonalari, T., 1993.
28. Ziyoyev A., O'zbek davlatchiligi tarixi, T., 2000.
29. Imom Ismoil al-Buxoriy, Al – adab al – mufrad (adab durdonalari), T., 1990.
29. Imomnazarov M., Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar, T., 1998.
30. Karimov B. R., Millat, inson va til: taraqqiyot muammolari, Qarshi: Nasaf, 2003.
31. Mavrulov A., Ma'naviyatni sog'lomlashtirish davri, T., 1996.
32. Mavrulov A., Gulmetov E., Qobiljonova T., Ernazarov Sh., Madaniyatshunoslik, Ma'ruzalar matni, T., 2000.

33. Madaniyat va jamiyat, T., 1993.
34. Madaniyatshunoslik, Ma'ruzalar matni, T., 2000.
35. Mallayev N., O'zbek adabiyoti tarixi, T., 1976.
36. Mahmudov T., "Avesto" haqida, T., 2000.
37. Mahkamov I., Axloq – odob saboqlari, T., 1994.
38. Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'otit turk, T., 1963.
39. Mahmudov R., Huquq va madaniyat, T., 1964.
40. Mahmudov M., Ahli dil (Ma'naviy olam sirlari). T., 1997.
41. Mahmudov T., Mustaqillik va ma'naviyat. T., 2001.
42. Ma'naviyat asoslari, T., 2000.
43. Mustaqillik ilmiy - ommabop lug'at, T., 1998.
44. Тайлор Э., Первобытная культура, М., 1989.
45. Тимошинов В. И., Культурология, Алмата, 1997.
46. Теория и история культуры, Т., 1992.
47. Temur tuzuklari, T., 2001.
48. O'zbekiston tarixi ba madaniyati, T., 1992.
49. O'zbekiston san'ati, T., 2001.
50. Farobiy, Fozil odamlar shahri, T., 1993.
51. Uyg'onish davri va sharq mutafakkirlari, T., 1985.
52. Firdavsiy, Shohnoma, T., 1986.
53. Yusupov E., Ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti, Xo'jand, 1996.
54. Yusupov E., Ismoilov F., Inson barkamolligi, T., 1990.
55. Yusupov E., Komil insonning ma'naviy asoslari, T., 1988.
56. G'oyibov N., Amir Tetur davri ma'naviyati, T., 2001.
57. G'ofurov Z., Mustaqillikning ma'naviy zaminlari, 1994.

Internet saytlari

www.gov.uz

www.Lex.uz

www.ziyonet.uz

www.edu.uz

www.bilim.uz

www.google.uz

www.Vikipedia.ru

www.psyfactor.org

www.utro.ru

www.eso-online.ru/netradicionnaya reklama/roli reklamy

www.reclamca.ru

www.nrtm.ru

**Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat
instituti “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi 2- kurs
magistranti Boysunov Jonbekning “Ma’naviyatni anglash –
ijtimoiy madaniy faoliyat takomillashuvining omili”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar
xulosasi**

Boysunov Jonbekning magistrlik dissertatsiyasi kirish, **III- bob**, **VI- paragraf**, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.dissertatsiyaning **I- bobida** ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyoti ma’naviy ehtiyojni shakllantirish omillari uning jamiyat taraqqiyotidagi roli haqida fikr mulohazalar bildirilgan

bo'lsa, **II** – bobida uni targ'ib etuvchi va shakllantirishda muhim sohalardan biri ijtimoiy – madaniy faoliyat tarixi va nazariyasi haqida bayon etilgan.

Ma'limki bugungi kunda ijtimoiy – madaniy faoliyat sohasi sobiq ittifoq davridan mutloqo farq qilib, erkin islohatlar olib borilishi natijasida alohida fan tizimi asosida shakllantirilib, oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda.

Dissertatsiyaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, unda ijtimoiy – madaniy faoliyatning o'zi nima ekanligi va uning fenomeni ko'rsatib berilgan hamda, tarixiy dalillar bilan ilmiy asoslangan. Bu esa, har jihatdan bajarilgan ishning saviyasining oshiradi. Ijtimoiy – madaniy faoliyat juda keng qamrovli faoliyat bo'lib, uning bir qirrasini – madaniyat uylari misolida izohlab berilishi, dissertatsiyaning **III – bobida** to'la qonli asoslagan.

Har bir bajarilgan ish, o'z mazmun mohiyati jihatidan amaliy asosga ega bo'lishi lozim. Binda esa madaniyat uylarining bugungi kundagi ahvoli va o'tmishi, faoliyat tizimi hamda uning barkamol avlod tarbiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri, kelajakda bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar borasida o'tkazilgan tadqiqotning natijalari muhimdir.

Barkamol avlodga ma'naviy qadriyatlarni singdirish, jamiyat taraqqiyotida muhim shaxslar qilib tarbiyalash, mafkuraviy tahdidlardan asrash, bugungi kun globallashuv jarayoning aktual muammosi bo'lgani uchun, buni o'rganish va bartaraf etish chora - tadbirlarini ishlab chiqish, madaniyat muassasalari xususan madaniyat uylari vazifalaridan hisoblanganligi uchun, dissertant ushbu masalalardagi kamchilik va muammolarni izohlab berishga harakat qilgan va o'zining ilmiy salohiyati va imkoniyatidan kelib chiqqan holda tavsfiyalar berga.

Umuman olganda dissertatsiya me'yoriy talablarga javob beradi. Biroq ju'ziy xatolardan holi emas. Bunga ijtimoiy – madaniy faoliyat tarixi va nazariyasi bobini yoritishda, juda kam manbaalardan foydalanganligi bois, muayyan darajada bobni yoritishga harakat qilingan. Yana bir kamchilik bu unda imloviy xatolarni borligidir. Dissertatsiyani ijobiy baholab, uni himoyaga tavsfiya etaman.

Ilmiy rahbar:

t.f.d.professor: Mavrulov A.

